




Jonatan  
Swift

---

# Gulliverning sayohatlari



YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2014

**UO'K: 821.8-3**

**KBK: 84(5 ing)**

**Swift, Jonatan**

Gulliverning sayohatlari / Jonatan Swift. –T.: Yangi asr avlodi, 2014. –156 b.

ISBN 978-9943-27-235-4

Gulliverning ajoyib sarguzashtlari haqida maktab darsliklari orqali dastlabki ma'lumotga egamiz. Ingliz yozuvchisi Jonatan Sviftning mashhur asari qahramoni aslida sayohatga qiziquvchi vrach. Asarning ushbu qismi uch bo'limdan iborat bo'lib, ushbu kitobdan faqat ikkita sayohati, ya'ni Gulliverning liliputlar va darozlar mamlakatidagi sarguzashtlari o'rin olgan.

Har qanday asarning mohiyati kitob holda mukammalroq bo'ladi. Ekranlarimizda takror-takror ko'rgan sarguzashtlarni nashr etishdan maqsadimiz oliy. Toki, farzandlarimiz kitobga oshno, ma'naviyati teran, zehni o'tkir, qalbi uyg'oq bo'lsin.

**UO'K: 821.8-3**

**KBK: 84(5 ing)**

Rus tilidan  
Sotiboldi YOLDOSHEV  
tarjimasi

1349

ISBN 978-9943-27-235-4

© Jonatan Swift, «Gulliverning sayohatlari». «Yangi asr avlodi», 2014-yil.

# LILIPUTIYAGA SAYOHAT





---

## I

Uch havozali «Ohu» kemasi Janubiy okeanga jo'nab ketmoqda edi. Quyruq tomonda turgan kema vrachi – Gulliver durbindan bandargohga tikilardi. U yerda xotini bilan ikki bolasi – o'g'li Jonni va qizi Betti qolgan edi.

Bu Gulliverning birinchi marta dengiz safariga chiqishi emasdi. U sayohat qilishni yaxshi ko'rardi. Maktabdaligidayoq otasi yuborib turadigan pullarining hammasini dengiz xaritalari va o'zga yurtlar haqidagi kitoblarga sarflardi. U geografiya bilan matematikani qunt bilan o'rganardi, negaki, dengizchi uchun bu fanlar ko'proq kerak bo'ladi.

Otasi Gulliverni o'sha paytlardagi eng mashhur londonlik vrachga shogirdlikka berdi.

Gulliver uning qo'lida bir necha yil ta'lim oldi, ammo dengiz haqidagi o'ylarini yodidan qo'ymadi. Vrachlik kasbi ish berdi: o'qishni tugatgach, u «Qaldirg'och» kemasiga vrach bo'lib ishga kirdi va unda uch yarim yilcha dengiz kezdi. Keyin esa «Yaxshi umid» degan katta


kemada Sharqiy va G'arbiy Hindistonga bir necha bor safar qildi.

Safar vaqtida Gulliver hech zerikmasdi. Kayutasida uyidan olib chiqqan kitoblarni o'qir, qirg'oqda esa notanish qabilalarning turmushlarini kuzatar, ularning tillari va urf-odatlarini o'rganar edi. Qaytayotganida esa yo'lda ko'rgan-kechirganlarini batafsil yozib kelardi. Bu gal ham dengiz safariga otlanarkan, Gulliver qalingina qo'yin daftarcha olib chiqqan edi. Daftarchaning birinchi betida shu so'zlar yozilgan edi:

«1699-yilning 4-mayida Bristoldan safarga otlandik».

## II

«Ohu» Janubiy okean bo'ylab ko'pgina hafta va oylar davomida yo'l bosdi. Shamol qulay esardi. Sayohatlari muvaffaqiyatli davom etardi. Ammo



bir kuni, Sharqiy Hindistonga o'tayotganlarida kema dahshatli bo'ronga duch kelib qoldi. Bo'ron-u to'lqinlar uni noma'lum tomonga olib ketdi. Kemada esa oziq-ovqat va chuchuk suv tugab qolgan edi.

O'n ikki matros tinkasi qurigani va ochligidan vafot etdi. Qolganlari oyoqlarini arang surgab bosardilar. Kema esa pista po'choqdek u yoqdan-bu yoqqa qalqib ketardi.

Qop-qorong'i kechada shamol «Ohu»ni to'ppa-to'g'ri tikka qoyaga qarab yeldirib ketdi. Matroslar buni ancha kech payqab qolishdi. Kema qoyaning qirrasiga borib urilib, tilka-tilka bo'lib ketdi. Faqat Gulliver-u beshta matros qayiqda jon saqlab qolishga muvaffaq bo'lishdi. Ular qayerdadir yaqin orada yer borligini bilishar, unga yetib olishga umid bog'lashar edi. To'lqinlar ularni ancha vaqtgacha yeldirib yurdi, ular g'oyatda toliqib qoldilar. To'lqinlar esa tobora yuksalib borardi, nihoyat eng baland to'lqin qayiqni ko'tarib tashlab, ag'darib yubordi.

Gulliverni suv ko'mib ketdi.

U sho'ng'ib chiqqanida yonida hech kim yo'q, barcha hamrohlari cho'kib ketgan edi.

Esayotgan shamol va quyilib kelayotgan suv daldasida Gulliver yakka o'zi boshi oqqan tomonga qarab suzib keta boshladi. O'qtin-o'qtin oyog'ini yerga qo'yishga intilib paypaslanar, yerdan esa hech bir darak yo'q edi. Endi yana suzaverishga madori qolmagan: shalabbo bo'lgan kaftani bilan suvda bo'kib vazminlashgan poyabzali pastga tortar edi. Og'ziga suv kirib, nafasi tiqilardi. Birdaniga oyoqlari zarang yerga tegdi.

Sayoz joyga chiqib qolgan ekan. Gulliver qum bosgan yerga ehtiyotlik bilan bir-ikki qadam qoʻydi-da, suvning qarshiligini yenga-yenga asta-sekin oldinga qarab keta boshladi.

Yurishi tobora yengillashib borardi. Avval suv yelkasidan kelib turgan edi, keyin beligacha, shundan keyingina tizzasigacha tushdi. U, qirgʻoq juda yaqin qoldi, deb oʻylagan edi, lekin bu joyda suv tagidagi yerning nishabi juda yotiq ekan, Gulliver anchagacha tizza boʻyi suv kechib borishga majbur boʻldi. Nihoyat, suv bilan qum orqada qoldi. Gulliver juda yumshoq va gʻoyat pastak giyoh bosgan oʻtloqqa chiqib bordi. U yerga uzala tushib, yuzini kaftiga qoʻydi-da, qattiq uyquga ketdi.

### III

Gulliver koʻzini ochganida kun yorishib ketgan edi. U chalqancha yotar, quyosh tikka yuziga tushib turar edi.

Koʻzlarini ishqalamoqchi edi, qoʻlini koʻtarolmadi, oʻtirmoqchi boʻlgan edi, qimirlayolmadi. Tanasi qoʻltiqlaridan tortib tizzalarigacha chizimchalar bilan tangʻilgan; qoʻllari-yu oyoqlari chizimcha toʻr bilan tarang tortib qoʻyilgan; har bir barmogʻi ham chizimcha bilan tangʻilgan edi. Hatto qalin sochlarigacha chizimchalar bilan qoʻshib oʻrab, tarang tortganicha yerga qoqilgan qoziqchalarga chirmab qoʻyilgan edi. Gulliver toʻrga tushgan baliqqa oʻxshab qolgandi.

«Hali uxlayotibman, shekilli», deb oʻyladi u. Qoʻqqisdan sichqondek yugurik bir narsa oyogʻi

bo'ylab pildirab keldi. Ana, qorniga tirmashib chiqib, ko'kragi tomon beozor o'rmalay boshladi, endi engagiga yaqinlashib kela boshladi. Gulliver bir ko'zi bilan qiya qaradi. Bu qanday mo'jiza bo'ldi?!

Engaging tagginasida odam turibdi, qo'li bor, oyog'i bor rasmana odam turibdi!

Boshida – yaltiroq dubulg'a, qo'llarida – o'q bilan yoy, yelkasida – sadoq. O'zi esa bodringcha ham kelmaydi. Shundaylardan beshtasi yig'ilib kelsa Gulliverning kaftigayoq joylashib ketishi mumkin.

Gulliver hayratdan qichqirib yubordi. Jajji odamlar sarosimaga tushib, tiraqaylagancha qochishdi. Ular qoqilib yiqilishar, yana o'rinlaridan sapchib turib, ketma-ket yerga sakrashar edi.

Ikki-uch daqiqa hech kim Gulliverning yoniga yo'lamadi. Faqat quloqlari ostida chigirtkalarining shitir-shitiriga o'xshagan tovushlar tinimsiz eshitilib turardi.

Ammo tez orada jajji odamlar yana yurak yutib, uning oyoqlariga tirmashib chiqa boshladilar, oralaridagi eng dovyuragi pusgancha yuziga yaqin kelib, engagiga nayzasini taqab ko'rdi-da, ovozini yangratgancha qichqirdi:

– Gekina degul!

– Gekina degul! Gekina degul! – degan ingichka ovozlar qo'shildi hamma tomondan.

Ammo Gulliver, garchand ko'pgina chet tillarni bilsa-da, bu so'zlarning ma'nosini uqolmadi. Gulliver chalqancha tushgan ko'yi uzoq yotdi. Qo'llari-yu oyoqlari nihoyatda uvishib qolgan edi.



U bor kuchini yig'ib, chap oyog'ini yerdan uzib olishga tirishdi.

Nihoyat bunga muyassar bo'ldi. Yuzlab ingichka, chiyrak chizimchalar tang'ilgan qoziqchalarni sug'urib oldi-da, qo'lini ko'tardi.

Shu zahotiy oq pastda kimdir chiyillab chinqirdi:

– Tolgo finak!

Gulliverning qo'li, yuzi, bo'yniga bir yo'la yuzlab o'qlar sanchildi. Jajji odamlarning o'qlari ignadek ingichka, o'tkir edi. Gulliver ko'zlarini yumdi-da, qorong'i tushguncha qimirlamay yotmoqchi bo'ldi. «Qorong'ida bo'shalib olishim oson bo'ladi», deb o'yladi u. Ammo o'tloqda qorong'i tushishini poylab yotish nasib qilmadi. O'ng qulog'ining tagginasida ancha vaqt taq-tuqlagan tovush eshilib turdi, yonginasida kimdir taxtaga mix qoqayotgandek edi.

Bolg'achalar bir soat davomida taq-tuqlab turdi. Gulliver boshini sal burdi – shundan ortiq burishiga chizimchalar bilan qoziqchalar yo'l bermasdi – boshining yonginasida hozirgina qurib bitkazilgan yog'och minbarni ko'rdi. Bir necha jajji odam unga narvon qo'ymoqda edi.

Keyin ular qochib qolishdi, narvondan asta-sekin odimlagan cha minbarga uzun ridoli jajji odam chiqib keldi. Orqasidan bundan ikki barobar past yana bittasi uning etagini tutib kelmoqda edi. Chamasi mahram bola edi, shekilli. U Gulliverning jimjilog'icha ham kelmasdi.

Eng keyin minbarga qo'llarida tarang tortilgan kamalak tutgan cha ikki o'qchi chiqib keldi.

– Langro degyul san! – deb uch marta qichqirdi ridoli jajji odam va eni-bo‘yi qayin yaprog‘icha keladigan qog‘oz o‘ramini ochdi.

Shu ondayoq jajjilardan elliktasi Gulliverning oldiga yugurib kelib, uning sochlariga ulangan chizimchalarni kesib yubordi. Gulliver boshini burib, ridoli jajjining o‘qiyotganlariga quloq solib turdi. Ridoli uzundan-uzoq o‘qidi va gapira ketdi. Gulliver hech narsa tushunmagan bo‘lsa ham har ehtimolga qarshi bosh irg‘ab, bo‘sh qo‘lini ko‘ksiga bosdi. U payqadiki, qarshisida turgan kimsa qandaydir e‘tiborli shaxslardan, ajab emaski, qirolning elchisi bo‘lsa.

Avvalo, Gulliver elchidan unga ovqat berishlarini iltimos qilmoqchi bo‘ldi. Kemadan tushib kelganidan buyon tuz totmagan edi. U barmog‘ini ko‘tarib, bir necha marta lablariga olib bordi. Aftidan ridoli jajji odam Gulliverning imosini tushundi, shekilli. U minbardan tushib keldi-da, darozning yon tomonlariga bir necha uzun narvon qo‘yishni buyurdi. Chorak soat ham o‘tmagan ediki, bu narvonlardan ikki bukchaygan yuzlarcha yuk tashuvchilar oziq-ovqat solingan savatlar ko‘tarib chiqqan boshladilar. Savatlarga no‘xatdek keladigan minglab non, yong‘oq kattaligidagi dudlangan go‘sh, bizning pashshadan ham kichik qovurilgan jo‘jalar solingan edi. Gulliver birvarakayiga uchta non bilan ikkita son go‘shni paqqos tushirdi. Beshta biyron qilib pishirilgan buqa, sakkizta qoqlangan qo‘y, o‘n to‘qqizta dudlangan go‘sh bilan ikki yuztacha g‘oz-u jo‘jani yedi.

Tezda savatlar bo‘shab qoldi. Shundan keyin jajjilar Gulliverning qoliga vinoli ikki bochkani

dumalatib keldilar. Bochkalar bahaybat – har biri stakandek kelardi.

Gulliver bochkalardan birining tagini qoqib tushirdi, ikkinchisining tagini ham qoqib tashladi-da, bir necha yutishda ikkala bochkani ham quritdi-qo'ydi.

Jajjilar hayratlanganlaridan chapak chalib yubordilar. Keyin ular imo-ishoralar bilan bo'shagan bochkalarni yerga tashlashini iltimos qildilar.

Gulliver ikkalasini ham tashlab yubordi. Bochkalar havoda bir necha bor o'mbaloq oshib yerga tushdi-da, qasira-qusurlagancha turli tomonlarga dumalab ketdi.

O'tloqdagi xaloyiq chetlana turib qichqira boshladi:

– Borach mevola! Borach mevola!

Vinoni ichganidan keyin Gulliverning darrov uyqusi kelib qoldi. Ko'zi uyquda ekan, jajji odamlarning gavdasi bo'ylab uyoqdan-buyoqqa chopayotganini, tepalikdan quvgandek sirg'anib tushayotganini, uni kaltak va nayzalar bilan qitiqlayotganini, barmog'idan barmog'iga sakrayotganini sezib yotardi.

Uyqusini buzayotgan bu kichkina pitraklardan o'n-o'n beshtasini irg'itib tashlagisi keldi-yu, ammo ko'zi qiymadi. Negaki, bu jajji odamlar uni mazali, to'yimli taomlar bilan siylashdi, bunga javoban ularning qo'l-oyoqlarini mayib qilib qo'ysa nonko'rlik bo'lardi. Qolaversa, ularning hammasini bir chertishda behudaga qirib yuborishi mumkin bo'lgan bahaybat darozning ko'ksi bo'ylab uyoqdan-buyoqqa chopib yurgan

bu ushoq-ushoq odamlarning odatdan tashqari jasurligiga hayratlanmasdan iloji yo'q edi.

Gulliver ularga e'tibor bermaslikka qaror qildi. Vinoning o'tkirligidan karaxtlashib, tez orada uxlab qoldi. Jajji odamlarning ayni muddaosi ham shu edi. Ular bahaybat mehmonlarini uxlatish uchun bochkalardagi vinoga uyqu dori sepgan edilar.

#### IV

Gulliver kelib qolgan mamlakat Liliputiya deb atalardi. Bu mamlakatda liliputlar yashardi.

Liliputiya'dagi eng baland daraxtlarning bo'yi bizdagi qarag'ayning tupicha kelar, eng katta uylar stoldan ham past edi.

Gulliverdek daroz odamni Liliputiya'dagilardan hech kim hech qachon ko'rmagan edi.

Imperator uni poytaxtga olib kelishlarini buyurgan. Gulliverni uxlatganlarining sababi ham shunda edi. Imperatorning buyrug'i bilan besh yuz duradgor yigirma ikki g'ildirakli bahaybat arava yasadi. Arava bir necha soatda bitkazildi-yu, lekin Gulliverni unga ortish oson ish emas edi. Buning uchun liliput injenerlar shunday bir reja o'ylab topdilar. Ular aravani uxlab yotgan darozning yonboshiga taqab qo'ydilar. Keyin yerga tepasida chig'iri bor saksonta xoda o'rnatdilar-da, chig'irlarga bir uchiga ilgak ilingan yo'g'on arqonlar o'tkazdilar. Arqonlar rasmana chizimchadan yo'g'on emas edi. Liliputlar ishga kirishdilar. Ular Gulliverning butun gavdasi-yu ikki qo'li bilan ikki oyog'ini

qattiq chirmab tang'idilar-da, bog'ichlarni ilgaklarga ilib, chig'irlarga o'tkazilgan arqonlarni torta boshladilar.

Bu ishni amalga oshirish uchun Liliputiyaning hamma tomonlaridagi polvonlardan to'qqiz yuzta sarasi yig'ib kelingan edi.

Ular oyoqlarini yerga tiragancha qora terga tushib, kuchlari boricha arqonni ikki qo'llab tortardilar. Bir soat davomida ular Gulliverni yerdan yarim encha uzib ola oldilar, ikki soatdan keyin ikki encha ko'tardilar, uch soat deganda aravaga ortdilar.

Aravaga saroy otxonasidagi otlardan, kattaligi yangi tug'ilgan mushuk bolasidek keladigan, bir yarim mingta eng yirigini o'nta-o'ntadan qatorlab qo'shdilar.

Aravakashlar qamchilarini siltashlari bilan arava Liliputiyaning bosh shahri – Mildendoga olib boradigan yo'l bo'ylab asta-sekin jo'nadi.

Gulliver hamon uxlardi. Agar uni imperator gvardiyasidagi zobitlardan biri tasodifan uyg'otib yubormasa, ehtimolki, u manzilga yetgunlari-gacha ham uyg'onmagan bo'lardi.

Bu shunday yuz berdi.

Aravaning g'ildiragi chiqib ketdi. Aravani tuzatish uchun to'xtashlariga to'g'ri keldi.

Yosh zobitlardan bir nechtasi ana shundan foydalanib, uxlayotganida Gulliverning afti qanday qiyofaga kirganini ko'rmoqchi bo'ldilar. Ular otlarida arava yaqiniga bordilar, ulardan biri chap burun katagiga nayzasini suqdi. Gulliver burnini jiyirdi-da, qattiq aksirib yubordi.

– Ap-shu! – degan aks-sado eshitildi.

Zobitlar otlarining choviga niqtab, aravadan shataloq otgancha qochdilar.

Uyg'onib ketgan Gulliver aravakashlarning qamchilarini qarsillayotganini eshitib, uni qayoqqadir olib ketayotganlarini payqadi.

Ko'pik bosgan otlar chirmab tashlangan Gulliverni kun bo'yi Liliputiya yo'llari bo'ylab tortib bordilar. Arava yarim kecha degandagina to'xtadi-da, otlarni sug'orib, yem berish uchun ularni aravadan chiqardilar. Kechasi bilan aravaning ikki tomonida – besh yuztasi mash'ala ko'targan, besh yuztasi kamonini shay tutgan holda mingta gvardiyachi soqchilikda turdi. O'qchilarga Gulliver mabodo qimir etgudek bo'lsa o'sha zahoti besh yuzta o'q uzish buyurilgan edi. Tong otishi bilan arava yana yo'lga tushdi.

## V

Shahar darvozasi yaqinidagi maydonda ikki burchagida minorasi bor, qarovsiz ko'hna qasr turardi. Qasrda allaqachonlardan beri hech kim yashamasdi. Liliputlar Gulliverni ana shu bo'sh yotgan qasr oldiga olib keldilar. Bu butun Liliputiya eng katta bino edi.

Uning minoralari odam bo'yicha kelardi. Bosh eshigidan hatto Gulliverdek kattakon odam to'rt oyoqlagancha bemalol emaklab kirishi, marosimlar zalida esa bor bo'yicha qad rostlab tura olishi ham mumkin edi. Liliputiya imperatori Gulliverni shu yerga joylashtirmoqchi edi. Ammo Gulliver hali bundan bexabar edi. U aravasida yotar, hamma tomonlardan uning oldiga to'da-

to'da liliputlar yopirilib kelmoqda edi. Otliq soqchilar qiziquvchilarni haydar, ammo shunga qaramay o'n mingdan ortiq jajji odam hali tang'ilgan cha yotgan Gulliverning oyoqlari, tizzalari-yu ko'ksi bo'ylab izg'ib chiqishga ulgurgan edi.

Birdan uning oyog'iga nimadir urildi. Oyog'iga qaragan edi, yenglarini shimargan va qora peshgir tutgan bir necha liliputni ko'rdi. Ularning qo'llarida ushoqqina bolg'achalar yiltirardi. Saroy temirchilari Gulliverni zanjirband qilmoqda edilar. Ular qasr devoridan uning oyoqlariga bizda soat uchun yasaladigan zanjir yo'g'onligidagi to'qson bitta zanjir tortib, to'piqlariga urdilar-da, ularni o'ttiz oltita osma qulf bilan qulfladilar. Zanjirlar shunchalik uzun ediki, Gulliver qasr oldidagi maydonda sayr qilib yurishi, uyiga bermalol emaklab kira olishi mumkin edi. Temirchilar ishlarini tugatib, chetga chiqdilar. Soqchilar arqonlarni qirqib yubordilar, Gulliver o'rnidan turdi.

– E-eh! – deb qichqirdilar liliputlar. – Kuinbus flestrin! Kuinbus flestrin!

Liliputchasiga bu: «Tog' odam! Tog' odam!» degani edi.

Gulliver mahalliy aholidan bitta-yarimtasini bosib olmaslik uchun oyoqlarini ko'tarib bosdida, atrofga razm tashladi. Umri bino bo'lib bunday ko'rkam mamlakatni ko'rmagan edi. Bu yerdagi bog'-u o'tloqlar olachipor gulxonalarga o'xshardi. Daryolar jilg'a bo'lib oqar, yiroqdagi shahar o'yinchoqdek tuyular edi. Gulliver shu qadar mahliyo bo'lib qolgan ediki, atrofiga poytaxtning deyarli butun aholisi yig'ilganini sezmedi.

Liliputlar uning oyoqlari ostida uymalashar, poyabzalining to'qalarini paypaslab ko'rar, boshlarini shu qadar orqaga tashlab tikildirdi, shlyapalari tushib ketar edi.

Bolalar qaysi birlari tosh uloqtirib uni Gulliverning burnigacha yetkaza olishlari mumkinligi to'g'risida bahslashishardi. Olimlar o'zaro Kuinbus flestrinning qayoqdan kelib qolganligi haqida mulohaza yuritishardi.

– Bizning eski kitoblarimizda yozilganki, – dedi bir olim, – ming yil muqaddam dengiz bizning sohilimizga mudhish maxluqni chiqarib tashlagan ekan. O'ylaymanki, Kuinbus flestrin ham dengiz tagidan sho'ng'ib chiqqan.

– Yo'q, – derdi unga javoban ikkinchi bir olim, – dengiz maxluqining bahaybat tishlari bilan quyruqi bo'lishi kerak. Kuinbus flestrin oydan qulab tushgan.

Liliput donishmandlari dunyoda boshqa mamlakatlar ham borligini bilmas, hamma joyda ham liliputlar yashaydi, deb o'ylar edilar.

Olimlar kallalarini chayqagan ko'yi Gulliverning atrofida anchagacha aylanib yurdilar-u, lekin baribir uning qayoqdan kelib qolgani to'g'risida bir qarorga kelolmadilar.

Qora ot mingan suvorilar nayzalarini o'q talib xaloyiqni haydadi.

– Peplam selyan! Peplam selyan! – deb qichqirardi suvorilar. Gulliverning ko'zi g'ildirakli oltin qutichaga tushdi. Qutichani oltita oq ot tortib kelmoqda edi. Uning yonida ham oq ot mingan, pat taqilgan oltin dubulg'ali jajji odam chopib kelmoqda edi. Jajji odam to'ppa-to'g'ri



Gulliverning poyabzali oldiga keldi-da, otining jilovini tortdi. Ot pishqirib osmonga sapchidi. Shu ondayoq bir necha zobit suvorining ikki tomonidan yugurib keldi-da, otining jilovidan tutib, ehtiyot bilan Gulliverning oyog'i ostidan nariga olib ketdi. Oq ot mingan suvori Liliputiyaning imperatori edi. Oltin karetada esa malika o'tirardi.

To'rtta mahram maysazorga bir laxtak baxmalni yozib, uning o'rtasiga gugurt qutichadek keladigan kresloni qo'ydi-da, kareta eshigini ochdi.

Malika tushdi-da, kresloga o'tirib ko'ylagini tuzatdi.

Atrofidagi oltin kursilarga uning kanizaklari o'tirdilar. Ular shu qadar hashamatli kiyingan edilarki, butun maysazor zar, nuqra, turfa-turfa ipaklar bilan naqsh tikilib yozib qo'yilgan libosdek bo'lib ketdi. Imperator otidan sakrab tushib, Gulliverning atrofidan bir necha marta aylandi. Mulozimlari orqasidan ergashib yurardi. Imperatorni yaxshilab ko'rib olish uchun Gulliver yonboshlab yotdi. Hazrati oliylari saroy a'yonlaridan kamida tirnoq bo'yi baland edi. Uning bo'yi ikki enli bo'lib, Liliputiya da eng novcha odam hisoblansa kerak. Imperator qo'lida gugurt cho'pidan salgina uzunroq, yalang'ochlangan qilich tutib turardi. Qilichning sopi bilan qinida brilliantlar chaqnardi. Imperator hazrati oliylari boshini orqasiga tashlab, Gulliverdan nimanidir so'radi.

Gulliver uning savolini tushunmadi, ammo har ehtimolga qarshi kimligi-yu qayoqdan kelganini

imperatorga gapirib berdi. Imperator kiftlarini uchirib qo'ya qoldi. Shundan keyin Gulliver xuddi o'sha gaplarini gollandchasiga, lotinchasiga, grekchasiga, fransuzchasiga, ispanchasiga, italyanchasiga va turkchasiga so'zlab berdi. Biroq Liliputiya imperatori bu tillarni bilmas ekan, shekilli, u Gulliverga bosh irg'ab, shartta egarga qo'ndi-da, Mildendo tomonga ot choptirib ketdi. Uning izidan imperator xonim ham kanizaklari bilan jo'nadi. Gulliver esa zanjirband itga o'xshab qasr oldida o'tirganicha qoldi.

## VI

Kechga borib Gulliverning atrofini shaharning barcha aholisi-yu qo'shni qishloqlardagi dehqonlarning barchasi – kam deganda uch yuz chog'li liliputdan iborat olomon qurshab oldi.

Ulardan har qaysisi ham Kuinbus flestrin – Tog' odamning qanaqaligini ko'rgisi kelardi.

Gulliverni nayza, o'q-yoy va qilichlar bilan qurollangan soqchilar qo'riqlab turardi.

Ularga hech kimni Gulliverning yaqiniga yo'latmaslik, uning zanjirni uzib qochib ketmasligi uchun ogoh bo'lib turish haqida buyruq berilgan edi.

Qasr oldida ikki ming askar saf tortdi, ammo shunday bo'lsa-da, shahar ahlidan bir galasi saf orasidan yorib o'tdi. Birovlari Gulliverning poshnalarini tomosha qilar, boshqalari unga tosh otar yoki nimchasining tugmachalarini nishonga olib kamalakdan o'q uzar edilar.

Mo'ljalga olib otilgan o'q Gulliverning bo'ynini tirnab o'tdi, ikkinchi o'q esa chap ko'ziga tegishiga

sal qoldi. Soqchilar boshlig'i bezorilarni ushlab, oyoq-qo'llarini bog'lagan cha ularni Kuinbus flestringa topshirishni buyurdi. Bu har qanday boshqa jazodan dahshatli edi. Askarlar oltita liliputni chirmab bog'lab, nayzalarining orqasi bilan turta-turta ularni Gulliverning oyog'i ostiga haydab keldilar.

Gulliver engashib, ularning hammasini bir qo'li bilan ko'tarib oldi-da, kamzulining cho'ntagiga solib qo'ydi. Faqat bitta jajji odamnigina qo'lida olib qolib, uni ikki barmog'i bilan avaylab tutgan cha ko'zdan kechira boshladi. Jajji odam Gulliverning barmog'iga yopishib oldi-da, jon holatda qichqirib yubordi. Gulliver jajji odamga achinib ketdi. Unga muloyimgina jilmaydi-da, liliputning qo'l-oyoqlarini chirmab turgan chizimchalarni qirqish uchun nimchasi cho'ntagidan qalamtaroshini oldi.

Gulliverning yiltiroq tishlarini, bahaybat pichog'ini ko'rgan liliput undan ham battar chinqirdi. Pastdagi xaloyiq vahimadan jimjit bo'lib qoldi. Gulliver esa chizimchalarni ohista, birma-bir qirqib, jajji odamni yerga qo'ydi. Keyin u cho'ntagida tipirchilayotgan liliputlarni ham navbatma-navbat bo'shatib yubordi.

– Glyum gleff Kuinbus flestrin! – deb qichqirdi olomon yoppasiga.

Liliputchasiga bu: «Yashasin Tog' odam!», degani edi.

Soqchilar boshlig'i esa yuz bergan voqealarning hammasini imperatorning shaxsan o'ziga ma'lum qilish uchun saroyga ikki mulozimini jo'natdi.

## VII

Bu orada esa Belfaborak saroyining eng ovloq zalida imperator Gulliverni nima qilish kerakligini hal etish uchun maxfiy kengash chaqirgan edi. Vazirlar va maslahatchilar bir-birlari bilan to'qqiz soatdan buyon bahslashmoqda edilar.

Birovlar Gulliverni tezroq o'ldirish kerakligini aytishardi. Agar Tog' odam zanjirini uzib qochadigan bo'lsa u butun Liliputiyanini yanchib ketishi mumkin. Bordi-yu, qochmagan taqdirda ham imperiya dahshatli ochlik xavfi ostida qoladi, negaki u har kuni bir ming yetti yuz yigirma sakkiz liliputni to'ydirish uchun kerak bo'ladigan non-u go'shtdan ortiqrod non va go'sht yeydi. Buni maxfiy kengashga taklif etilgan bir olim hisoblab chiqqan, negaki u sanoqqa juda usta ekan.

Boshqalar Kuinbus flestrinni o'ldirish uni tirik qoldirish bilan bab-barobar xavfli ekanini uqtirardilar. Shunday bahaybat jasad chirisa bormi, poytaxtdagina emas, butun mamlakat bo'ylab o'lat boshlanib ketishi mumkin. Davlat kotibi Reldressel imperatordan so'z so'rab, Gulliverni aqalli Mildendoning tevaragidan yangi qal'a devori olinmaguncha o'ldirmay turish kerakligini aytdi. Gulliver bir ming yetti yuz yigirma sakkiz liliputdan ko'proq non-u go'sht yegani bilan, shunisi borki, ikki ming liliput bajaradigan ishni ado etishi mumkin. Bundan tashqari urush bo'lib qolgan taqdirda Tog' odam mamlakatni beshta istehkomdan afzalroq himoya qilishi mumkin. Imperator chodir tutilgan taxtida

vazirlarining gaplariga quloq solib o'tirardi. Reldressel gapini tugatishi bilan u bosh silkib qo'ydi. Hamma davlat kotibining so'zlari unga ma'qul bo'lganini payqadi.

Ammo shu vaqt Liliputiya butun flotining komandiri admiral Skayresh Bolgolam o'rnidan turdi.

– Tog' odam, – dedi u, – jahondagi odamlarning eng kuchlisi, bu rost. Xuddi shuning uchun ham uni mumkin qadar tezroq qatl qilish kerak. Axir u urush vaqtida Liliputiyaning dushmanlariga qo'shib ketadigan bo'lsa bormi, o'shanda imperator gvardiyasining o'nta polki ham unga bas kelolmaydi. Hozircha u liliputlarning izmida turibdi, binobarin, vaqt g'animatida ish ko'rib qolish kerak.

Xazinachi Flimnon, general Limtok va sudya Belmaf admiralning fikriga qo'shildilar.

Imperator jilmaydi-da, admiralga qarab bosh silkidi – hatto Reldresselga silkiganidek bir marta emas, ikki marta silkidi. Bu nutq unga yana ham ko'proq yoqqani ko'rinib turardi.

Gulliverning taqdiri hal bo'lgan edi.

Ammo bu vaqt eshik lang ochilib, maxfiy kengash zaliga soqchilar boshlig'i jo'natgan ikki zobit yugurib kirdi. Ular imperator qarshisida tiz cho'kdilar-da, maydonda yuz bergan voqealarni mulozimga ma'lum qildilar. Zobitlar Gulliverning bandilarga qanday shafqat ko'rsatganini so'zlab bergach, davlat kotibi Reldressel yana so'z so'radi.

U yana uzundan-uzoq nutq so'zlab, unda Gulliverdan qo'rqishning hojati yo'qligini,

imperatorga uning o'ligidan ko'ra tirigi ko'proq foyda yetkazishini ta'kidladi.

Imperator Gulliverni afv etishga qaror qildi, biroq undan mulozimlar hozirgina gapirib bergan bahaybat pichoqni, bir yo'la, mabodo tintuv vaqtida topilib qolgudek bo'lsa, har qanday boshqa qurollarini ham tortib olishni buyurdi.

## VIII

Gulliverni tintish ikki amaldorga topshirildi.

Ular Gulliverga imperator undan nima talab qilayotganini imo-ishoralar bilan tushuntirdilar.

Gulliver ular bilan bahslashib o'tirmadi. U ikkala amaldorni qo'liga oldi-da, ularni avval kamzulining bir cho'ntagiga, keyin ikkinchi cho'ntagiga solib qo'ydi, so'ngra ularni cholvori va nimchasidagi cho'ntaklarga ko'chirdi.

Gulliver amaldorlarni bitta xufiya cho'ntagigagina yaqin yo'latmadi. U cho'ntagiga ko'zoynagi, durbini va kompasini yashirib qo'ygani edi.

Amaldorlar fonar, qog'oz, pero va siyoh olib kelgan edilar. Ular Gulliverning cho'ntaklarini tintish uchun soatdan ortiq mashg'ul bo'ldilar – buyumlarni ko'zdan kechirdilar va qayd-ro'yxat tuzdilar. Ishlarini tugatgach, Gulliverdan ularni oxirgi cho'ntagidan olib yera tushirib qo'yishni iltimos qildilar. Shundan keyin ular Gulliverga ta'zim qilib, tuzgan qayd-ro'yxatlarin saroyga olib jo'nadilar.

Qayd-ro'yxat quyidagicha edi:

1. Kishilar orasida eng bahaybati Tog' odam kamzulining o'ng cho'ntagida biz kattakon bir



laxtak dag'al bo'z topdik, u hajmining kattaligi bilan Belfaborak zalining marosimlar xonasi uchun palos bo'lib xizmat qilishi mumkin edi.

2. O'ng cho'ntagida biz bahaybat kumush sandiq uchratdik. Uning qopqog'i shu qadar og'ir ekanki, o'zimiz ochishga chog'imiz kelmadi.

Kuinbi flestrin bizning talabimiz bilan sandig'ining qopqog'ini ochgan edi, sandiq og'zigacha yirik sarg'ish payraxa bilan to'ldirilganini ko'rdik. Bu payraxalarning achchiqligidan ikkovimiz ham anchagacha betinim aksirdik.

3. Cholvorining o'ng cho'ntagida kattakon pichoq bor ekan, uzunligi eng novcha liliputdan ham ikki barobar ortiq.

4. Cholvorining chap cho'ntagidan bizning o'lkalarda uchramaydigan temir bilan yog'ochdan yasalgan mashina topildi. U shu qadar katta va og'ir ekanki, kuchimiz boricha urinib ko'rganimiz bilan o'rnidan qo'zg'ata olmadik. Bu hol mashinani har tomonlama ko'zdan kechirishimizga yo'l bermadi.

5. Nimchasining o'ng tomonidagi ko'krak cho'ntagida bizga ma'lum bo'lmagan qandaydir oq va silliq materialdan tayyorlab dastalangan mutlaqo bir xil, to'rtburchak varaqlar bor ekan. Balandligi yarim odam bo'yi, qalinligi uch quloch keladigan ana shu dastalangan varaqlar yo'g'on arqon bilan tikilgan. Biz ustki varaqlardan bir nechasini diqqat bilan ko'zdan kechirdik va ularda qator-qator sirli qora belgilarni ko'rdik. Taxmin qilamizki, bular bizga noma'lum alifboning harflari bo'lsa kerak. Har bir harfi shapaloqdek keladi.

6. Nimchasining chap tomondagi ko'krak cho'ntagida biz kattaligi baliq tutadigan to'rdan kichik bo'lmagan, lekin tuzilishi jihatidan hamyonga o'xshab ochilib-yopiladigan to'r uchratdik. Ichida qizg'ish, oqish va sarg'ish metallardan yasalgan bir necha buyum bor ekan.



Ular turli kattalikda bo'lsa ham, ammo shakllar. bir xil – g'ildirak va yapasqi. Qizg'ishlari – misdan yasalganga o'xshaydi. Ular shu qadar og'irki, ikkovimiz arang ko'tardik. Oqishlari kumushdan bo'lsa kerak – kichikroq. Ular jangchilarimizning qalpoqlariga o'xshaydi. Sarg'ishlari – chamasi, oltindan bo'lsa kerak. Ular bizning likopchalardan kattaroq, biroq juda zalvorli. Mabodo bular asil oltindan bo'lsa juda qimmat turishi aniq.

7. Nimchasining o'ng tomondagi pastki cho'ntagidan yo'g'on metall zanjir osilib turibdi, kumushga o'xshaydi. Bu zanjir cho'ntakka solib qo'yilgan, o'sha metalldan yasalgan kattakon g'ildirak buyumga ulab qo'yilibdi. O'zi qanday buyumligi noma'lum. Bir yuzasi xuddi muz kabi shaffof, undan doira bo'ylab joylashgan o'n ikkita qora belgi va ikkita uzun-uzun nayza yaqqol ko'rinib turibdi. Ana shu g'ildirak buyumning ichida, aftidan, qandaydir sirli maxluq o'tiradi, shekilli, tinimsiz tishlarini urishtiribmi, dumini uribmi taq-tuq tovush chiqaradi. Kuinbus flestrin bizga qisman so'z bilan, qisman qo'l harakatlari bilan tushuntirib berdi, ana shu metall quticha bo'lmasa ertalab qachon turishi-yu kechqurun qachon yotishi, qachon ish boshlashi-yu qachon tamomlashi kerakligini bilolmas ekan.

8. Nimchasining chap tomondagi quyi cho'ntagida biz saroy bog'ining panjarasiga o'xshagan narsa uchratdik. Bu panjaraning uchli chivirlari bilan Tog' odam sochini tararkan.

9. Tog' odamning kamzuli bilan nimchasini tekshirib bo'lganimizdan keyin biz uning kamarini ko'zdan kechirdik. U qandaydir

bahaybat hayvonning terisidan yasalgan. Uning chap tomonida o'rtacha odam bo'yidan besh marta uzunroq qilich, o'ng tomonida esa ikki xonali qop osilib turibdi. Ularning har birida uchtdan katta yoshdagi liliput joylashishi mumkin.

Xonalardan birida biz odam boshidek keladigan, anchagina silliq, zalvorli metall soqqalar uchratdik: ikkinchisi esa allaqanday anchagina yengil, uncha yirik bo'lmagan qora ushoqlar bilan limmo-lim to'ldirilgan. Biz ana shu ushoqlardan bir necha o'ntasini ko'tarib ko'rdik. Tog' odamni tintish vaqtida topilgan buyumlarining aniq qayd-ro'yxati shundan iborat.

Tintuv vaqtida yuqorida nomi zikr etilgan Tog' odam o'zini odob bilan xotirjam tutdi.

Qayd-ro'yxat tagiga amaldorlar muhr bosib, shunday imzo chekdilar: Kleferin Frelon, Marsi Frelon.

## IX

Ertasiga ertalab Gulliverning uyi oldida qo'shinlar saf tortdi, saroy ahli yig'ildi. A'yonlariyu, vazirlar bilan imperatorning o'zi ham keldi. Shu kuni Gulliver imperatorga qurolini topshirishi kerak edi. Bir amaldor qayd-ro'yxatni baland ovoz bilan o'qir, ikkinchisi Gulliverning cho'ntagidan cho'ntagiga yugurib qaysi buyumlarni chiqarish kerakligini ko'rsatar edi.

– Bir laxtak dag'al bo'z! – deb qichqirdi ro'yxatni o'qiyotgan amaldor Gulliver dastro'molini yerga tashladi.

- Kumush sandiq!

Gulliver choʻntagidan tamakidonini oldi.

- Dastalab arqon bilan tikilgan silliq oq varaqlar.

Gulliver yon daftarchasini olib, tamakidonini yoniga qoʻydi.

- Bogʻ panjarasiga oʻxshagan uzun buyum!

Gulliver tarogʻini olib qoʻydi.

- Qayish kamar, qilich, bir xonasida metall soqqalar, ikkinchisida qora ushoqlar bor qoʻsh xonali qop!

Gulliver kamarini yechib, uni xanjari va oʻq hamda oʻq dori solingan xaltacha bilan birga yerga tashladi.

- Temir va yogʻochdan yasalgan mashina! Mis, kumush va oltindan yasalgan gʻildirak buyumlar solingan, baliq tutadigan toʻr! Bahaybat pichoq! Gʻildirak metall quti!

Gulliver toʻpponchasi, pul solingan hamyoni, qalamtaroshi va soatini olib qoʻydi.

Imperator avvalo qalamtarosh bilan xanjarni koʻzdan kechirdi, keyin esa Gulliverga toʻpponcha qanday otilishini koʻrsatishni buyurdi. Toʻpponcha oʻqlangan edi. Gulliver uni qoʻliga oldida, osmonga qaratib oʻq uzdi. Quloqni bitiruvchi gulduros yangradi.

Koʻpdan-koʻp odamlar hushdan ketib yiqildilar, imperator esa oppoq oqarib ketdi-da, yuzini qoʻllari bilan yashirib, anchagacha koʻzlarini ochishga yuragi betlamadi. Tutun tarqalib, hamma osoyish topgach, Liliputiyaning hukmdori qalamtarosh, xanjar va toʻpponchani aslahaxonaga olib ketishni buyurdi.

Boshqa buyumlarini Gulliverga qaytarib berishdi.

## X

Gulliver yarim yilcha asirlikda yashadi. Oltita eng mashhur olim har kuni qasrga kelib unga liliput tilini o'rgatishdi.

Uch haftadan keyin u atrofidagilarning nima deyayotganlarini tushunadigan, ikki oydan keyin esa Liliputiya aholisi bilan o'zi ham gaplashadigan bo'lib qoldi. Birinchi darslaridanoq u o'zi uchun hamma narsadan zarur bo'lgan: «Hazrati oliylari, meni ozod qilishingizni iltijo etaman», degan jumlanı yodlab oldi. U har kuni tiz cho'kib, bu so'zlarni imperatorga takrorlar, imperator esa doimo bir xil javob qaytarar edi:

– Lyumoz kelmin pesso desmor lon empozol!

Bu: «Toki men-u, mening imperiyam bilan totuvlikda yashash haqida menga qasamyod etmaguningcha seni ozod qilolmayman», degani edi.

Gulliver o'zidan talab qilingan qasamyodni istalgan daqiqada ado etishga tayyor edi. U jajji odamlar bilan mutlaqo urishmoqchi emasdi. Ammo imperator tantanali qasamyod marosimini kundun-kunga kechiktirmoqda edi. Liliputlar Gulliverga bora-bora ko'nikib, undan qo'rqmaydigan bo'lib qoldilar.

Ko'pincha kechqurunlari u qasrining oldida yerga uzala tushardi-da, beshtami, oltitami jajji odamga kaftida o'yin tushishga izn berardi. Mildendoga bolalar uning sochlari orasida

bekinmachoq o'ynagani kelishardi. Hatto liliputlarning otlari ham Gulliverni ko'rganda pishqirmaydigan, sapchimaydigan bo'lib qoldi. Imperator gvardiyasining otlarini jonli tog'dan hurkmaslikka o'rgatish uchun ko'hna qasr oldida imkoni boricha, ataylab o'qtin-o'qtin chavandozlik mashg'ulotlari o'tkazib turishni buyurdi.

Ertalablari qo'shin va imperatorning xususiy sayisxonalaridagi otlarni Gulliverning oyoqlari ostidan olib o'tardilar.

Suvorilar otlarini uning yerda uzala yotgan qo'lidan sakrab o'tishga majbur qilishar, bir dovyurak chavandoz esa qachondir hatto uning zanjirband oyog'idan oshib o'tgan edi.

Gulliver haligacha zanjirband edi. Bekorchilikdan zerikib ish bilan shug'ullanishga kirishdi-da, o'zi uchun stol-stul va karavot yasadi. Buning uchun unga imperator o'rmonidagi eng yo'g'on daraxtlardan mingtachasini olib kelib berdilar.

Gulliver uchun ko'rpa-to'shakni eng yaxshi mahalliy ustalar tayyorlab berdilar. Ular qasrga liliputlar yotadigan olti yuzta oddiy to'shak olib keldilar. Ular to'shaklarni bir yuz elliktadan ulab Gulliverning bo'yiga yarasha to'rtta katta to'shak yasadilar. Ularni qavatma-qavat to'shadilar, ammo baribir Gulliverning yonboshi yerga botar edi.

Unga ko'rpa bilan choyshabni ham shu tariqa tayyorlab berdilar. Ko'rpa yupqa chiqdi, issiq tutmasdi. Gulliver uchun nonushta, tushki va kechki ovqatlarni uch yuzta oshpaz pishirardi. Buning uchun qasr yonida butun boshli oshxonalar ko'chasi qurdilar – uning o'ng tomoni

bo'ylab oshxonalar cho'zilib ketgan, chap tomonida esa oshpazlar oilalari bilan turishar edi.

Dasturxon atrofida bir yuz yigirmaga yetar-yetmas liliput xizmat qilardi.

Yigirmatacha jajji odamni Gulliver qo'li bilan stolga chiqarib qo'yardi. Qolgan yuztasi pastda ishlardi. Birovlari taomlarni zambil g'altakda yoki zambilda olib kelar, boshqalari stolning oyog'i tagiga vinoli bochkalarni dumalatib kelar edilar. Stoldan pastga pishiq arqonlari tortilgan, stoldagi jajji odamlar esa maxsus chig'irlar yordamida taomlarni yuqoriga tortib chiqarardilar.

Har kuni saharlab ko'hna qasrga butun boshli poda – oltita buqa, qirqta qo'y, qanchadan-qancha ushoq hayvonlardan haydab kelishardi.

O'tda pishirilgan buqa va qo'ylarni Gulliver odatda ikki bo'lak, hatto uch bo'lak kesardi. Kurka bilan g'ozlarni nimtalab o'tirmay butunicha chaynar, kaklik, loyxo'rak, bulduruq



kabi ushoq parrandalarni esa bir yo'la o'ntalab, goho esa o'n beshtalab oshalar edi.

Gulliver ovqatlanayotganida gala-gala liliputlar atrofini qurshab, unga tikilib turar edilar. Bir marta hatto imperatorning o'zi malikasi, shahzoda o'g'il-qizlari-yu a'yonlari bilan bunday g'aroyib tomoshani ataylab ko'rgani keldi. Gulliver atoqli mehmonlarning kreslolarini idish-tovoqlarining qarshisiga qo'yib, navbatma-navbat imperator, malika va o'g'il-qizi, shahzodalarning sog'liqlariga qadah ko'tardi. Shu kuni mehmonlarini hayratga solish va ularning ko'ngillarini xushlash uchun u hatto odatdagidan ko'proq ovqat yedi, ammo taomlar boshqa vaqtdagilarga qaraganda mazasizroq tuyuldi.

Gulliver davlat xazinachisi Flimnan unga ko'zlaridan g'azab sochgancha, o'takasi yorilgudek bo'lib qarab turganini sezdi.

Darhaqiqat, ertasiga xazinachi Flimnan imperatorga arz bilan kirdi. U shunday dedi:

– Tog'lar, hazrati oliylari, tirik bo'lgani uchun emas, o'lik bo'lgani uchun yaxshi, shunga ko'ra ularni boqishning ham hojati yo'q. Mabodo bironta toqqa jon kirib, to'ydirishni talab qilib qolsa, uni har kuni nonushta-yu tushki, kechki ovqat bilan siylab o'tirgandan ko'ra yana o'likka aylantirib qo'ya qolgan maqsadga muvofiq.

Imperator Flimnanning so'zlarini iltifot bilan eshitdi-yu, ammo uning fikriga qo'shilmadi.

– Oshiqmang, azizim Flimnan, – dedi u. – Hamma narsaning ham fursati bor.

Gulliver bu gaplardan butunlay bexabar edi. U qasr oldida tanish liliputlari bilan suhbatlashib

o'tirar, kiyimining yengidagi katta yirtiqni g'amginlik bilan ko'zdan kechirar edi.

U ko'p oylardan beri kiyim almashtirmay, hamon bitta-yu bitta ko'ylagini, bitta-yu bitta kamzuli va nimchasini kiyib yurar, tez orada ular juldur-juldur bo'lib ketishini o'ylab tashvishlanar edi. U yamoq solishi uchun qanday bo'lmasin qalinroq mato berishlarini so'radi, ammo buning o'rniga oldida uch yuzta tikuvchi paydo bo'ldi. Tikuvchilar Gulliverga cho'kkalashni buyurib, uning yelkasiga uzun narvon qo'ydilar.

Tikuvchilarning kattasi shu narvondan Gulliverning bo'ynigacha chiqib bordi-da, uning ensasidan yergacha uchiga tosh bog'langan chizimcha tushirdi. Unga shunday uzunlikda kamzul tikib berishlari kerak edi. Yenglari bilan belini Gulliverning o'zi o'lchab berdi. Ikki haftadan keyin Gulliverning yangi kamzuli tayyor bo'ldi. U juda ixcham chiqdi-yu, lekin quroq ko'rpaga o'xshardi, nega deganda uni bir necha ming qiyqim matodan qurab tikiha to'g'ri kelgan edi.

Gulliver uchun ko'ylakni ikki yuz chevar xotin tikdi. Buning uchun ular eng pishiq va dag'al mato tanladilar, lekin uni ham bir necha qavat qilib taxlab, keyin qavishlariga to'g'ri keldi, chunki Liliputiyadagi eng qalin yelkanbop kanop bo'z bizning dokadan ham yupqa. Bu liliput matosining to'ni odatda yozig'ligicha uzunligi maktab daftarining bir betidek, eni daftarining yarim betidek keladi.

Chevarlar Gulliverdan u o'rnida yotganida andoza oldilar. Ulardan biri uning bo'yniga, ikkinchisi esa tizzasiga borib turdi. Ular uzun



chizimchani ikki uchidan ushlab tarang tortdilar, uchinchi chevar esa chizg'ich bilan chizimchani uzunligini o'lchadi.

Gulliver eski ko'ylagini yerga yozib qo'yib, uni chevarlarga ko'rsatdi. Ular ko'ylakning yenglari, yoqasi va ko'krigidagi burma qatlarini bir necha kun ko'zdan kechirdilar, keyin bir hafta mobaynida bejirimgina qilib xuddi shunday bichimda ko'ylak tikib berdilar.

Gulliver g'oyatda xursand edi. U boshdan-oyoq pokiza va to'kis libos kiyishga musharraf bo'ldi.

Endi unga shlyapagina yetishmasdi. Lekin bu orada baxtli tasodif joniga ora kirdi. Bir kuni imperator saroyiga chopar shunday xabar olib keldi: Tog' odam topilgan joyning yaqinidagi podachilar o'rtasi do'ng, aylanasi serbar yotiq qirrali bahaybat qora jism uchratishibdi. Avvaliga mahalliy aholi bu qandaydir dengiz hayvoni bo'lsa kerak, deb o'ylabdi. Ammo bu narsa mutlaqo qimir etmasdan, nafas olmasdan, hech narsa totmasdan yotavergach, uning Tog' odamga tegishli qandaydir bir buyum bo'lishi mumkinligini tusmol qilishibdi. Agar hazrati oliylari buyruq bersalar u narsani beshta ot bilan olib kelishi mumkin ekan.

Imperator rozilik berdi, bir necha kundan keyin podachilar Gulliver qirg'oqda yo'qotib qo'ygan eski qora shlyapasini olib kelib berdilar.

Shlyapa yo'lda anchagina to'zigan, negaki, aravakashlar qirrasinini ikki joyidan teshib, butun yol bo'yi uzun arqonlar bilan sudrab kelishgan edi. Ammo har qalay bu shlyapa desa degudek ediki, Gulliver uni boshiga kiyib oldi.

## XI

Imperatorga yoqish va tezroq ozodlikka chiqish uchun Gulliver odatdan tashqari bir ermak o'ylab topdi. U o'rmondan mo'lroq qilib yo'g'on daraxtlardan kesib kelishni iltimos qildi.

Ertasiga yetti aravakash unga yetti aravada xoda olib keldi. Garchand xodalarning yo'g'onligi oddiy hassacha kelsa-da, har bir aravaga sakkiztadan ot qo'shilgan edi.

Gulliver to'qqizta bir xil tayoqni tanlab olib, ularni chorsi holida joylashtirgancha yerga qoqdi. O'sha tayoqlarga xuddi nog'oraga teri qoplaganga o'xshatib, dastro'molini tarang qilib tortdi. Tep-tekis, silliq maydoncha paydo bo'ldi. Gulliver uning atrofiga panjaralar o'rnatib, imperatorga bu maydonchada harbiy musobaqalar o'tkazishni taklif qildi. Uning bu rejasi imperatorga juda ma'qul bo'ldi.

U eng yaxshi suvorilardan yigirma to'rttasi to'la-to'kis shaylangancha ko'hna qasrga borishini buyurdi, ularning musobaqalarini ko'rish uchun o'zi ham jo'nadi. Gulliver suvorilarning hammasini otlari bilan navbatmanavbat ko'tarib maydonchaga chiqarib qo'ydi.

Karnaylar chalindi. Chavandozlar ikki to'pga bo'linib, harbiy harakatlarni boshladilar.

Ular bir-biriga to'mtoq o'qlar yog'dirar, raqiblariga to'mtoq nayzalar sanchar, chekinar va hujum qilar edilar. Imperatorga bu harbiy ermaklar shu qadar ma'qul keldiki, bu mashqlarni har kuni o'tkazadigan bo'ldi. Bir gal Gulliverning

dastro'molida bo'ladigan hujumga hatto o'zi boshchilik qildi.

Bu paytda Gulliver malika o'tirgan kresloni kaftida ko'tarib turib dastro'mol sathida nimalar bo'layotganligi malikaga bu yerdan ko'rinib turardi.

Hammasi binoyidek o'tib turgan edi. Bir marta, o'n beshi manevrlar vaqtida bir zobitning asov oti dastro'molni tuyog'i teshib qo'ydi-da, munkib ketib, suvorisini ag'darib yubordi. Gulliver ro'moldagi teshikni chap qo'li bilan to'sdi-da, o'ng bilan hamma suvorilarni avaylagancha birma-bir yerga tushirib qo'ydi. Shundan keyin u dastro'molini puxtagina to'rlab yamadi-yu, ammo chidamliligiga ko'zi yetmay, unda harbiy mashqlar o'tkazmaydigan bo'ldi.


## XII

Imperator Gulliverning oldida qarzdor bo'lib qolmadi. U ham navbatida qiziq tomosha bilan Kuinbus flestrinning ko'nglini xushlamoqchi bo'ldi.

Bir kuni kechqurun odatdagicha qasrining bo'sag'asida o'tirardi. Daf'atan Mildendoning darvozasi lang ochilib, u yerdan yasv tortganlar chiqib qoldi: oldinda – ot mingan imperator, uning orqasidan – vazirlar, a'yonlar va gvardiyachilar kelardilar.

Ular hammalari qasrga olib keladigan yo'l bo'ylab yo'naldilar.

Liliputiya shunday bir odat bor. Qachonki qaysi bir vazir o'lsami yo iste'foga chiqsami, besh



yoki olti liliput imperatorga dorda o'yin tushib, uning ko'nglini xushlashlari uchun ruxsat berishini so'rab murojaat qiladilar.

Saroyning bosh zalida chok tikiladigan rasmana ipdan yo'g'on bo'lmagan arqonni iloji boricha tarang qilib tortadilar.

Shundan keyin o'yin tushish, o'mbaloq oshishlar boshlanadi.

Dor ustida hammadan ko'ra balandroq sakragan va hech yiqilmagan odam bo'sh turgan vazirlik lavozimini egallaydi.

Ba'zan imperator mamlakatni idora qilayotgan kimsalar chaqqonligini tekshirish uchun barcha vazirlari-yu a'yonlarini yangi odamlar bilan birgalikda dorda o'yin tushishga majbur qilardi.

Aytishlaricha, bu o'yin-kulgilar vaqtida o'qtin-o'qtin baxtsiz hodisalar ham bo'lib turarkan.

Vazirlar-u yangi odamlar dordan qulab tushib quloqlari ostlarida qolarkan.

Ammo imperator bu gal dor o'yinlarini saroyda emas, ochiq havoda Gulliverning qasri oldida o'tkazishga qaror qildi. U Tog' odamni vazirlarining mahorati bilan hayratlantirmoqchi edi. Eng yaxshi sakrovchi davlat xazinachisi Flimnan ekan. U boshqa hamma a'yonlardan ko'ra kamida bir qarich baland sakradi.

Hatto o'mbaloq oshish va irg'ishlash mahorati bilan Liliputiya bo'ylab nom chiqargan davlat kotibi Reldressel ham undan oshib tusholmadi. Keyin imperatorga uzun kaltak berdilar. U kaltakni bir uchidan ushlagancha ko'tarib tushira boshladi. Vazirlar dorda o'yin tushishdan qiyinroq bo'lgan musobaqaga tayyorlana boshladilar. Kaltak tushishi bilan undan sakrab o'tishga, ko'tarilishi bilan esa tagidan emaklab o'tishga ulgurish kerak edi.

Eng yaxshi sakrovchi va suqiluvchi ustomonlar imperatordan belgi bog'lab yuriladigan ko'k, qizil yoki yashil ip mukofot oldilar.

Birinchi ustomon – Flimnan ko'k ip, ikkinchi ustomon – Reldresse qizil ip, uchinchi ustomon – Skayresh Bolgolam yashil ip mukofotini oldilar.

Gulliver bularning hammasiga razm solib o'tirarkan, liliputlar imperiyasining g'alati saroy urf-odatlariga taajjublanardi.

### XIII

Saroy o'yin-kulgilari va bayramlari deyarli har kuni o'tkazilar, ammo zanjirband holda o'tiraverish Gulliverning bari bir diqqatini oshirardi. U ozodlikka chiqarishlarini va mamlakat bo'ylab erkin aylanib yurishiga ruxsat etishlarini



so'rab, imperatorga o'qtin-o'qtin arznoma berib turardi.

Nihoyat, imperator uning iltimoslarini inobatga oladigan bo'ldi.

Gulliverning ashaddiy dushmani admiral Skayresh Bolgolamning Kuinbus flestrinni ozod qilish emas, qatl etish kerak, degan talablar behuda ketdi.

Liliputiya urushga tayyorlanayotganligi uchun hech kim Bolgolamning fikriga qo'shilmadi. Hammalari mabodo shaharga dushman hujum qilib qolgudek bo'lsa, Tog' odam Mildendoni himoya qilishiga ishonardilar.

Maxfiy kengashda Gulliverning barcha arznomalarini o'qib chiqqach, o'ziga ma'lum qilinadigan barcha qoidalarga rioya etishga qasam ichsa, uni ozodlikka chiqaradigan bo'ldilar.

Bu qoidalar uzun pergament o'ramiga eng yirik harflar bilan yozilgan edi.

Yuqorisida imperator gerbi aks etgan, pastida esa Liliputiyaning kattakon davlat muhri bosilgan edi.

Gerb bilan muhr oralig'ida quyidagilar yozilgan edi:

*«Biz kim, Golbasto Momaren Evlem Gerdaylo Shefin Mollu Olli Goy buyuk Liliputiyaning qudratli imperatori, koinotning vahm-u quvonchi, jahondagi barcha podsholarning eng donosi, eng zo'ri, eng novchasi, oyoqlari yerning ko'ksiga tiralgan, boshi esa quyoshga borib yetgan, nigohi yer yuzidagi jamiki podsholarni titratadigan, bahor kabi ko'rkam, yoz kabi huzurbaxsh, kuz kabi*

sersaxovat, qish kabi shiddatkor zot o'laroq, oliy maqomimizdan amr etamizkim, Tog' odam kishanbandlikdan ozod etilsin, shu shart bilanki, biz uning oldiga qo'ygan talablarning barchasini ado etishga qasamyod qilsa, ya'ni: birinchidan, Tog' odam bizning shaxsan imzo chekkan va katta muhrimiz bosilgan ruxsatnomamizni olmaguncha Liliputiya dan tashqariga chiqishga haqi yo'q; ikkinchidan, u shaharga kirmoqchi bolsa, bu haqda shahar ma'murlarini ogohlantirmasdan kirishi mumkin emas, ogohlantirganidan so'ng esa barcha aholi to uylariga yashirinib olmaguncha shahar darvozasida ikki soat kutib turishi kerak; uchinchidan, unga faqat katta yo'llardagina aylanib yurishga ruxsat beriladi, o'rmonlar, o'tloqlar va dalalarni toptab yurish taqiqlanadi; to'rtinchidan, sayr vaqtlarida iltifotli tabaqalarimizdan birontasini, shuningdek, ularning otlari bilan kareta-yu aravalarini, sigirlari, qo'ylari va itlarini bosib ketmasligi uchun oyoqlari ostiga diqqat bilan qarab yurishga majbur; beshinchidan, buyuk Liliputiya da istiqomat qiluvchilarning roziligi va ruxsatisiz ularni qo'lga olishi, cho'ntagiga solishi qat'iyan taqiqlanadi; oltinchidan, mabodo biz imperator a'lo hazratlari oshig'ich suratda biron yoqqa xat-xabar yoki buyruq jo'natadigan bo'lib qolsak, Tog' odam bizning choparimizni oti-yu paketi bilan tayinlangan joyga yetkazib borish va yana sog'-salomat qaytarib kelish majburiyatini zimmasiga oladi; yettinchidan, bizga dushman Blefusku oroli bilan o'rtamizda urush boshlanib qolgan taqdirda bizga ittifoqchi bo'lishga va bor kuch-g'ayratini



*bizning sohillarimizga tahdid solayotgan dushman flotini yakson etish uchun sarf qilishga va'da beradi; sakkizinchidan, Tog' odam bo'sh vaqtlarida bizning fuqarolarimizga barcha binokorlik ishlari va boshqa ishlarda yordam ko'rsatishga majbur; markaziy bog' devorini tiklashda eng katta toshlarni tashib berishi, chuqur quduqlar va xandaqlar qazishi, o'rmonlar qo'porishi va yo'llar ochishi kerak. to'qqizinchidan, biz Tog' odamga butun imperiyamizni bo'yiga, endi odimlab, necha qadamligini hisoblab chiqishni, hisoblab chiqqach buni bizga yoki davlat kotibimizga ma'lum qilishni topshiramiz.*

*Topshirig'imiz ikki oy mobaynida ado etilishi kerak.*

*Agar Tog' odam biz undan talab qilgan narsalarning barchasini ehtiyom bilan og'ishmay bajarsa, biz uni ozodlikka chiqarishga, uni davlat xazinasi hisobidan kiyintirib, boqishga, shuningdek, bayram tantana ayyomlarida mo'tabar siymomizni ko'ra olish sharafiga muyassar etishga va'da beramiz.*

*Mildendo shahri, Belfaborak saroyida shonli saltanatimiz boshlanishining to'qson birinchi oyi o'n ikkinchi kunida amr etildi.*

*Golbasto Momaren Evlem Gerdaylo Shefin  
Molli Olli Goy,  
Liliputiya imperatori.*

*Bu farmonni Gulliverning qasriga admiral Skayresh Bolgolamnin o'zi olib keldi. U Gulliverga yerga o'tirib, chap qo'li bilan o'ng oyog'ini tutib,*

o'n qo'lining ikki barmog'ini esa peshonasi bilan o'ng qulog'ining tepasiga olib borishni buyurdi.

Liliputiya imperatorga sadoqat bildirish uchun shunday qilindi. Admiral to'qqizta talabning hammasini Gulliverga ovozini baland qo'ygancha bir boshdan hijjalab o'qib berdi, keyin esa shu qasamni so'zma-so'z takrorlatdi:

*«Men, Tog' odam Liliputiyaning qudratli hukmdori, imperator hazrati oliylari Golbasto Momaren Evlem Gerdaylo Shefin Molli Olli Goyga qasamyod etamanki, liliput hazratlarining jamiki xohishlarini ehtimom bilan og'ishmay ado etaman, uning shonli mamlakatini dushmanlardan quruqlig-u dengizda jondan kechib himoya qilaman».*

Shundan so'ng temirchilar Gulliverni zanjirlardan bo'shatdilar. Skayresh Bolgolam uni tabrikladi-da, Mildendoga jo'nab ketdi.

#### XIV

Gulliver ozodlikka chiqishi bilan imperatordan shaharni ko'rishga va saroyga kirib chiqishga ruxsat so'radi. U ko'p oylar mobaynida ostonasida zanjirband ko'yi o'tirgancha shaharni uzoqdan tomosha qilgan edi. Holbuki, shahar bilan ko'hna qasrning orasi atigi ellik qadamgina edi.

Ruxsat ham tegdi.

Gulliver kirib borgunicha o'n ikkita jarchi shaharni aylanib chiqdi. Oltitasi karnay chaldi, oltitasi jar soldi:

– Mildendoning aholisi! Uylaringga tarqaling!



– Kuinbus flestrin – Tog' odam shaharga kirib kelayotibdi!

– Uylaringga tarqal, Mildendonning aholisi!

Hamma muyulishlarga jarchilar qichqirib aytayotgan so'zlar yozilgan xitobnomalar yopishtirildi.

Eshitmaganlar o'qidi. O'qimaganlar eshitdi.

Gulliver uzun kamzulini yechib qo'ydi, chunki etaklari bilan uylarning mo'rilari-yu bo'g'otlariga shikast yetkazishi, shaharlik ermaktalablardan bitta-yarimtasini bexosdan yerga tushirib yuborishi mumkinligidan xavotir oldi. Bunday bo'lishi hech gap emas, negaki bunday g'aroyib tomoshani ko'rish uchun yuzlab, hattoki minglab liliputlar tomlarga chiqib olgan edilar.

Gulliver birgina charm nimchada shahar darvozasiga yaqinlashdi.

Poytaxt Mildendoning gir aylanasini ko'fna devorlar o'rab olgan edi. Devorlar shu qadar qalin va serbar ediki, tepasida qo'sh ot qo'shilgan liliput karetsi bermalol yurishi mumkin edi.

Burchaklarida nayzador minoralar qad ko'tarib turardi.

Gulliver kattakon G'arbiy darvozadan hatlab o'tdi-da, qiyalagancha ehtiyot bilan shaharning bosh ko'chalaridan yurib ketdi. Kalta-yu tor ko'chalarga kirib ham o'tirmadi; ular shu qadar ensiz ediki, Gulliver uylarning orasida siqilib qolishdan xavotir oldi. Mildendodagi uylarning deyarli hammasi uch qavatli edi. Ko'chalar bo'ylab o'tarkan, Gulliver o'qtin-o'qtin engashib yuqori qavatlardagi derazalarga mo'ralab qo'yardi. Bir derazada u oq qalpoq kiygan oshpazni ko'rdi. Oshpaz chaqqonlik bilan qo'ng'iznimi yo pashshanimi yulqilamoqda edi.

Gulliver tikilib qarasa, u kurkaning patini yulayotgan ekan.

Bir derazaning tagida ishini tizzasiga yoyganча tikuvchi xotin o'tirardi. Xotinning qo'l

harakatlaridan Gulliver uning ninaga ip o'tkazayotganini payqadi. Ammo nina bilan ipni ko'zi bilan ilg'ayolmadi, ular shu qadar kichik va ingichka edi.

Maktabda bolalar yozuv mashq qilib o'tirardilar. Yozganda ham bizga o'xshab chapdan o'ngga qarata emas, arablarga o'xshab o'ngdan chapga qarata emas, xitoylarga o'xshab yuqoridan pastga qarata emas, liliputchasiga: burchakdan burchakka qarata qiyalatib yozardilar.

Yana uch qadamcha bosgan ediki, Gulliver imperator saroyining oldiga kelib qoldi. Qo'sh qavat devor bilan o'rab olingan saroy Mildendoning qoq o'rtasida joylashgan edi.

Gulliver birinchi devordan hatlab o'tdi-yu, ikkinchisidan o'tolmadi. Bu devor naqshindor, yuksak qubbalar bilan bezatilgan ediki, Gulliver ularga shikast yetkazib qo'yishdan qo'rqardi. U ikki devor oralig'ida to'xtab qoldi-da, nima chora ko'rishni mumkinligini o'ylay boshladi. Saroyda uni shaxsan imperatorning o'zi kutib o'tirgan bo'lsa-da, aksiga olib Gulliver u yerga chiqib borolmasa.

Nima qilsa ekan?

Gulliver qasriga qaytib bordi-da, u yerdan ikkita kursichasini olib, yana saroyga qaytdi. Saroyning tashqari devoriga yetib kelgach, bitta kursichasini ko'chaga qo'ydi-da, unga ikki oyog'i bilan chiqdi.

Ikkinchi kursichani tomlardan oshirib, ehtiyot bilan ichki devorning orqasiga, saroy bog'ining sahniga qo'ydi. Shundan keyin kursichadan kursichaga oyoq qo'yib, bironta ham qubbaga shikast yetkazmay ikkala devordan osongina hatlab o'tdi.

Kursichalarni naridan-nariga ko'chira-ko'chira, Gulliver nihoyat hazrati oliylarining xos xonalarigacha yetib bordi.

Bu vaqt imperator vazirlari bilan maxfiy kengash o'tkazmoqda edi. Gulliverni ko'rishi bilan derazalarni lang ochib qo'yishni buyurdi.

Gulliver kengash zaliga kirolmasdi. U hovliga uzala tushdi-da, derazaga qulog'ini tutdi.

Vazirlar dushman Blefusku imperiyasi bilan qachon urush boshlash qulay bo'lishi mumkinligi haqida mulohaza yuritmoqda edilar.

Admiral Skayresh Bolgolam kreslosidan tura kelib, dushman flot bo'sag'ada turganini, Liliputiya hujum qilish uchun shamolning qulay esishini kutayotganini ma'lum qildi. Shunda Gulliver sabri chidamay, Bolgolamning so'zini bo'ldi. Imperator va vazirlardan shu qadar buyuk va shonli ikki davlat aslida nima sababdan urushmoqchi bo'layotganini so'radi.

Imperatorning ijozati bilan davlat kotibi Reldressel Gulliverning savoliga javob qaytardi. Gap bunday ekan.

Bundan yuz yil muqaddam, hozirgi imperatorning o'sha vaqtda valiahd shahzoda bo'lgan bobosi nonushta payti tuxumni poynak tomonidan chaqqanida po'chog'i barmog'ini tilib ketibdi.

Shunda yaralangan shahzodaning otasi, hozirgi imperatorning katta bobosi farmon chiqarib, Liliputiya aholisiga pishgan tuxumni poynak tomonidan chaqishni taqiqlab, aks holda o'lim jazosiga tortilishil aytibdi.

O'shandan buyon Liliputiyaning butun aholisi ikki lagerga poynakparastlar-u nishparastlarga

bo'linib ketibdi. Dengizning naryog'iga, qo'shni Blefusku imperiyasiga qochib ketishibdi. Liliputiya imperatori Blefusku imperatoridan qochqin poynakparastlarni qatl etishni talab qilibdi.

Biroq Blefusku imperatori qatl etish uyoqda tursin, hatto ularni xizmatga olibdi.

O'shandan buyon Liliputiya bilan Blefusku o'rtasida tinimsiz urush davom etib kelarkan.

- Xullas, bizning qudratli imperatorimiz Golbasto Momaren Evlem Gerdaylo Shefin Molli Olli Goy siz, Tog' odamning madad berishingiz va ittifoqchi bo'lishingizni so'raydi, - deb nutqini tugatdi kotib Reldressel.

Gulliver nima uchun endi tuxum po'choq sababli urush olib borish kerakligini tushunolmasdi-yu, shu tobdagina qasamyod qilgani uchun uni ado etishga majbur edi.

## XV

Blefusku - bu Liliputiya anchagina keng ko'rfaz ajratib turgan orol edi.

Gulliver Blefusku orolini hali ko'rmagan edi.

Harbiy kengashdan keyin u qirg'oqqa borib do'nglik orqasiga yashirindi-da, xufiya cho'ntagidan durbinini olib, dushman flotini ko'zdan kechira boshladi.

Blefuskuliklarning ellikta harbiy kemasi borligi ma'lum bo'ldi, qolganlari yuk tashiydigan kemalar ekan. Gulliver emaklagancha do'nglikdan uzoqlashdi-da, o'rnidan turib saroyga, imperator huzuriga jo'nadi.

U yerda aslaha xonada turgan qalamtaroshini qaytarib berishlarini, mumkin qadar ko'proq eng puxta arqon va eng yo'g'on temir tayoqlar yetkazib berishlarini so'radi.

Bir soatdan keyin aravakashlar yo'g'onligi o'zimizning chizimchadek keladigan arqon bilan to'r to'qiydigan simlarga o'xshagan temir tayoqchalar olib keldilar. Gulliver kechasi bilan qasrining oldida o'tirgan ko'yi chizimchalardan arqon eshdi, temir tayoqchalardan ilgaklar yasadi. Ertalabgacha ellikta ilgak ulangan ellikta arqon tayyor bo'ldi.

Arqonlarni kiftiga tashlagancha Gulliver qirg'oqqa jo'nadi. U kamzuli, poyabzali paypoqlarini yechib, suvga tushdi. Avvaliga u suv kechib bordi. Ko'rfazning o'rtasiga borganda suzdi, keyin yana suv kechib keta boshladi.

Yarim soatcha yurar yurmas u Blefusku flotiga yetib bordi.

- Suzuvchi orol! Suzuvchi orol! - deb qichqirishdi: suvda Guliverning bahaybat kiftlari va boshini ko'rgan matroslar. Guliver ularga qo'llarini cho'zdi, qo'rquvdan esi og'ayozgan matroslar o'zlarini tappa-tappa dengizga ota boshladilar. Ular suvga xuddi qurbaqadek shaloplab tushib, sohillari tomon suzib ketdilar.

Gulliver kiftidagi arqonlarni olib, barcha jangovar kemalarning tumshuqlarini ilgaklarga ilintirdi-da, arqonlarning uchlarini bitta qildi. Blefuskuliklar shundagina Gulliver ularning flotini olib ketmoqchi ekanligini payqadilar. O'ttiz ming askar baravariga yoylarini tortib, Gulliverga qarata bir yo'la o'ttiz ming o'q uzdi.



Ikki yuzdan ortiqrogʻi yuziga kelib qadaldi. Agar xufiya choʻntagida koʻzoynagi boʻlmasa bormi, Gulliverning holi tang edi. Koʻzoynagini darrov olib taqdi-da, koʻzlarini oʻqlardan saqlab qoldi.

Oʻqlar koʻzligining oynalariga taqillab kelib tegardi. Oʻqlar uning yonoqlari, peshonasi, engagiga kelib sanchilardi, bunga eʼtibor qilgudek chogʻi yoʻq edi.

Nihoyat, Gulliver gap nimadaligini payqab qoldi. Choʻntagidan qalamtaroshini oldi-da, manzil tashlagan kemalarni ushlab turgan langarlarning arqonlarini birma-bir qirqdi.

Oxirgi arqonni qirqqach, kemalar suv yuzida chayqalib ketdi-da, hammasi yoppasiga Gulliverning orqasidan Liliputiya sohillari tomon yoʻnaldi.

Gulliver tobora uzoqlashib borar, uning orqasidan blefuskuliklarning kemalari va blefuskuliklarning shon-shuhrati ham yiroqlashib borar edi.

## XVI

Liliputiya imperatori va uning butun saroy ahli sohilda Guliver suzib ketgan tomonga tikilib turardi. Ular birdan uzoqda keng yarim doira hosil qilib Liliputiya tomon! kelayotgan kemalarni koʻrib qoldilar. Gulliverning oʻzini ilgʻay olishmadi, chunki u quloqlarigacha suvga botgan koʻyi kelmoqda edi.

Liliputiyaliklar dushman kemalarining kelishini kutmagan edi. Dushman kemalari langarlarini koʻtardi deguncha Togʻ odam ularni yakson qilib

tashlaydi, degan ishonchlari qat'iy edi. Vaholanki, flot bu butun jangovar holatda saf tortganча Mildendo bo'sag'alari tomon kelmoqda edi.

Imperator karnay chaldirib, barcha qo'shinlarni yig'ishni buyurdi. Gulliver uzoqdan karnay sadolarini eshitdi. Shundan keyin u qo'li bilan ushlab turgan arqonlarning uchlarini baland ko'tarib, baland ovozda bill deb qichqirdi:

– Yashasin Liliputiyaning qudratvor imperatori!

Sohildagilar jimjit bo'lib qoldilar. Go'yo hamma liliputlar hayrat va quvonchdan tildan qolgandek edilar. Gulliver suvning shildirashi-yu blefusku-liklar kemalarining yelkanlari kelib urilayotgan shamolning yengil g'uvillashinigina eshitar edi. To'satdan Mildendo qirg'oqlari bo'ylab bir yo'la minglab shlyapa qalpoqlar va kallapo'shlar havoga otildi.

– Yashasin Kuinbus flestrin! Yashasin bizning shonli xaloskorimiz, – deb qichqirardi liliputlar.

Gulliver qirg'oqqa chiqishi bilan imperator uni uch xil ipning hamma – ko'k, qizil va yashil iplar bilan mukofotlashni buyurdi, unga butun imperiyada eng yuksak bo'lgan «nardaka» unvonini in'om qildi.

Bu quloq eshitmagan mukofot edi. A'yonlar uni tabriklashga oshiqdilar. Faqat bittagina yashil ipi bo'lgan admiral Skayresh Bolgolam Gulliverga bir og'iz ham so'z aytmay, chetga chiqib ketdi. Gulliver imperatorga ta'zim qilib, rangli iplarning hammasini o'rta barmog'iga o'rab qo'ydi: ularni liliput vazirlarga o'xshab beliga bog'lab ololmasdi.

O'sha kuni Gulliverning sharafiga saroyda hashamatli bayram o'tkazildi. Zallarda hamma

o'yinga tushdi, Gulliver esa saroy hovlisida uzangancha derazadan tomosha qilib yotdi.

## XVII

Bayramdan keyin imperator Gulliverning oldiga chiqib keldi, unga o'zining yana bir oliy marhamatini izhor etdi. U liliputlar imperiyasining nardasi Tog' odamga yana o'sha yo'l bilan Blefusku unvoni berildi. Dushman qo'lida qolmish odam tashiydigan, savdoga xizmat qiladigan, baliq ovlaydigan kemalarning barchasini olib kelishni topshirdi.

– Blefusku davlati, – dedi u, – shu vaqtgacha baliq ovlash-u savdo-sotiq bilan tirikchilik qilib kelgan edi. Agar uning floti tortib olinsa, u Liliputiya abadiy itoat qilishga, imperatorga poynakparastlarning barchasini topshirishga va «Tuxumni nishidan chaq» degan muqaddas qonunni tan olishga majbur bo'ladi. Gulliver imperatorga ehtiyot bilan javob berib, u imperator hazrati oliylariga hamisha bajonidil xizmat qilishga tayyor ekanligini, ammo bu marhamatli topshiriqdan voz kechishga majbur ekanligini aytdi. Erksizlikning kishanlari nechog'lik og'ir ekanligini o'zi yaqindagina totib ko'rganini, shuning uchun ham butun bir xalqni qullikka mahkum qilishga jur'at etolmasligini bildirdi.

Imperator churq etmay, saroyga kirib ketdi. Gulliver shu daqiqadan boshlab uning marhamatidan abadiy mahrum bo'lganini payqadi: jahonni fath etishni orzu qilgan podsho uning yo'lga ko'ndalang tushishga jur'at

qilganlarni aslo kechirmaydi. Chindan ham ana shu suhbatdan keyin Gulliverni saroyga kamroq taklif qiladigan bo'ldilar. U qasrning atrofida yakka-yolg'iz aylanib yurar: saroydan chiqqan karetalar ham endi uning bo'sag'asi oldida to'xtamay o'tib ketar edi. Faqat bir kuni dabdabali yasov tortgancha poytaxt darvozasidan chiqqan odamlar Gulliverning boshpanasiga qarab kela boshladilar. Bu – Liliputiya imperatori bilan sulh tuzgani kelgan Blefusku elchilar guruhi edi.

Olti vakil-u besh yuz mulozimdan iborat bu elchilar guruhining Mildendoga kelganiga bir necha kun bo'lgan edi. Ular liliputlarning vazirlari bilan Blefusku imperatori Gulliver olib kelgan flotning aqalli yarmini qaytib olishi uchun qancha oltin, chorva-yu g'alla to'lashi haqida bahslashmoqda edilar. Ikkala davlat o'rtasida Liliputiya uchun juda foyda keltiradigan, Blefusku uchun esa juda zarar keltiradigan shartlar asosida sulh tuzilgan edi. Shunisi ham borki, agar Gulliver blefuskuliklarning jonlariga ora kirmaganda, ularning ahvoli bundan ham battar bo'lardi.

Bu homiyliги tufayli u imperatorning va butun liliputlar saroyining itifotidan uzil-kesil mahrum bo'ldi. Kimdir vakillardan biriga imperatorning Tog' odamdan nima uchun g'azablanganini aytadi, shundan so'ng elchilar Gulliverning qasriga borib, undan xabar olishga va uni o'z orollariga taklif etishga qaror qiladilar. Ular blefuskulik dengizchilar va liliputlar vazirlarining Kuinbustrinning shu qadar ta'rifni eshitgan edilarki, endi uni yaqindan borishga qiziqardilar.

Begona yurtidan kelgan mehmonlarni Gulliver iltifot bilan kutib oldi, uning yurtiga borishga va'da berdi, xayrlashish oldidan barcha elchilar bilan birga kaftida ko'tarib, ularga Mildendo shahrini bo'yi baravarlikdan ko'rsatdi.

## XVIII

Kechqurun Gulliver yotishga tayyorlanayotganida qasrining eshigini kimdir ohista taqillatdi. Gulliver ostona hatlab tashqariga chiqsa, eshik oldida yelkasida taxtiravon ko'targan ikki odam turgan ekan. Taxtiravondagi baxmal kresloda bir jajji odam o'tirardi. Uning yuzi ko'rinmas, chunki u ridoga o'ranib, shlyapasini peshonasiga bostirib olgan edi. Gulliverni ko'rishi bilan jajji odam xizmatkorlariga yarim kechada olib ketishni buyurib, ularni shaharga jo'natib yubordi. Xizmatkorlar yiroqlashishi bilan tungi mehmon Gulliverga juda muhim sirni ochmoqchi ekanligini aytdi.

Gulliver taxtiravonni yerdan oldi-da, uni mehmoni bilan birga cho'ntagiga yashirib, qasriga qaytib kirdi.

Kirgach, eshikni zichlab yopdi-da, taxtiravonni stolga qo'ydi. Shundan keyin mehmon ridosini tushirib, shlyapasini boshidan olishi bilanoq Gulliver uni darrov tanidi. Bu - yaqinda u falokatdan saqlab qolgan saroy a'yonlaridan biri edi.

Gulliver hali saroyga kirib yurgan kezlarida bu a'yonni xufiya poynakparastlardan, deb hisoblashlarini tasodifan bilib qolgan edi. Gulliver

uni himoya qilib, dushmanlari unga tuhmat qilganliklarini imperatorga isbotlab bergan edi.

Endi bu a'yon Gulliverning huzuriga, o'z navbatida Kuinbus flestringa xizmat ko'rsatish uchun kelgan edi.

- Hozirgina, - dedi u, - maxfiy kengashda sizning taqdiringiz hal qilindi. Admiral imperatorga siz dushman mamlakati elchilarini uyingizga kirib, ularni kaftingizda ko'targancha poytaxtimizni ko'rsatganingizni aytishdi va hamma vazirlar sizni qatl qilishni talab etishdi. Birovlari uyingizni minglik qo'shin bilan qurshab, unga o't qo'yib yuborishni, birovlari kiyimlaringizga og'u singdirib, sizni zaharlashni, yana birovlari bo'lsa sizni ochdan sirib o'ldirishni taklif qildilar. Faqat davlat kotibi Reldresselgina sizni tirik qoldirishni, ammo ikkala ko'zingizni o'yib olishni maslahat berdi. U sizni, ko'zidan ajralgani bilan kuchini yo'qotmaydi, hatto bu jasurligini oshiradi, chunki xavf-xatarni ko'zi bilan ko'rmagan odam dunyoda hech narsadan qo'rqmaydi, dedi. Xullas, marhamatli imperatorimiz Reldresselning fikriga qo'shildi, sizni ertagayoq uchi o'tkirlangan o'qlar bilan ko'r qilishni buyurdi. Imkoningiz bo'lsa qochib qoling, men esa huzuringizga qanday xufiya ravishda kelgan bo'lsam, shu tariqa darhol jo'nab ketishim kerak.

Gulliver mehmonini ohista tashqariga olib chiqib qo'ydi. Mehmonni u yerda xizmatkorlari kutib turgan ekan. O'zi esa vaqt g'animatida qochishga tayyorgarlik ko'ra boshladi.

## XIX

Ko'rpasini qo'ltiqlagancha Gulliver qirg'oqqa yo'naldi. Ohista yurgancha liliputlar floti langar tashlab turgan bandargohga bordi. Bandargohda hech zot ko'rinmasdi. Gulliver kemalardan eng kattasini tanlab olib, tumshug'iga arqon bog'ladi-da, unga kiyimlarini, ko'rpasini va poyabzalini ortgach, langarni ko'tardi-yu kemani dengiz tomon sudrab ketdi. Suvni shapillatmaslikka harakat qilgancha ehtiyot bilan ko'rfazning o'rtasiga yetib oldi-da, u yog'ga suzib ketdi. U o'zi yaqinda harbiy kemalarni olib kelgan tomonga qarab suzib borardi.

Mana, nihoyat Blefusku sohili!

Gulliver kemasini qo'ltiqqa olib kirib qo'ydi-da, ehtiyot bilan qirg'oqqa chiqdi. Tevarak-atrof jim-jit, kichkina minoralar oydinda yiltirab turar edi. Butun shahar hali uyquda, Gulliver aholini uyg'otib o'tirgisi kelmadi. U shahar devori tagiga uzandi-da, ko'rpasiga burkanib uyquga ketdi. Ertalab Gulliver shahar darvozasini taqillatib, soqchilar boshlig'idan imperatorga uning mamlakatiga Tog' odam kelganini ma'lum qilishni so'radi.

Soqchilar buni davlat kotibiga, unisi esa imperatorga ma'lum qildi. Blefusku imperatori shu ondayoq butun saroy a'yonlari bilan Gulliverning istiqboliga chiqdi. Darvozaxonada barcha erkaklar otlaridan sakrab tushdilar, malika bilan kanizaklari esa karetdalaridan tushdilar.

Gulliver Blefuskuning saroy ahlini qutlash uchun yerga yastandi. U orolni tomosha qilishga

ijozat so'radi. Liliputiya dan qochib kelgani to'g'risida churq etib og'iz ochmadi. Imperator bilan vazirlar, Tog' odam bizga mehmon bo'lib kelgan, sababi uni elchilarimiz taklif qilishgan, deb o'yladilar.

Gulliverning sharafiga saroyda katta bayram o'tkazildi. Unga atab bir qancha so'qim buqa, bo'rdoqi qo'y so'yidilar. Qorong'i tushishi bilan uni yana ochiq havoda qoldirdilar, chunki Blefusku da unga mos keladigan bino topilmadi.

U yana shahar devori tagi guzala tushib, liliputch quroq ko'rpasini yopinib yotdi.

## XX

Uch kun davomida Gulliver butun Blefusku imperiyasini aylanib chiqdi; shaharlar, qishloqlar va qo'rg'onlarni tomosha qildi. Hamma joyda xuddi Liliputiya dagiga o'xshab orqasidan to'p-to'p xaloyiq chopib yurardi.

Pastak o'rmonlar, muloyim o'tloqlar va tor so'qmoqlar bo'ylab aylana-aylana Gulliver orolning qarshi tomondagi qirg'og'iga chiqib qoldi. O'sha yerda toshga o'tirdi-da, o'ylay boshladi: Blefusku imperatorining xizmatida qolsami yo Liliputiya imperatoridan afv etishini iltimos qilsami? Vataniga qaytib borishdan endi u umidini uzgan edi.

Daf'atan u dengizning uzoq bir joyida qoyagami, kattakon dengiz maxluqining sirtigami o'xshagan qandaydir qora sharpani ko'rib qoldi. Gulliver poyabzali va paypog'ini yechib, bu narsa nima ekanligini bilish uchun suv kechib keta



boshladi. Tez orada bu narsa qoya emasligini payqadi. Qoya to'liqlar bilan birga qirg'oq tomon jila kelishi mumkin emasdi. Bu maxluq ham emas. Anig'i – bu to'nkarilgan qayiq bolishi kerak.

Gulliverning yuragi urib ketdi. Cho'ntagida durbini borligi darrov esiga tushib, uni ko'ziga olib bordi. Ha, bu qayiq ekan! Chamasi, bo'ron uni qandaydir kemadan yulqib olib, shu tomonlarga surib kelgan, shekilli. Gulliver g'izillaganicha Blefuskuga kelib, imperatordan qayiqni qirg'oqqa olib kelishi uchun hozirning o'zidayoq yigirmata eng katta kemasidan berishini iltimos qildi.

Imperator Tog' odam dengizdan topgan odatdan tashqari qayiqni ko'rgisi kelib qoldi. Buning uchun u kemalar jo'natdi va ikki ming askariga qayiqni qirg'oqqa tortib chiqarish uchun Gulliverga yordam berishni buyurdi. Kichkina kemalar katta qayiqqa yaqin borib, uni ilgaklarga ilintirdilar-da, tortib keta boshladilar. Orqada suzib kelayotgan Gulliver esa qayiqni qo'llari bilan itarardi. Nihoyat, qayiq tumshug'i bilan qirg'oqqa borib taqaldi. Shundan keyin ikki ming askar baravariga unga tutashtirilgan arqonlarga yopishib, Gulliverga uni suvdan chiqarib olishda yordam berdilar.

Gulliver qayiqni hamma tomonidan qarab chiqdi. Uni tuzatish uncha qiyin emasdi.

Gulliver darhol ishga kirishdi. Eng avval u qayiqning tagi bilan yonlarini puxtalab mumladi, keyin eng katta daraxtlardan kesib, ularga eshkak va havoza yasadi. Ish vaqtida minglarcha blefuskuliklardan iborat xaloyiq atrofni qurshab

olib, Tog' odamning qayiqni qanday tuzatayotganini tomosha qilib turdi.

Hamma ish bitgach, Gulliver imperator huzuriga borib, uning qarshisida bir tizzasiga cho'kkaladi-da, agar hazrati oliylari izn bersa, tezroq yo'lga chiqishni istayotganini aytdi. Allaqachondan beri oilasi-yu do'stlarini sog'inganini, dengizda uni yurtiga olib borib qo'yadigan biron kemani uchratishdan umidvorligini bildirdi.

Imperator Gulliverni uning xizmatida qolishga ko'ndirmoqchi bo'lib ko'p urinsa-da, unga ko'pdan-ko'p mukofotlar, hamisha marhamat ko'rsatishni va'da qilsa-da, Gulliver so'zida turib oldi. Imperator rozilik berishga majbur bo'ldi. Albatta, endi u dushman qo'shini bilan flotini bir o'ziyoq yo'q qiladigan Tog' odamni xizmatida olib qolishni juda-juda istardi. Ammo, mabodo Gulliver Blefusku qolgudek bo'lsa, bu Liliputiya bilan urush chiqishiga olib borishi muqarrar edi.

Bundan bir necha kun burunoq Blefusku imperatori Liliputiya imperatoridan qochgan Kuinbus flestrinni qo'l-oyoqlarini bog'lagan holda Mildendoga qaytarib yuborishni talab qilgan uzundan-uzoq xatini olgan edi. Blefusku vazirlari bu xatga qanday javob berish kerakligi ustida uzoq o'yladilar.

Nihoyat, uch kun davomida o'ylab ko'rganlaridan so'ng ular javob yozdilar.

Ularning xatida, Blefusku imperatori do'sti va birodari Liliputiya imperatori Golbasto Momaren Evlem Gerdaylo Shefin Molli Olli Goyni qutlashi,

ammo Tog' odam hozirgina kattakon bir kemada noma'lum tomonga jo'nab ketganligi tufayli Kuinbus flestrinni qaytarolmasligi aytilgan edi. Blefusku imperatori sevikli birodarini u bilan o'zi ortiqcha tashvishlar-u mashaqqatli chiqimlardan qutulganliklari bilan tabriklardi.

Xatni jo'natishlari bilanoq blefuskuliklar naridan-beri Gulliverni kuzatish taraddudiga kirishdilar.

Ular uning qayig'ini moylash uchun besh yuzta buqa so'ydilar. Besh yuz odam Gulliverning nazorati ostida ikkita kattakon yelkan tayyorladilar. Yelkanlar pishiq bo'lishi uchun ular o'sha yerning eng qalin matosidan tanlab, o'n uch qavat qilib taxladilar-da, qavidilar. Moslamalar, langar va yondoshish bog'ichlarini Gulliverning o'zi eng yaxshi navli baquvvat arqonlardan o'ntalab, yigirmatalab, hatto o'ttiztalab eshib tayyorladi. Langar o'rniga kattakon tosh ishlatdi.

Jo'nab ketishi uchun hamma narsa shay bo'ldi.

Gulliver Blefusku imperatori va uning fuqarolari bilan xayrlashish uchun oxirgi marta shaharga qarab ketdi.

Imperator barcha a'yonlari bilan saroydan chiqib keldi. U Gulliverga oq yo'l tilab, unga bor bo'yi bilan tasvirlangan surati hamda ikki yuz chervon – blefuskuliklar «sprug» deb ataydigan pul solingan hamyon tuhfa qildi.

Hamyon juda nafis ishlangan, pullarni esa katta qilib ko'rsatadigan oyna orqaligina durustroq ilg'ash mumkin edi. Gulliver imperatorga samimiy minnatdorchilik bildirib, ikkala tuhfani ham dastro'molining uchiga tugdi-da,

Blefusku poytaxtining barcha aholisiga shlyapasini silkib, qirg'oqqa qarab ketdi.

U yerda u to'rt yuz oshpaz uch kun davomida pishirishga ulgurgan yuzlab qoqlangan, islangan ho'kiz va qo'y tanalarini, ikki qop qoqlangan non va shuncha qovurilgan go'shtni qayiqqa ortdi.

Bundan tashqari oltita tirik sigir bilan yana shuncha sovlig'-u qo'chqor ola chiqqan edi.

U yurtida shunday nozik junli qo'ylar urchitishni havas qilgan edi.

Yo'lda podasini boqib ketish uchun Gulliver qayiqqa bir quchoq pichan va bir qop don tashlagan edi.

1701-yil 24-sentyabr kuni ertalab soat oltida, Tog' odam laqabini olgan kema vrachi Lemoel Gulliver qayig'ining yelkanini ko'tarib, Blefusku orolini tark etdi.

## XXI

Sarin shamol yelkanga urilib, qayiqni ochiq dengizga olib chiqib ketdi.

Gulliver Blefusku orolining pastak sohillariga so'nggi bor nazar tashlash uchun o'girilib qararkan, suv bilan osmondan boshqa hech narsa ko'rmadi.

Orol yer yuzida nomi-nishoni bo'lmagandek g'oyib bo'lgan edi. Kechasi Gulliver serqoya kichik bir orolga yaqinlashdi. U yerda faqat shilliqqurtlar yasharkan.

Bu – Gulliver o'z yurtida ming martalab ko'rgan oddiy shilliqqurtlar edi. Liliputiya va Blefusku g'ozlari bu shilliqqurtlardan sal kichikroq edi.

Bu orolchada Gulliver ovqatlanib, tunab qoldi-da, ertalab cho'ntak kompasiga qarab, shimoli sharqni mo'ljalga olganча yana yo'lga tushdi.

U o'sha tomonda odamlar yashaydigan orol yoki kema uchratib qolishni umid qilardi. Kun ham o'tdiki, Gulliver kimsasiz dengizda hamon tanho o'zi edi. Shamol qayig'ining yelkanini goh ko'pchitar, goh mutlaqo tinib qolar edi. Yelkani lipillab, havozada eski lattadek osilib qolganda, Gulliver eshkaklarga yopishardi. Biroq kichkina, noqulay eshkaklarni eshish qiyin edi.

Gulliver tez orada holdan toydi. Endi u, yurtim bilan katta odamlarni hech qachon ko'rolmasam kerak, deb o'ylay boshladi.

Safarining uchinchi kuni kechki soat beshlarga yaqin birdan uzoqda uning yo'lini kesib o'tayotgan yelkanni ko'rib qoldi. Gulliver qichqira boshladi, lekin javob bo'lmadi – uning ovozini eshitmagan edilar.

Kema o'tib ketmoqda edi. Gulliver eshkaklarga zo'r berdi. Biroq qayiq bilan kema orasidagi masofa kamaymasdi. Kemaning yelkanlari katta, Gulliverning qayig'idagi yelkan esa quroq, eshkaklari yasama edi.

Bechora Gulliver kemaga yetib olishdan butunlay umidini uzdi. Ammo shu orada shamol tuyqusdan tinib qoldi-da, kema qayiqdan qochishini bas qildi.

Kemadan ko'zini uzmay, Gulliver kichkina, ojiz eshkaklarini eshgandan eshaverdi.

Qayiq oldinga qarab jilar, biroq Gulliver istaganiga qaraganda yuz karra sustroq ilgarilar

edi. Birdan kema havozasida bayroq ko'tarildi. To'p gumbirladi.

Qayiqni ko'rgan edilar.

26-sentyabr kuni kechki soat oltiga yaqin Gulliver xuddi o'ziga o'xshagan odamlar kelayotgan chinakam, kattakon kema sahniga qadam qo'ydi.

Bu Yaponiyadan qaytib kelayotgan ingliz savdo kemasi edi. Uning kapitani dentfordlik Jon Bidl iltifotli odam, ajoyib dengizchi edi. Gulliverni xushmuomalalik bilan kutib olib, unga qulay kayuta ajratib berdi.

Gulliver hordiq chiqarib bo'lgach, kapitan undan qayerda bo'lganini va qayoqqa ketayotganini aytib berishini iltimos qildi. Gulliver sarguzashtlarini unga qisqacha gapirib berdi. Kapitan unga qarabgina qo'ydi-da, g'amgin bosh chayqadi.

Gulliver uning gaplariga ishonmayotganini, uni aqldan ozgan odam deb o'ylayotganini payqadi. Shundan keyin Gulliver churq etmasdan, cho'ntagidan liliput sigirlarini, qo'ylarini birma-bir olib, ularni stolga qo'ya boshladi.

• Sigirlar bilan qo'ylar o'tloqqa yoyilgandek stol bo'ylab chuvab ketdi. Kapitan hayratdan anchagacha hushini yig'olmay turdi. Gulliver chippa-chin gapni aytganiga u endigina ishondi.

– Bu dunyoda eng ajoyib voqea ekan! – deb xitob qildi kapitan.


## XXII

Gulliver safarining qolgan qismi, birgina ko'ngilsizlikni hisobga olmaganda, binoyidek xotirjam o'tdi: kema kalamushlari Blefusku suruvidan olib kelgan qo'ylaridan birini tortqilab ketibdi. Kayutasining tirqishida Gulliver qo'yning rosa mujilgan suyaklarini ko'rib qoldi.

Boshqa hamma qo'y-u sigirlar sog'-omon qolgan edi. Ular uzundan-uzoq safarni g'oyat chidam bilan o'tkazdi. Yo'lda Gulliver ularni qoq nondan tuyib, suvga qirilgan talqon bilan boqdi. Pichan bilan don ularga bir haftagagina yetgan edi. Kema Angliya sohillari tomon barcha yelkanlari yelgancha borardi.

1702-yil 13-aprel kuni Gulliver kema pillapoyasidan jonajon yurti qirg'og'iga tushib keldi va tez orada xotini, qizi Betti va o'g'li Jonni bag'riga bosdi. Kema vrachi Gulliverning liliputlar mamlakati va Blefusku orolidagi ajoyib sarguzashtlari shu tariqa baxtli yo'sinda tugadi.







# BROBDINGNEGGA SAYOHAT





## I

Gulliver uyida uzoq qolmadi.

Dastlabki oyda o'zini yaxshi his qildi – qarindosh-urug'lari-yu qo'ni-qo'shnilari bilan gurunglashdi, ovqatlarni ishtaha bilan yedi, kechalari dong qotib uxladi. Ammo ikkinchi oyga o'tganda behuzur bo'la boshladi. Uyda yangi yopilgan non unga bemaza tuyilardi. «Dengizdagi qoq nonga nima yetsin!» deb o'ylardi u. Keng, yumshoq karavot unga birdan noqulay bo'lib qoldi – axir kema katida dengizning bir maromdagi chayqalishini tinglagancha shunday uxlarmidi, bamisoli beshikday tebranadi-ya!..

Harakatsiz uyda, harakatsiz yerda yashash joniga tegdi. Har kuni derazasidan yakkash «Qona ho'kiz» lavhali oshxonani ko'raverish joniga tegdi. O'tkinchilarni kuzatarkan, o'ylardi:

«Dunyo shu qadar katta bo'lsa-yu, bular qanday qilib umr bo'yi o'sha-o'sha ko'chalardan borib-kelaverar ekanlar? Kun sayin uzoq mamlakatlarga ko'p yelkanli kemalar safarga chiqsa-yu, bular qanday qilib uzzukun mahkamada o'tirarkanlar yoki peshtaxta tepasida turarkanlar? Yo'q, kimki

uyda o'tirgisi kelsa, bunga toqati yetsa, o'tiraversin. Bu menga to'g'ri kelmaydi! Men dengizchiman, dengizchiligimcha qolaman!»

Gulliver shunday deb o'ylar, oyoqlari esa uni beixtiyor port yoki doklarga, briglar, shxunalar va barkalar tebranib turgan manzillarga olib ketar, u yerlarda tanish dengizchilarini uchratar edi.

Ish shu bilan tugadiki, yurtiga qaytib kelganidan ikki oydan so'ng u yana, kapitan Jon Nikols qo'li ostidagi, uzoq safarga jo'naydigan «Advencher» kemasiga vrach qilib olingan edi.

1702-yil 20-iyun kuni «Advencher» ochiq dengizga chiqib ketdi. Shamol qulay edi.

Kema barcha yelkanlarini ko'targancha, shaxt bilan yelgancha Yaxshi umid buruniga yetib bordi. Bu yerda kapitan langar tashlab, toza suv g'amlashni buyurdi. Ikki kun turganlaridan so'ng «Advencher» yana yo'lga tushishi kerak edi.

Ammo kutilmaganda kemaga suv sizib kira boshladi. Yuklarni tushirib, tirqishni yamashga kirishishlariga to'g'ri keldi. Buning ustiga kapitan Nikols og'ir bezgak bilan og'rib qoldi.

Kema vrachi Gulliver bemor kapitanni e'tibor bilan ko'zdan kechirib, mutlaqo tuzalib ketmaguncha u safarini davom ettira olishi mumkin emas, degan qarorga keldi.

Shu tariqa «Advencher» Yaxshi umid burunida qishlab qoldi. 1703-yilning martidagina kemada yelkanlar o'rnatilib, u eson-omon Madagaskar ko'rfaziga yetib oldi.

19-aprel kuni kema Madagaskar oroliga yaqinlashib qolganida yengil esayotgan g'arbiy shamoldan so'ng ayovsiz dovul boshlandi.

Kema yigirma kuncha sharq tomonga qarab uloqib ketdi. Azob-uqubat chekkan butun komanda bu dovul tina qolsa edi, deb duo qilardi.

Nihoyat jimjitlik cho'kdi. Dengiz kun bo'yi osoyishta be endi odamlar ham shoyad dam olishga muyassar bo'lsak, deb umid boshladilar. Ammo bu yerlardan bir qancha martalab o'tgan, kc ko'rgan dengizchi kapitan Nikols tinchib turgan dengizga ishonqira qaradi-da, zambaraklarni mahkamroq bog'lashni buyurdi.

- Bo'ron turadi! - dedi u.

Haqiqatan ham ertasigayoq kuchli, shiddatli shamol turdi. U daqiqa sayin zo'rayib borardi, nihoyat shunaqangi bo'ron boshlanib keti bunaqasini Gulliver ham, matroslar ham, kapitan Jon Nikolsning o'zi ham ko'rmagan edi.

Bo'ron ancha kungacha quturdi. «Advencher» ancha kungacha to'lqin va shamollar bilan kurashdi.

Epchillik bilan ish ko'rayotgan kapitan goh yelkanlarni ko'tarish, goh tushirishni, goh yelga qarab yurishni, goh oqim hukmiga tushishni buyurardi.

Nihoyat oqibatda «Advencher» bu kurashda g'olib chiqdi. Kema yaxshi holatda, oziq-ovqat yetarli, komanda sog'-salomat, chidamli va epchil edi.

Faqat bir narsagina chatoq: kemada chuchuk suv tugab qolayotgan edi. Qanday bo'lmasin suv to'latib olish kerak edi. Ammo qanday qilib? Qayerdan? Bo'ron vaqtida kema sharqqa qarab shu qadar uzoqqa qolgan ediki, hatto eng keksa va ko'pni ko'rgan matroslar ham dunyoning qaysi

qismiga kelib qolganliklarini, yaqin orada yer bor-yo'qligini aytib berolmasdilar.

Hammalari ham g'oyatda tashvishlanar, bezovtalik bilan kapitanga qarab-qarab qo'yar edilar. Nihoyat 1703-yil 16-iyun kuni havozada turgan yunga yiroqdan yerni ko'rib qoldi.

Bu nima – katta yermi yoki orolmi – hech kim bilmasdi. Bo'm-bo'sh serqoya sohillari hatto kapitan Nikolsga ham tanish emasdi.

17-iyun kuni kema yerga shu qadar yaqinlashib bordiki, Gulliver bilan barcha dengizchilar palubadan uzun qumloq va qo'ltiqni aniq ko'rdilar. Ammo qo'ltiq «Advencher»dek kattakon kema kirib borsa bo'ladigan darajada chuqurmi?

Ehtiyotkor kapitan Nikols kemasini hech kimga ma'lum bo'lmagan qo'ltiqqa losmansiz olib kirishga jur'at qilmadi. U langar tashlashni buyurib, o'nta yaxshi qurollangan matrosni barkasda qirg'oqqa jo'natdi. Matroslarga bir necha bochkacha berib, mabodo qirg'oqqa yaqin joyda ko'lmi, anhormi yoki jilg'ami uchratib qolsalar ko'proq chuchuk suv olib kelishni buyurdilar.

Gulliver kapitandan unga matroslar bilan birga qirg'oqqa borishiga ruxsat berishini so'radi.

Olim hamrohining begona o'lkalarni ko'rish uchunoq uzoq safarga otlanganini yaxshi bilgan kapitan unga bajonidil javob bera qoldi.

Tez orada barkas qirg'oqqa yetib bordi-da, Gulliver birinchi bo'lib nam toshlarga sakrab tushdi.

Tevarak-atrof mutlaqo bo'm-bo'sh va jimjit edi. Na qayiq, na baliqchi kulbasi, na yaqin orada daraxtzor ko'rinardi.

Chuchuk suv qidirgan ko'yi matroslar qirg'oq bo'ylab tarqalib ketdilar, Gulliverning yolg'iz o'zi qoldi. U yangi yerlarni qiziqsinib ko'zdan kechirgancha tavakkal bilan keta boshladi, ammo hech bir qiziqarli narsa ko'rmadi. Hamma joyda – o'ngida ham, so'lida ham serqoya yaydoq sahro cho'zilib ketgan edi.

Horigan va ranjigan Gulliver orqasiga burilib, asta-sekin qo'ltiq tomon qayta boshladi.

Qarshisida shiddatli, surrang, tund dengiz yoyilib yotardi. Gulliver qandaydir bahaybat toshni aylanib o'tdi-da, vahima bosgan va hayratlangancha daf, atan to'xtab qoldi.

Bu qanday bo'ldi? Matroslar allaqachon barkasga chiqib olib, jon-jahdlari bilan kema tomon yelib ketmoqda edilar.

Nega endi ular buni qirg'oqqa yolg'iz tashlab ketishdi ekan? Nima bo'ldi ekan? Gulliver ovozi boricha qichqirib, matroslarni chaqirmoqchi edi, tili karaxt bo'lib qoldi. Qarasa qirg'oq bo'yidagi qoya orqasidan shu qoyadan kichli bo'lmagan bir bahaybat odam chiqib kelib qayiqning orqasidan quvib ketayotibdi.

Dengiz uning tizzasidan ham kelmasdi. U juda katta qadam tashlardi. Yana ikki-uch qadam tashlasa barkasning quyrug'ldan ushlab olishi turgar gap edi. Ammo suv tagidagi qirrali toshlar yurishiga yo'l qo'ymadi shekilli, to'xtab, qo'l siltadi-da, qirg'oq tomonga burildi.

Gulliverni vahima bosganidan boshi aylanib ketdi. U yerga yiqilit tushdi, toshlar oralab emakladi, keyin o'rnidan turdi-da, joni boricha boshi oqqan tomonga qarab chopdi.

U ana shu dahshatli bahaybat odamdan qayerga yashirinish mumkinligini o'ylardi, xolos.

## II

Nihoyat qirg'oq yoqasidagi qumlar va toshlar ancha orqada qoldi. Gulliver tikka tepalik yonbag'ridan halloslagancha yuqoriga chopib chiqdi-da, atrofga alangladi.

Tevarak-atrof tutash yam-yashil – qarshisida ko'zlari ilg'agunga qadar chakalaklar va o'rmonlar cho'zilib ketgan edi.

U tepalikdan tushdi-da, keng yo'l bo'ylab keta boshladi. O'ng-u so'lida tutash devor kabi qalin o'rmon xuddi qarag'aydek tik, tanasi yaydoq silliq daraxtlar qad ko'tarib turardi.

Gulliver daraxtlarning uchini ko'rish uchun boshini orqaga tashlab yuqoriga qaragan edi, ang-tang bo'lib qoldi. Bular qarag'ay emas, balandligi daraxtdek arpa poyalari ekan.

Chamasi o'rim vaqti yetgan edi, shekilli. Kattaligi yirik archa g'uddasidek bo'liq edi.

Gulliverning goh yag'riniga, goh yelkasiga, goh boshiga urilib og'ritardi. Gulliver qadamini tezlatdi.

U yura-yura nihoyat baland ihotaga yetib bordi. Ihota eng uzun poyalardan ham uch barobar baland edi, Gulliver uning yuqorisini arang ko'roldi.

Bu daladan qo'shni dalaga o'tib borish oson emasdi. Buning uchun po'panak bosgan zinalardan yuqoriga chiqib, keyin yergan kirib ketga kattakon toshdan oshib o'tish kerak

bo'lardi. Zinalar to'rttagina bo'lib, har biri Gulliverning bo'yidan ancha baland edi. U oyoq uchida turib qo'llarini yuqoriga cho'zgachgina pastki zinaning labiga yeta oldi.

Bu tariqa zinapoyadan chiqib borish xom gap edi.

Gulliver ihotani diqqat bilan ko'zdan kechira boshladi: uning bu yerdan chiqib ketsa bo'ladigan bironta tirqishi yoki tuynugi yo'qmikan, deb o'ylardi u.

Tuynugi yo'q edi.

Tuyqusdan zinaning yuqori bosqichida barkasning orqasidan quvlab borgan odamdan ham kattaroq bahaybat odam paydo bo'ldi. Uning bo'yi kam deganda butxona qo'ng'iroqxonasining bo'yiga yetib borardi.

Gulliver o'takasi yorilib arpazorga urib ketdi, yo'g'on poyaga biqingancha yashirinib turdi.

U pisib turgan joyidan daroz qo'lini silkiganini, orqasiga o'girilib, nimadir deya qichqirganini ko'rdi. Aftidan, u kimnidir chaqirayotgan edi, ammo Gulliverning nazarida ochiq osmonda yashin guldiragandek bo'ldi.

Yiroqdan yana bir necha shunday guldirak eshitildi-da, daqiqa o'tmay darozning yonida boylari qo'ng'iroqxonacha keladigan yettita yigit paydo bo'ldi. Chamasi, bular xizmatkorlar edi. Ular birinchi darozga qaraganda oddiyroq va yupunroq kiyingan, qo'llarida o'roq tutgan edilar. O'roq bo'lganda ham qanday o'roq deng? Agar bizning chalg'ildan oltitasini yerga yarim doira qilib terib qo'yganda ham bunday o'roqqa yetib olishi mahol edi.



Xo'jayinlarining so'zlarini eshitib bo'lgach, birin-ketin Gulliver yashirinib turgan paykalga tushib kelib, arpa o'rishga kirishdilar. Vahimadan esini yo'qotayozgan Gulliver orqasiga burilib, arpapoyaning ichkarisiga qarab qochdi.

Arpa qalin o'sgan edi. Gulliver baland, tik poyalar orasidan arang o'tib borardi. Tepasidan vazmin donlar duv-duv yog'ilar, ammo u endi bunga hech bir e'tibor bermay qo'yan edi.

Nogoh qarshisidan kutilmagan to'siq chiqib qoldi, yo'li ustida shamol va yomg'ir yerga qapishtirib qo'yan poya yotardi. Silliq, yo'g'on poyadan oshib o'tgan Gulliver yana ham yo'g'onroq poyaga duch keldi. Shundan keyin yerga egilib tushgan o'nlarcha poya uchradi. Poyalar bir-biri bilan jips chirmashib ketgan, boshloqlarning baquvvat, o'tkir qiltiriqlari xuddi nayzalardek tikkayib turar edi. Ular Gulliverning kiyimini teshib o'tar, etiga sanchilar edi. Gulliver chapga ham, o'ngga ham burilib ko'rdi... Hamma yerda ham ayovsiz qadaluvchi qiltiriqlar uchrardi!

Endi nima qilsa ekan? Gulliver bu chakalakzordan sira ham chiqib keta olmasligini payqadi. Madori qurib ketdi. U marzaga cho'zilib, yuzini yerga qo'yib yotdi.

Ko'zlaridan yoshi shashqator bo'lib oqardi.

U yaqinagina, bir-ikki yilgina muqaddam liliputlar mamlakatida o'zini darozlardek his qilganini beixtiyor esladi. U yerda suvorini oti bilan cho'ntagiga solishi, dushmanning butun boshli flotini bir qo'li bilan sudrab ketishi mumkin edi, hozir esa u – darozlar orasida liliput, kimsan Tog' odamni, qudratli Kuinbus flestrinni cho'n-

takka solib ketishlari hech gap bo'lmay qoldi. Shunday bo'lsa ham go'rga edi-ya. Uni qurbaqadek bosib ketishlari ham, chumchuqdek kallasini uzib tashlashlari ham hech narsa emas! Olamda nimalar bo'lmaydi deysiz...

Xuddi shu daqiqada Gulliver daf'atan ko'rib qoldi: tepasida qandaydir serbar qoramtir taxtacha paydo bo'lib, bosib tushay deyapti. Bu nima bo'ldi ekan? Nahotki bahaybat poyabzalning tagcharmi bo'lsa? Ha, shunday ekan. O'roqchilardan biri bexosdan Gulliverning yoniga kelib qoldi va xuddi uning tepasida to'xtadi. Oyog'ini yerga qo'ysa bas - Gulliverni bamisoli qo'ng'iz yoki chigirtkadek majaqlab yuboradi.

Gulliver qichqirib yuborgan edi, daroz uning qichqirganini eshitdi. Daroz engashdi-da, yerni sinchiklab ko'zdan kechira boshladi, hatto qo'llari bilan timirskilashga kirishdi.

Mana u bir necha boshoqni chetga surib qandaydir tirik maxluqni ko'rdi.

U Gulliverni ko'z ko'rmagan hayvon yoki hasharotlarni tomosha qilgandek bir daqiqacha xavotir bilan ko'zdan kechirdi. Bu g'aroyib jonivorga tishlatmasdan yoki timnatmasdan uni qanday qilib ushlab olishning yo'lini mo'ljallayotgani ayon ko'rinib turardi.

Nihoyat jur'at qildi - Gulliverni ikki barmog'i bilan belidan ushlab shartta ko'tardi-da, yaxshilab ko'rish uchun ko'zlarining oldiginasiga olib bordi.

Gulliverning nazarida uni qandaydir girdibod chirpirak qilganicha osmonga olib chiqib ketgandek tuyuldi. Yuragi yorilgudek bo'ldi.



«Bordi-yu, u biz qo'ng'izlar yoki suvaraklarni tashlab yuborishimizga o'xshab meni yerga uloqtirib yuborsa-chi?» deb o'yladi u vahimasi kelganча, qarshisida hayrat aks etgan ikkita bahaybat ko'z yiltirab ko'ringan zahotiyoq qo'llarini iltijo bilan qovushtirib, zotan ovozi qaltirayotgan, tili ko'makayiga yopishayozgan bo'lsa ham ehtirom bilan ohista shunday dedi:

– Sizga yolvoraman, muhtaram pahlavon, menga shafqat qiling! Men sizga hech qanday yomonlik qilmayman turgan gap.

Daroz Gulliver unga nima deyayotganini tushunmadi, Gulliverning bunga umidi ham yo'q edi. Gulliverning muddaosi bittagina: daroz Gulliverning vaqillamayotganini, chirqillamayotganini, sizillamayotganini, odamlarga o'xshab

gapirayotganini payqasa bas edi. Daroz buni payqadi. U sapchib tushdi-da, Gulliverni sinchiklab ko'zdan kechirdi va tushirib yubormaslik uchun uni siqibroq ushladi. Bahaybat barmoqlari Gulliverning qovurg'alarini omburdek qisib turardi, sho'rlik og'riqdan beixtiyor dodlab yubordi.

«Tamom! – degan fikr miyasidan lip etib o'tdi. – Bu yovuz meni tushirib yuborib abjag'imni chiqarmaganda ham g'ijimlab tashlashi yoki bo'g'ib qo'yishi turgan gap».

Ammo daroz Gulliverni sira ham bo'g'moqchi emasdi. U kulib qo'ydi-da, ust kiyimining etagini qaytarib, topildig'ini unga ehtiyot bilan tashladi-yu paykalning narigi tomoniga qarab yugurdi.

«Xo'jayiniga olib ketayotibdi», deb tusmol qildi Gulliver.

Haqiqatan ham bir daqiqadan so'ng Gulliver arpapoyada hammadan oldin paydo bo'lgan darozning qo'lida turardi.

Jajjigina odamni ko'rgan xo'jayini xizmatkoridan ko'proq taajjublandi. Uni goh o'ngga, goh chapga burgancha uzoq ko'zdan kechirdi. Keyin yo'g'onligi hassadek xasni olib Gulliver kaftanining barlarini ko'tarib ko'ra boshladi. Chamasi, bular tillaqo'ng'izning ustki qanotiga o'xshagan narsa bo'lsa kerak, deb o'yladi shekilli. Atrofni qurshab olgan hamma xizmatkorlari bo'yinlarini cho'zganча churq etmay Gulliverga tikilib turardilar.

Xo'jayinlari Gulliverning yuzini aniqroq ko'rish uchun uning shlyapasini oldi-da, sochlariga yengilgina pufladi. Gulliverning

sochlariga shamol kelib urilgandek tik ko'tarildi, so'ngra daroz uni ehtiyot bilan yerga tushirdida, to'rt oyoqlatib qo'ydi. Aftidan, bu g'aroyib jonivorning qanday yugurishini ko'rmoqchi bo'ldi, shekilli.

Ammo Gulliver shu ondayoq o'rnidan qalqib turdi-da, darozlar qarshisida mag'rur qadam tashlab yura boshladi, bu bilan tillaqo'ng'iz ham, chigirtka ham emas, aksincha xuddi shularning o'ziga o'xshagan odam ekanligini, mutlaqo ulardan bosh olib qochmoqchi yoki poyalar orasiga yashirinmoqchi emasligini ko'rsatishga tirishardi.

U shlyapasini silkib, o'zining yangi xo'jayiniga ehtiromla bilan ta'zim qildi. Boshini baland ko'targanча ovozini baland qo'yib to'rt tilda lo'nda-lo'nda qilib qutlov aytdi.

Darozlar bir-birlariga qarab, taajjub bilan bosh chayqadilar, Gulliver esa ular uning so'zlariga tushunmaganliklarini ayon ko'rib turardi. Shundan keyin u cho'ntagidan oltin solingan hamyonini oldi-da, xo'jayinning kaftiga qo'ydi. Daroz ikki bukilib, bir ko'zini qisgan, burnini jiyirgan ko'yi g'alati buyumni ko'zdan kechira boshladi. Gulliverning hamyoni, aftidan, unga ko'knori urug'idek ushoqqina va yep-yengil ko'rindi, shekilli.

U hatto yengining qayeridandir to'g'nog'ich olib, chamasi bu narsaning nimaligini bilolmaganidan uni sanchib ko'rdi.

Shundan keyin Gulliverning o'zi hamyonning og'zini ochib, bor oltini - o'ttiz oltita ispan qizil tillasini darozning kaftiga ag'dardi.

Daroz barmogʻining uchini hoʻllab ispan tillasidan bittasini ilashtirib oldi, keyin ikkinchisini oldi...

Gulliver darozga undan shu kamtarona sovgʻasini qabul qilishini soʻrayotganini imoishoralar bilan tushuntirishga tirishardi.

U taʼzim qilar, qoʻlini koʻksiga bosar edi, lekin daroz baribir hech narsa tushunmadi, u ham imoishoralar bilan Gulliverga pullarni yana hamyonga solib qoʻyishini, hamyonni esa choʻntagiga yashirishni buyurdi. Keyin u xizmatkorlari bilan nimalar toʻgʻrisidadir gaplasha boshladi. Gulliverning nazarida boshi ustida birvarakayiga sakkizta suv tegirmoni guldirashga tushgandek tuyuldi. Nihoyat xizmatkorlar dala tomor ketganlaridan u xursand boʻldi.

Shundan soʻng daroz choʻntagidan dastroʻmolini olib, uni bir necha qavat qilib taxladi-da, chap qoʻlini yerga tushirgancha kaftiga dastroʻmolni toʻshadi. Gulliver uning muddaosini darrov payqadi. U itoat bilan keng kaftigs chiqdida, yiqilib tushmaslik uchun muk tushib yotdi.

Daroz Gulliverni tushirib yuborib yoʻqotib qoʻyishdan qoʻrqardi, shekilli, uni xuddi koʻrpaga oʻragandek, ehtiyot bilan dastroʻmoliga oʻradi-da, ustidan ikkinchi kafti bilan toʻsib, uyiga olib ketdi.

### III

Daroz Gulliverni kaftida ushlagancha uyining ostonasidan kirib kelganida vaqt tushlikka yetib, bekasi ovqat suzayotgan ekan.

Churq etib ogʻiz ochmasdan daroz kaftini xotiniga choʻzdi-da, Gulliverni burkab turgan dastroʻmolning bir chekkasini koʻtardi.

Xotini orqasiga tisarilib, shunday chinqirib yubordiki, Gulliverning quloq pardalari yirtilib ketishiga sal qoldi.

Lekin tez orada daroz xotin Gulliverni yaxshilab koʻrib olgach, uning taʼzim qilishi, shlyapasini yechib-kiyishi, stol boʻylab likoplar oraligʻidan ehtiyot bilan yurishi unga yoqib qoldi. Gulliver haqiqatan ham stol boʻylab xavotir olganча ehtiyot bilan yurardi.

U stol chetidan ichkariroqda yurishga tirishar, chunki stol juda baland – boʻyi kam deganda ikki qavatli uycha kelar edi.

Stol atrofidan uy egasi butun oilasi bilan – otayu ona, uch bola, kampir bibi joy olgan edi. Uy egasi Gulliverni oʻz likop yoniga oʻtqazdi.

Bekaning oldidagi laganda kattakon bir boʻlak qovurilgan mol goʻshti doʻmpayib turardi. U goʻshtdan kichik bir toʻgʻram kesib, nondan bir burda sindirib oldi-da, bularni Gulliverning oldiga qoʻydi.

Gulliver taʼzim qilib, gʻilofdan yoʻlda foydalana-digan sanchqisi bilan pichogʻini oldi-da, ovqat yeyishga kirishdi.

Uy egalari birvarakayiga sanchqilarini qoʻyib, iljayganча unga tikilib qoldilar.

Gulliverni vahima bosdi. Tevarak-atrofida fonar kabi bahaybat jalanglagan koʻzlar bilan boshidan ham katta tishlarni koʻrarkan, tomogʻidan ovqat oʻtmay qoldi.

Ammo katta-yu kichik bu darozlar uning g'oyatda qo'rqayotganini payqab qolishlarini istamasdi, shuning uchun atrofiga alanglamaslikka tirishib, non bilan go'shtni yeb tugatdi.

Beka xizmatkor xotinga nimadir degan edi, u shu ondayoq Gulliverning oldiga qandaydir zarrin, shaffof ichimlik bilan limmo-lim to'ldirilgan qadah qo'ydi.

Chamasi bu eng kichkina qadah bo'lsa kerakki, unga, juda borsa, bir ko'vacha vino ketgan edi.

Gulliver o'rnidan turib, qadahni ikki qo'li bilan ko'tardi-da, xuddi bekaning oldiga borib, uning salomatligiga ichdi.

Bu darozlarning hammasiga ham yoqib tushdi. Bolalar qattiq xaxolab, chapak chala boshladilarki, Gulliverning qulog'i bitib qolayozdi.

U shosha-pisha yana uy egasining likopi panasiga yashirinmoqchi bo'lgan edi, shoshganidan nonning kuyugiga qoqilib ketdi-da, bor bo'yicha yiqilib tushdi. U shu ondayoq o'rnidan sapchib turdi, atrofiga xavotir bilan alangladi – masxara bo'lishni va noshud ko'rinishni mutlaqo istamasdi.

Biroq bu gal hech kim kulmadi. Hammalari jajji odamga tashvish bilan qaradilar, xizmatkor bexosiyat kuyuk non parchasini shu ondayoq stoldan olib ketdi.

Mezbonlarini tinchlantirish uchun Gulliver, hammasi bexavotir o'tib ketdi, degan ma'noda shlyapasini silkitdi va uch marta «ura» deb qichqirdi.

U xuddi shu daqiqada yangi bir noxushlik kutib turganidan mutlaqo bexabar edi. Uy egasining



oldiga borishi bilan bolalardan biri, otasining yonida o'tirgan o'n yashar tirrancha darhol Gulliverning oyog'idan tutib, shu qadar baland ko'tardiki, sho'rlikning nafasi ichiga tushib ketib, boshi aylandi.

Shumtaka yana nima hunar ko'rsatishi mumkin edi-yu, ammo otasi shu ondayoq Gulliverni uning qo'lidan tortib olib, yana stolga qo'ydi-da, bolakayga esa sharaqlatgancha tarsaki tortib yubordi.

Bunday zarb bilan bir eskadron, – albatta endi, oddiy odam zotidan bo'lgan grenadyorni egardan urib tushirish mumkin edi.

Shundan keyin otasi o'g'liga jiddiy ohangda darhol stoldan turib ketishni buyurdi. Bolakay bamisoli bir poda ho'kizdek bo'kirib yig'ladi, Gulliverning unga rahmi keldi.

«Undan achchiglanishning hojati bormikan? Axir u hali kichkina-ku», deb o'yladi Gulliver, bir tizzasi bilan cho'kkaladi-da, xo'jayinidan tirmizakni kechirishini so'rab, unga imo-ishoralar bilan yolbora boshladi.

Otasi bosh silkidi, bolakay yana stol chetidan joy oldi. Bu barcha sarguzashtlardan toliqib qolgan Gulliver esa dasturxonga o'tirib, tuzdonga suyandi-da, bir daqiqagina ko'zini yumdi.

Daf'atan orqasidan qandaydir kuchli shovqin eshitdi. Bunday bir maromdagi, payvast guldurguldur tovushni bir varakayiga kamida o'nta mashina ishlab turgan paypoq to'qish ustaxonasida eshitish mumkin.

Gulliver o'girilib qaragan edi – yuragi uvishib ketdi. U stol ustida qandaydir yirtqich hayvonning

bahaybat, dahshatli basharasini ko'rdi. Chaqna-gan yashil ko'zlari goh mugombirona suzilar, goh yutoqqancha ochilib ketar edi. Uzun, pahmoq mo'ylovlari ikki tomonga shiddatkorona o'qталib turardi.

Bu kim bo'ldi? Silovsinmi? Bengal yo'lbarsimi? Arslonmi? yo'q, bu hayvon eng katta arslondan ham to'rt barobar katta.

Likop orqasidan mo'ralagancha Gulliver hayvonni ko'zdan kechirdi. Tikila-tikila nihoyat fahmladi: mushuk ekan! Oddiy xonaki mushuk. U bekaning tizzasiga chiqib olibdi, beka uni silayotibdi, mushuk esa yayrab, xirxirlayotibdi.

Eh, bu mushuk ham Gulliver o'z yurtida ko'rgan hamma mushug-u mushuk bolalarga o'xshagan kichkina bo'lsa-yu, u ham buni silab-siypab, quloqlarining orqasini qitiqlasa!

Ammo sichqon mushukni qitiqlashga jur'at qilaolarmidi?

Gulliver endigina ko'zdan nariroq biron joyga – bo'sh tovoqmi, tog'oragami yashirinmoqchi bo'lgan edi, xayriyat-ki, shu narsani eslab qoldi: yirtqich hayvonlar doimo o'zlaridan qo'rqadigan-larga hujum qiladilar, o'zlariga hujum qiladigan-lardan esa qo'rqadilar.

Bu fikr unga dadillik bag'ishladi. U qilichining bandini tutib, jasorat bilan oldinga qadam tashladi.

Allaqachonlardan buyon ovchilikda orttirgan tajribasi unga pand bermadi. Mushukning tumshug'i tagiga besh yoki olti marta tap tortmasdan bordi, mushuk hatto unga panjasini

cho'zishga ham jur'at qilmadi. U quloqlarini qimtibgina orqasiga tisarildi.

Ish shu bilan tugadiki, u bekaning tizzasidan sakrab tushib, stoldan nari qochib qoldi. Gulliver yengil tortib, xo'rsinib qo'ydi.

Biroq shu orada xonaga ikkita bahaybat it yugurib kirdi. Ularning kattaligi qandayligini bilmoqchi bo'lsangiz, to'rtta filni ustma-ust qo'ying, shunda aniq tasavvurga ega bo'lasiz.

Itlardan biri bo'yi bahaybat bo'lishiga qaramay, oddiy ko'ppak, ikkinchisi tozi zotidan bo'lgan ovchi it edi. Xayriyatki, ikkala it ham Gulliverga uncha e'tibor bermadi, egalari nimadir tashlagan edi, olgancha chopqillab hovliga chiqib ketdi.

Ovqat oxirlab qolganda xonaga qo'lida bir yashar go'dakni ko'targanicha enaga kirib keldi.

Go'dak Gulliverni darrov ko'rib qolib, unga qo'lini cho'zdi-da, quloqni bitirgudek bo'kirib yig'lay boshladi. Mabodo bo'yi ikki sajen keladigan o'sha go'dak Londonning bir chekkasida turgan bo'lsa uning ovozini ikkinchi tomonda hatto garanglar ham eshitishi mumkin edi. Chamasi, u Gulliverni o'yinchoq deb o'ylagan bo'lsa kerak, unga qo'li yetmayotganidan achchig'lanardi.

Onasi mehr bilan jilmaydi-da, o'ylab ham o'tirmasdan Gulliverni shartta olib, go'dakning oldiga qo'ydi. Bolakay ham o'ylab o'tirmay uning belidan tutib boshi bilan og'ziga tiqa boshladi.

Ammo shundan keyin Gulliver o'zini tutib turolmadi. Jabrlovchisidan ham qattiqroq qichqirib yuborgan edi, go'dak qo'rqib ketganidan uni qo'lidan tushirib yubordi.

Agar beka Gulliverni tushib kelayotgan joyida etagi bilan tutib qolmasa bormi, ehtimolki, bu uning oxirgi sarguzashti bo'lib qolishi mumkin edi.

Go'dak yana ham qattiqroq bo'kirishga tushdi, enaga ovutish uchun uning ko'zi o'ngida shaqildog'ini silkita boshladi. Shaqildoq go'dakning yo'g'on langar arqoni bilan bog'langan bo'lib, ichi havol kattakon qovoqni eslatardi. Ichida kamida yigirmatacha g'ola tosh qaldir-quldurlab aylanardi. Ammo go'dak eski shaqildog'iga qayrilib ham qaragisi kelmasdi. U jon-jahdi bilan bo'kirardi. Nihoyat daroz xotin Gulliverni peshgiri bilan yashirib, uni sezdirmasdan boshqa xonaga olib chiqib ketdi.

U yerda karavotlar turardi. U Gulliverni o'zining o'rniga yotqizib, ustiga toza dastro'mol yopib qo'ydi. Dastro'mol harbiy kemanding yelkanidan ham katta, o'shanday qalin va dag'al edi.

Gulliver juda charchagan edi. Ko'zlari qisilib ketmoqda, beka uni yolg'iz qoldirib chiqib ketishi bilan dag'al kanop ko'rpasini boshiga tortdi-da, uyquga ketdi.

U ikki soatdan ortiq uxladi, tush ko'rsa, uyida qarindosh-urug'lari, do'stlari orasida yurganmish. Uyg'onib qarasa, bir necha soatda ham aylanib chiqish mahol bo'lgan hayhotdek xonadagi cheki-poyoni yo'q karavotda yotibdi, juda o'ksinib ketdi. U yana ko'zini chirt yumib, dastro'molning qirini yuqoriroq tortdi. Biroq bu gal uxlayolmadi. Endi mudroq bosishi bilan kimningdir pardadan o'ringa tap etib tushib, yostiq bo'ylab yugurgancha, hushtak chalibmi, pishillabmi,

oldida to'xtaganini sezdi. Gulliver shartta boshini ko'tarib qarasa, ko'zining oldiginasiga kelib qolgan qandaydir uzun tumshuqli mo'ylovdor maxluq chaqnagan qora ko'zlari bilan tikka qarab turibdi. Kalamush! Kattaligi ko'ppakdek keladigan badbashara qo'ng'ir kalamush! Shunda ham bitta emas, ikkita ekan, ular Gulliverga ikki tomondan tashlanmoqchi!

Ha-ha, beandisha maxluqlar! Kalamushlardan biri shu qadar dadillanib ketgan ediki, panjalari bilan Gulliverning naq yoqasiga yopishgan edi.

U chap berib, qilichini sug'urdi-da, bir zarb bilanoq hayvonning qornini yorib tashladi. Kalamush qonga belangancha qulab tushdi. Ikkinchisi esa qochishga tushdi. Ammo Gulliver shu ondayoq uni quvib borib, karavotning chetida yetib oldi-da, dumini shartta uzib tashladi. Kalamush uzun qonli iz qoldirganча achchiq chiyillagan ko'yi qayoqqadir pastga pildirab tushib ketdi.

Gulliver o'layotgan kalamushning oldiga qaytib keldi. U hali nafas olayotgan edi. Uni bir zarb bilan tamom qildi.

Xuddi shu daqiqada xonaga beka kirib qoldi. Gulliverning qonga belanganini ko'rarkan, qo'rqib ketganча karavotga yugurib kelib, uni qo'liga olmoqchi bo'ldi.

Gulliver esa jilmayganча unga qon yuqi bo'lgan qilichini uzatdi, keyin esa o'lib yotgan kalamushni ko'rsatdi, xotin bor gapni tushundi.

U xizmatkor ayolni chaqirib, unga kalamushni otashkurak bilan derazadan uloqtirib yuborishni buyurdi. Shundan keyin ikkala xotin ham

ikkinchi bir kalamushning uzilib yotgan dumini ko'rib qoldi. Podachilar gavronining uzun qayishidek dum Gulliverning oyoqlari ostida yotardi.

#### IV

Gulliverni topgan xo'jayinlarning qizi bo'lib, u yoqimtoy, mehribon, ziyrak qizaloq edi.

U allaqachon to'qqizga kirgan, lekin yoshiga nisbatan jussasi juda kichkina edi – bo'yi atigi, juda borsa, uch qavatli uydek, shunda ham shamol parragi-yu qubbasi yo'q uydek kelardi. Qizaloqning qo'g'irchog'i bo'lib, unga katta-kichik bejirim ko'ylaklar, peshgirlar tikardi.

Ammo uylarida g'aroyib tirik qo'g'irchoq paydo bo'lganidan beri eski o'yinchoqlariga qaragisi ham kelmay qo'ydi. Oldingi sevikli qo'g'irchog'ini qandaydir qutichaga solib qo'ydi-da, uning beshikchasini Gulliverga berdi. Beshikchani kunduzlari komodning tortmalaridan birida saqlar, oqshomlari esa kalamushlar Gulliverga tegmasligi uchun shiftning tagginasiga qoqilgan rafga chiqarib qo'yar edilar.

Qizaloq o'zining «grildrig»i (darozlar tilida «grildrig» – «jajji odam» degani bo'ladi) uchun yostiq, ko'rpa va choyshab qilib berdi. Unga, qayerlardandir qidirib topib, eng yupqa mato qiyqimidan yettita ko'ylakcha tikib berdi. Uning kir-chiri va paypoqlarini doim o'zi yuwardi.

Ana shu qizaloqdan Gulliver darozlarning tilini o'rgana boshladi. U qandaydir buyumni ko'rsatar,

qizaloq esa buning nima deb atalishini bir necha marta dona-donalab takrorlar edi.

Qizaloq Gulliverni shu qadar mehr bilan parvarishlar, shu qadar sabr bilan so'zlashishga o'rgatar ediki, shundan keyin Gulliver uni «glyumdalklichim», ya'ni enagacham, deb ataydigan bo'ldi.

Bir necha haftadan so'ng Gulliver atrofida gilar nimalar deyayotganini uncha-muncha tushunadigan, o'zi ham darozlar bilan chala-chulpa tillashadigan bo'lib qoldi. Bu orada uyning egasi dalasida g'aroyib maxluq topib olgani haqidagi ovoza tevarak-atrofga yoyilib ketdi.

Aytishlaricha, maxluq ushoqqina, olmaxondan kichikroq, ko'rinishdan juda ham odamga o'xshar emish: ikki oyoqlab yurarmish, o'zining qandaydir shevasida chug'ullarmish, ammo odamchasiga gapirishni ham uncha-muncha o'rganganmish.



O'zi farosatli, itoatkor, chaqirsalar darrov yugurib kelar emish, buyurilgan ishning hammasini ado etarmish. Ko'rinishi oppoqqina – uch yashar qizaloqning yuzidan ham oppoq, muloyim, boshidagi tuklari esa ipakdek muloyim, tivitdek yumshoqqina emish.

Shunday qilib kunlardan bir kun uy egalarinikiga qadrdon tanishlari mehmon bo'lib keldi.

U ulardan darrov so'radi:

– Sizlar allaqanday alomat maxluq topganmish-sizlar, shu rostmi?

Bunga javoban uy egalari qizlariga Grildrigni olib kelishni buyurdilar.

Qizaloq yugurib chiqib, Gulliverni olib keldida, uni stolga qo'ydi. Gulliver Glyumdalklich o'rgatgan narsalarning hammasini ko'rsatishga majbur bo'ldi.

U stol bo'ylab uzunasiga ham, ko'ndalangiga ham shaxdam qadam tashlab yurar, buyruq bilan qilichini g'lofidan sug'urar va joyiga solib qo'yar, mehmonga ta'zim qilar, undan hol-ahvol so'rar, tez-tez kelib turishini iltimos qilar edi.

Cholga g'aroyib odam yoqib qoldi. Grildrigni yaxshiroq ko'rish uchun ko'zoynagini taqdi. Gulliver unga qararkan o'zini tutolmay kulib yubordi: cholning ko'zlari to'lin oy kemanding doira derazasidan kayutaga mo'ralaydigan kezlardagiga o'xshab ketardi.

Glyumdalklich nima sababdan Gulliverning kulgisi qistaganini darrov tushunib, u ham piqillagancha kulib yubordi.

Mehmonga malol kelib, lablarini qimirlatdi.



– Juda xushchaqchaq maxluq ekan! – dedi u.  
– Nazarimda u odamlardan emas, odamlar undan kulsalar, sizga ko‘proq nafi tegardi.

Chol shu ondayoq uy egasiga Gulliverni orasi atigi yarim soatli, yigirma milcha yo‘l bo‘lgan yaqin shaharga olib borishni, birinchi bozor kuniyoq uni pulga ko‘rsatishni maslahat berdi. Gulliver bu suhbatdan bir nechagina so‘zni ilg‘ab, fahmlab oldi, unga qarshi qandaydir noma‘qul ish boshlanayotganini payqadi.

Glyumdalklich uning xavotiri o‘rinli ekanini tasdiqladi. U yum-yum yig‘lagancha nolidi:

– Dadam bilan oyim meni yana bulturgidek ahvolga solishmoqchi shekilli. O‘shanda ular menga qo‘zichoq sovg‘a qilib, boqib semirtirmasimdan burunoq uni qassobga sotib yuborishgan edi. Hozir har shunday qilishmoqchi: menga Grildrigni bus-butun berishgan edi, eng uni yarmarkama-yarmarka olib yurib ko‘rsatishmoqchi.

Avvaliga Gulliver juda o‘kindi – uni yarmarkada xuddi o‘rgatilgan maymun yoki suv cho‘chqasiga o‘xshatib ko‘rsatmoqchi bo‘lganlariga xafa bo‘ldi.

Ammo, keyin xayoliga shunday bir fikr keldiki, xo‘jayinning uyida ostonadan bir qadam nariga jilmay yashaydigan bo‘lsa, qo‘g‘irchoqning beshigidami yoki komodning tortmasidami – qarib-churib ketish mumkin ekan.

Yarmarkalar bo‘ylab kezib yursa bormi – kim biladi, taqdiri o‘zgarib ketsa ham ajab emas. Shu tariqa u birinchi safarni umid bilan kuta boshladi.

## V

Nihoyat o'sha kun yetib ham keldi.

Tong otar-otmas xo'jayin bilan qizi Gulliverni olib yo'lga tushdilar.

Ular yolg'iz otda ketmoqda edilar: xo'jayin oldinda, qizi orqasida, Gulliver esa qizaloqning qo'lidagi qutida...

Ot shu qadar ildam yelardiki, Gulliverning nazarida u yana kemaga tushib qolgandek, kema esa goh to'liqin yo'lga sapchib chiqib, goh dengiz qa'riga kirib ketayotgandek tuyulardi.

Uni qaysi yo'ldan olib ketayotganlarini Gulliver ko'rmas, xo'jayin jaji odamni qishloqdan shaharga olib tushish uchun bir kun oldin yasagan qorong'i qutichada o'tirar, to'g'rirog'i – yotar edi.

Qutichaning hamma tomonlari yopiq, Gulliver kirib-chiqishi mumkin bo'lgan birgina eshigi-yu qopqog'ida havo kirib turishi uchun bir nechi tirqishi bor edi.

Mehribon Glyumdalklich yashikka qo'g'ircho-g'ining karavotidagi ko'rpani to'shab qo'yan edi. Har bir silkinishda seni bir gaz ko'tarib tashlab, burchakdan burchakka uloqtirib tursa eng qalin ko'rpa ham shikast yeyishingdan omon saqlay olarmidi?

Glyumdalklich sho'rlikkina Grildrigi u yoqdan-bu yoqqa yumalab borib, devorlarga gursillab urilayotganini tashvish bilan tinglab borardi.

Ot to'xtashi bilanoq qizaloq egardan sakrab tushdi-da, eshikchani ochib, qutichaga mo'raladi. Azob chekkan Gulliver o'rnidan arang turdi-da, gandraklaganacha ochiq havoga chiqdi.

A'zoyi badani zirqirab og'rir, ko'z o'ngida yashil halqalar suzar – yarim soatli sermashaqqat yo'l uni shu qadar qoqib qo'ygani edi. Mabodo okean po'rtanalari-yu dovullariga ko'nikib qolmaganida bormi, dengiz kasaliga chalinishi turgan gap edi.

Biroq Gulliver uzoq dam olishga muyassar bo'lolmadi. Xo'jayini bir daqiqa g'animat vaqtini behuda ketkazgisi kelmadi.

U «Yashil burgut» mehmonxonasidan eng katta xonani ijaraga olib, o'rtasiga serbar stol qo'yishni buyurdi-da, grultrud, bizningcha – jarchilladi.

Grultrud butun shaharni aylanib chiqib, tomoshabinlarga «Yashil burgut» degan mehmonxonada uncha ko'p pul to'lamasdan g'aroyib maxluqni ko'rishlari mumkinligini xabar qildi. O'sha maxluqning odam barmog'idek kelishini, ammo chinakam odamga o'xshashini, nima deyilsa hammasini tushunishini, o'zi ham bir necha so'z ayta olishini, turli alomat harakatlar ko'rsatishini ma'lum qildi. Xaloyiq mehmonxonaga yopirilib keldi.

Gulliverni stolga turg'azib qo'ydilar, Glyumdalklich esa uni qo'riqlash va nimalar qilishi kerakligini aytib turish uchun kursiga chiqdi.

Qizaloqning buyrug'i bilan u orqa va oldinga borib kelar, qilichini sug'urib silkitar edi. Glyumdalklich unga poya-cho'p tutqazdi, xuddi nayza tutgandek har xil mashqlar bajardi. Oxirida vino to'ldirilgan angishvonani ko'tarib, xaloyiqning sog'ligiga ichdi-da, hammani uni kelasi bozor kuni kelib ko'rishlariga taklif etdi. Tomosha ko'rsatilayotgan xonaga o'tizdan ortiq

odam sig'mas edi. G'aroyib Grildrigni ko'rishga butun shahar ishtiyoqmand edi. Shunga ko'r Gulliver bir tomoshadagi narsalarni yangidan yangi tomoshabinlar uchun o'n ikki marta takrorlashga majbur bo'ldi. Kechga borib shu qadar toliqib qoldiki, tili gapga kelmas, oyoqlarini arang sudrab bosar edi.

Xo'jayini hech kimning Gulliverga taqilishiga yo'l qo'ymas – bitta-yarimta ehtiyotsizlik bilan qovurg'asini ezib yoki qo'linimi, oyog'inimi sindirib qo'yishidan qo'r qar edi.

Har ehtimolga qarshi tomoshabinlar o'tiradigan xaraklarni tomosha berilayotgan stoldan nariroqqa qo'ydirgan edi. Ammo bu ham Gulliverni kutilmagan falokatdan saqlab qololmadi.

Orqadagi qatorda o'tirgan qandaydir o'quvchi shartta o'rnidan turib, Gulliverning boshini mo'ljalga oldi-da, unga kattakon yong'oqni otdi. Yong'oq bo'liqqina qovundek kelar, agar Gulliver chetlab chap bermasa bormi, kallasidan ajrashi turgan gap edi.

Bolakayning qulog'ini cho'zg'ilab, zaldan chiqarib yuborishdi. Lekin Gulliver shu daqiqadan boshlab behuzur bo'lib ketdi. Cho'p zil-zambil, angishvonadagi vino esa achchiq va badxo'r tuyuldi. Glyumdalklich uni qutichaga yashirib, eshigini yopib qo'yanidan keyin terisiga sig'may sevinib ketdi.

Birinchi tomoshalardan keyin Gulliver uchun mashaqqatli hayot boshlandi.

Har bozor kuni uni shaharga olib tushishar, u ertadan kechgacha stol bo'ylab yugurib

xaloyiqning ko'nglini olar edi. Lekin uyda, qishloqda ham bir daqiqa halovati yo'q edi.

G'aroyib jajji odam haqidagi hangomalarni eshitgan tevarak-atrofdagi yer egalari bolalari bilan uning xo'jayiniga kelib Grildrigni ko'rsatishni talab qilardilar.

Tortisha-tortisha ko'ndirgandan keyin xo'jayini uyida tomosha ko'rsatardi. Nihoyatda mamnuniyat bilan jo'nab ketgan mehmonlar uylariga yetib borgach, barcha qo'ni-qo'shnilari, tanish-bilishlari va qarindosh-urug'larini Gulliverni tomosha qilgani yuborardilar.

Xo'jayini Gulliverni ko'rsatib turishning foydasi katta ekanligini tushundi.

Uzoq o'ylab o'tirmay u bilan birga darozlar mamlakatining barcha yirik shaharlarini aylanib kelmoqchi bo'ldi.

Yo'l taraddudi uzoqqa cho'zilmadi.

1703-yil 17-avgust kuni, Gulliver kemadan tushganidan roppa-rosa ikki oy o'tdi deganda, xo'jayini, Glyumdalklich va Gulliver uzoq safarga otlandilar.

## VI

Darozlar mamlakati Brobdingneg, uning poytaxti esa Lorbrulgrud deb atalar, bu bizningcha «olamning faxri» degani edi.

Poytaxt mamlakatning qoq o'rtasida joylashgan, unga kirib borish uchun Gulliver bilan bahaybat hamrohlarining oltita keng daryodan kechib o'tishlariga to'g'ri keldi. U o'z yurti va boshqa mamlakatlarda ko'rgan daryolari bularga

nisbatan torgina, sayozgina jilg'alardek bo'lib qoldi.

Sayyohlar o'n sakkizta shahar, ko'plab qishloqlarni bosib o'tdilar, ammo Gulliver ularni deyarli ko'rmadi. Gulliverni unga turli-tuman g'aroyibotlarni ko'rsatish uchun emas, uning o'zini g'aroyibot sifatida ko'rsatish uchun yarmarkamaymarka olib yurishardi.

Odatdagidek xo'jayini otda yurar, uning orqasiga mingashgan Glyumdalklich esa tizzasida Gulliver joylashgan qutichani ko'tarib borar edi.

Ammo bu galgi safar oldidan qizcha qutichaning devorlarini yumshoq mato bilan qopladi, tagiga to'shaklar yozdi, burchagiga qo'g'irchoq'ining karavotini o'rnashtirdi.

Lekin baribir Gulliver tinimsiz chayqalish va silkinishlardan qattiq charchab qolardi.

Buni payqagan qizaloq otasini sekinroq yurishga va o'qtin-o'qtin to'xtashga ko'ndirdi.

Gulliver qorong'i yashikda o'tirib zerikib ketganida qizcha uni tashqariga olib chiqar, sarin havodan nafas olishi va ular bosib o'tayotgan yo'llaridagi qasrlar, dalalar hamda daraxtzorlarni tomosha qilib ketishi uchun qopqoq ustiga turg'izib qo'yar edi. Ammo shunda ham uni shamol uchirib ketmasligi uchun oyoqlaridan mahkam ushlab turardi.

Mabodo Gulliver shunday balandlikdan yiqilib tushadigan bo'lsa yerga tushmasidan o'takasi yorilib, o'lib qolardi. Lekin enagachasining qo'lida u o'zini bexavotir sezar, atrofni qiziqish bilan tomosha qilib borar edi.

Tajribali sayyoh sifatida sinashta bo'lib qolgan odatiga ko'ra Gulliver hatto eng mashaqqatli safarlar vaqtida ham vaqtini behuda o'tkazgisi kelmasdi.

Glyumdalklichidan qunt bilan ta'lim olar, yangi-yangi so'zlarni xotirlab qolar, kun sayin brabdingnegchasiga tobora yaxshi so'zlashar edi.

Glyumdalklich hajmi geografik atlasdan katta bo'lmagan kichkina cho'ntak kitobchasini hamisha yonida olib yurardi. Bu namuna qizlarning odob-axloq qoidalari edi.

U Gulliverga harflarni tanitib yurgan edi, u ham tez orada kitobchani sharillatib o'qiydigan bo'ldi.

Uning muvaffaqiyatlaridan xabar topgan xo'jayini Gulliverga tomosha vaqtlarida turli-tuman kitobchalarni ovoz chiqarib o'qitadigan bo'ldi.

Bu ermaktalab tomoshabinlarni juda qiziqtirar, ular gala-gala bo'lib savodxon chigirtkani ko'rgani kelishar edi.

Xo'jayini Gulliverni har bir shahar, har bir qishloqda ko'rsatardi. U goho yo'ldan burilib, biron mashhur asilzodaning qasriga kirardi.

Ular yo'l-yo'lakay qancha ko'p tomosha ko'rsatsalar xo'jayinning hamyoni shuncha ko'p qappayar, sho'rluk Gulliver esa shuncha ko'p xipcha tortar edi.

Nihoyat, safarlari oxirlab, poytaxtga yetib kelganlarida Gulliver azbaroyi horib-charchaganidan oyoq ustida turolmasdi.

Ammo xo'jayini nafas rostlash degan narsani xayoliga ham keltirmasdi. U mehmonxonada katta zalni ijaraga olib, Gulliver biron narsa bo'lib

bexosdan yerga yiqilib tushmasligi uchun atrofiga g'ov tutilgan stol qo'ydirdi, butun shahar bo'ylab afishalar yopishtirtirdi. Unda ayon-oshkor qilib shu so'zlar yozilgan edi: «Kimki bilimdon Grildrigni ko'rmabdi, olamga kelmabdi!» Tomoshalar boshlanib ketdi. Ba'zan Gulliverning kun bo'yi tomoshabinlarga o'n martalab ko'rinishiga to'g'ri kelardi.

U bunga uzoq vaqt dosh bera olmasligini his qilardi. Aksar qo'lida cho'p bilan stol bo'ylab odim tashlab yurarkan, umri shu g'ov tutilgan stolda, bekorchi xaloyiqning qattiq qahqahasi ostida tugashi mumkinligini o'ylab achinardi.

Gulliverga xuddi yer yuzida undan baxtsizroq odam yo'qdek tuyulgan bir paytda taqdiri tuyqusdan yaxshi tomonga burilib ketdi.

Ajoyib tonglardan birida mehmonxonaga qirolning mulozimlaridan biri kirib keldi-da, Gulliverni darhol saroyga olib borishlarini talab qildi.

Ma'lum bo'lishicha, bir kun oldin saroydagi xonimlardan ikkitasi bilimdon Grildrigni ko'rgan, u to'g'risida qirolichaga ko'p gapirib bergan, qirolicha esa uni albatta o'z ko'zi bilan ko'rgisi, qizlariga ham ko'rsatgisi kelib qolgandi.

Glyumdalklich o'zining eng yaxshi ko'chalik ko'ylagini kiyib, Gulliverni o'zi yuvintirib, sochlarini taradi-da, saroyga olib ketdi. Shu kuni Gulliver tomoshani qoyil qilib yubordi. U hech qachon qilichi-yu cho'pini shu qadar epchillik bilan o'ynatmagan, hech qachon shu qadar xushchaqchaqlik bilan odim tashlamagan edi. Qirolicha behad zavqlangan edi. U iltifot bilan



jimjilog'ini Gulliverga uzatdi, bu esa jimjiloqni ikki qo'llab ehtiyot bilan ushlaganicha tirnog'ini o'pdi. Qirolichaning tirnog'i silliq, yaltiratilgan edi, uni o'parkan, Gulliver unda o'z aksini xuddi cho'ziq doira oynada ko'rgandagidek aniq ko'rdi. Ana shundagina keyingi paytlarda ancha o'zgarib rangi ketganini, oriqlaganini, chakkalaridagi sochlariga uncha-muncha oq tushganini ko'rdi.

Qirolicha Gulliverga bir necha savol berdi. Uning qayerda tug'ilganini, shu vaqtgacha qayerda yashaganini, Brobdingnegga qachon va qanday kelib qolganini bilgisi kelardi.

Gulliver uning hamma savollariga aniq, qisqa, xushmuomalalik bilan, imkoni boricha qichqirib javob berardi. Shundan keyin qirolicha Gulliverdan so'radi:

– Mening saroyimda qolishni istaysanmi?

– Agar xo'jayinim meni bo'shatishga rozi bo'lsa, shunday ajoyib, marhamatli, donishmand qirolichaga xizmat qilishni baxt deb bilardim.

– U rozi bo'ladi! – dedi qirolicha va kanizagiga qandaydir ishora qildi.

Bir necha daqiqadan so'ng Gulliverning xo'jayini qirolichaning qarshisida turdi.

– Men bu jajji odamni o'zimga olaman, – dedi qirolicha. – Qancha haq so'raysan?

Xo'jayini o'ylab qoldi.

Gulliverni ko'rsatib yurishi juda foydali edi. Ammo uni qachongacha ko'rsatib yurishi mumkin ekan? Kun sayin quyosh tekkan sumalak yupqa tortib borayotibdi, hademay ko'zga ko'rinmay qolsa ham ajab emas.

– Ming tilla! – dedi u.

Qirolicha unga ming tilla sanab berishlarini amr qilib, keyin Gulliverga o'girildi.

– Mana, – dedi u, – endi bizniki bo'lding, Grildrig. Gulliver qo'lini ko'ksiga bosdi.

– Men siz hazrati oliyalariga chuqur ta'zim qilaman, – dedi u, agar marhamatingiz husni jamolingizdan kam bo'lmasa, siz farmon bardorimdan jur'at etib so'radimki, meni aziz Glyumdalklichimdan enagacham-u muallimamdan ajratmasangiz.

– Juda yaxshi, – dedi qirolicha. – U saroyda qoladi. Bu yerda unga ta'lim berib, yaxshi parvarishlaydilar, u esa senga ta'lim berib, holingdan xabar olib turadi.

Glyumdalklich quvonchidan o'yin tushib yuboray dedi. Xo'jayini ham juda mamnun edi. Qizini qirol saroyiga joylashtira olishi mumkinligi hech qachon xayoliga ham kelmagan edi.

Pulini yo'l xaltasiga joylashtirgach, u qirolichaga chuqur ta'zim qildi. Gulliverga esa yangi xizmat joyida muvaffaqiyat tilashini aytdi.

Gulliver javob berib o'tirmay, boshini silkitib qo'ya qoldi.

– Sen sobiq xo'jayiningdan achchig'lanayotganga o'xshaysan-a, Grildring? – deb so'radi qirolicha.

– Yo'g'-e, – deb javob berdi Gulliver. – O'ylashimcha, u bilan gaplashgulik gapim yo'q. Shu vaqtgacha uning o'zi men bilan gaplashgan emas, mendan, kun bo'yi xaloyiq oldida o'n martalab o'yin ko'rsata olasanmi, deb so'ramagan ham. Undan birgina minnatdor joyim shundaki, meni uning dalasidan tasodifan topib olganlarida bosib

yanchib ketmadilar. Ana shu himmati uchun meni mamlakatning barcha shahar-u qishloqlarida ko'rsatib orttirgan pullari hisobiga zimmamda qarzimni bir necha karra ortig'i bilan uzdim. Mening arzimasi shaxs uchun siz hazrati oliyalari-dan olgan ming tillasini aytmay ham qo'ya qolay. Bu ochko'z odam meni o'lar holatga yetkazdi, bordi-yu, endi sariq chaqaga ham arzimay qoldi, deb o'ylamasam, meni o'la qolsam ham, hatto shuncha tilla evaziga bermasdi. Ammo, aminmanki, bu gal u yanglishdi. Men yangi kuch-quvvatga to'layotganimni sezayotibman, mening ajoyib qirolicham va fannonbardoringa sidqidildan xizmat qilishga tayyorman.

Qirolicha g'oyat taajjublandi.

– Men hech qachon bu tariqa narsani ko'rgan ham, eshitgan ham emasman! – deya xitob qildi u. – Bu jahondagi barcha hasharotlar ichida eng sermulohaza, eng so'zamol hasharot ekan!

Shunday deb, Gulliverni ikki barmog'i bilan tutganicha uni qiroлга ko'rsatgani olib ketdi.

## VII

Qiroл o'z kabinetida o'tirar, qandaydir muhim davlat ishlari bilan band edi.

Qirolicha uning stoliga yaqinlasharkan, Gulliverga qisqagina nazar tashlab qo'ydi-da, qirolicha qachondan beri o'rgatilgan sichqonlarga ishqiboz bo'lib qolganini so'radi.

Qirolicha bunga javoban sassizgina jilmaydi-da, Gulliverni stolga qo'ydi.

Gulliver qirolga ehtirom bilan chuqur ta'zim qildi.

– Bu harakat qiladigan g'alati o'yinchoqni sizga kim yasab berdi? – deb so'radi qirol.

Shunda qirolicha Gulliverga imo qildi, u o'zi o'ylab topishga qodir bo'lgan eng uzun va chiroyli qutlovini aytdi.

Qirol hayratlandi. U o'zini kreslo suyanchig'iga tashlab, g'aroyib jajji odamga ketma-ket savol bera boshladi.

Gulliver qirolga mufassal va aniq javob berardi. U bor gapni aytar, qirol esa unga ko'zlarini qisinqirab qaragancha ishonqiramay bosh chayqar edi.

U mamlakatdagi eng mashhur uch olimni chaqirtirib kelib, ularga bu ikki oyoqli, kichkina, noyob jonivorni sinchiklab ko'zdan kechirib, uning qaysi toifaga mansub ekanligini aniqlashni buyurdi.

Olimlar Gulliverni katta qilib ko'rsatuvchi oyna orqali uzoq ko'zdan kechirganlaridan keyin nihoyat shunday qarorga keldilar. Bu maxluq emas, chunki ikki oyoqlab yuradi, aniq-taniq gapiradi. U qush ham emas, negaki qanotlari yo'q, ehtimoldan xoli emaski, ucholmasa ham kerak. U baliq ham emas, negaki na dumi, na dandanasi, na qanotlari bor. Aftidan u hasharot ham bo'lmasa kerak, negaki bironta ham ilmiy kitobda odamga bunchalik o'xshaydigan hasharot haqida eslatib o'tilmaydi. Biroq, uning g'oyat pastak bo'yi-yu arang eshitaladigan ovozigga qarab hukm yuritiladigan bo'lsa – u odam ham emas. Aniqrog'i, u shunchaki tabiatning o'yini –

brobdingnegchasiga aytganda «relplyum skolkate».

Buni eshitgan Gulliver juda xafa bo'lib ketdi.

– Nima desalaringiz deyaveringlar, – dedi u, – ammo men mutlaqo tabiatning o'yini emasman, balki chinakam odamman.

Qiroidan ruxsat so'rab, kim ekanligini, qayoqdan kelganligini, shi vaqtgacha qayerda va qanday yashaganligini birma-bir gapirib berdi.

– Biz tomondagi o'lkalarda bo'yi xuddi mendek keladigan millionlarcha erkaklar va xotinlar yashaydilar, – deb uqtirardi u qirol bilan olimlarga.

– Bizlarning tog'larimiz-u daryolarimiz, daraxtlarimiz, uylarimiz minoralarimiz, minib yuradigan otlarimiz, ovlaydigan hayvonlarimiz – xullas, atrofimizni o'rab turadigan narsalarning barchasi, men sizlardan necha marta kichik bo'lsam, sizlarning tog'laringiz, daryolaringiz, daraxtlaringiz-u hayvonlaringizdan shuncha marta kichik.

Olimlar kulib yubordilar-da, ular tuturiqsiz cho'pchaklarga isnonmaslik uchunoq uzundan-uzoq vaqt sarf qilib ilm olganliklarini aytdilar, ammo qirol Gulliverning rost gapirganiga ishondi.

U olimlarga ruxsat berib, kabinetiga yumdalkichni chaqirtirdi-da, unga otasini qidirib topishni buyurdi. Baxtiga otasi ham shahardan chiqib ketmagan ekan.

Qirol ularning ikkovlaridan Gulliverni qayerdan, qanday qilib topganliklarini uzoq surishtirdi, ularning javoblaridan Gulliverning rost gapirayotganiga mutlaqo qanoat hosil qildi.

– Agar bu odam bo'lmagan taqdirda ham, – dedi qirol, – u har qalay, jajji odam.

U qirolichadan Gulliverni ehtiyot qilishni, uni yaxshiroq parvarish etishni o'tindi.

Qirolicha Gulliverni bajonidil o'z himoyasi ostiga olishga va'da berdi. Aqlli, xushmuomala Grildrig unga avvalgi erkato'y pakanasidan anchagina ko'proq yoqib qoldi.

O'sha pakana shu vaqtgacha mamlakatdagi eng kichkina odam hisoblanib kelinardi.

Uning bo'yi atigi to'rt gaz bo'lib, to'qqiz yashar Glyumdalklichning yelkasigacha ham yetmasdi. Axir uni qirolichaning kaftiga sig'ib ketadigan Grildrig bilan tenglashtirib bo'larmidi!

Qirolicha Gulliverga o'zining xos xonalari yonidagi xonalarni tayin qildi. Bu xonalarga Glyumdalklich bilan muallima va xizmatkor xotinlar joylashdilar. Gulliverning o'zi esa deraza ostiga qo'yilgan stolchadagi ko'rkam yong'oq qutichaga o'rnashdi, bu unga yotoq bo'lib xizmat qilardi.

Bu qutichaga qirolichaning alohida buyurtmasi bo'lib, uni saroy duradgori yasagan edi.

Qutichaganing uzunligi o'n olti qadam, eni o'n ikki qadam edi. Ko'rinishdan u sirti darchali yorug' derazalari bor, qulf osilgan naqshindor eshikli chog'roqqina uyga o'xshar, faqat tomi yapasqi edi. Tomi oshiq-moshiqli bo'lib, ochilib-yopilardi. Har kuni ertalab Glyumdalklich tomni ochib, Gulliverning yotog'ini yig'ishtirib qo'yardi.

Yotoqxonada ikkita kiyim shkafi, qulay karavot, ichkiyim solinadigan komod, ikkita stol va yon suyanchiqli ikki kreslo turardi. Gulliver uchun bu barcha narsalarni suyak va yog'ochdan nafis

buyumlar o'yish mahorati bilan nom chiqargan o'yinchoq ustasi yasab bergan edi.

Kreslolar, komod va stolchalar fil tishiga o'xshagan qandaydir materialdan, karavot bilan shkaflar esa uycha singari yong'oq yog'ochidan yasalgan edi.

Uychani u joydan bu joyga ko'chirayotganlarida Gulliver bexosdan shikast yemasligi uchun uning devorlari, shifti va tagiga qalin, yumshoq namat qoqilgan edi.

Eshigidagi qulf Gulliverning alohida iltimosi bilan buyurtirib ishlangan: u uyiga bironta g'alamis sichqon yoki ochko'z kalamush kirib qolishidan juda qo'rqardi. Bir necha muvaffaqiyatsizliklardan so'ng chilangar nihoyat qachon bo'lmasin yasashiga to'g'ri kelgan barcha qulflardan eng kichigini yasab berdi.

Vaholanki, Gulliver o'z yurtida bunaqangi hajmdagi qulfni umrida bir martagina ko'rgan edi. U egasi xasisligi bilan dong chiqargan badavlat xonadonning darvozasida osilib turardi.

Qulfning kalitini Gulliverning o'zi cho'ntagida olib yurar, chunki Glyumdalklich bunday ushoqqina buyumni yo'qotib qo'yishdan qo'rqar sdi. Unga kalitning nima ham hojati bor edi? Eshikdan bari bir kirolmasdi, naychada nima bo'layotganini ko'rish yoki u yerdan Gulliverni olib chiqish uchun esa tomni ko'tarsa bas edi.

Qirolicha Grildrigining turar joyigina emas, yangi kiyimi vajidan ham g'amxo'rlik ko'rsatdi.

Unga mamlakatda topish mumkin bo'lgan eng yupqa shoyi matodan libos tikib berdilar. Ammo har qalay, bu mato eng qalin ingliz ko'rpsidan

ham dag'al ediki, Gulliver unga ko'nikkuncha juda qiynaldi. Libos urfga ko'ra tikilgan: cholvori eronchaga, kamzuli esa xitoychaga o'xshab ketardi. Bu tariqa bichim unga juda ma'qul tushdi. Libosni mutlaqo qulay va sipo deb topdi.

Qirolicha bilan uning qizlari Gulliverni shunday yaxshi ko'rib qoldilarki, hech qachon usiz ovqatlanmasdilar.

Qirol stolida qirolichaning chap tirsagi yaqinida Gulliver uchun stol va stul qo'yib berardilar. Ovqatlanish vaqtida unga enagachasi Glyumdalklich qarashardi. Unga vino quyib berar, likopchalarda ovqat olib qo'yar, uni bittayarimta stol-stuli bilan birga ag'darib yerga tushirib yubormasin, deb ko'z-quloq bo'lib turar edi.

Gulliverning o'ziga maxsus kumush servizi – likopchalari, laganlari, suyuq osh, qayla, salat turadigan idishlari bor edi.

Albatta, qirolichaning idish-tovoqlariga qaraganda bu serviz o'yinchoqdek ko'rinar, ammo u juda puxta yasalgan edi.

Ovqatdan so'ng likopcha, lagan va tovoqlarni Glyumdalklichning o'zi yuvib artar, keyin esa kumush qutichaga solib qo'yar edi. Bu qutichani hamisha cho'ntagida olib yurardi.

Qirolicha Gulliverning ovqat yeyishini juda qiziqish bilan kuzatib turardi. Ko'pincha o'zi uning likopchasiga bir parcha mol go'shti yoki parranda go'shti solib qo'yar, har qanday uch yoshli go'dak bir yamlashdayoq yutib qo'ya qoladigan luqmani bamayli xotir yeb bo'lgunicha jilmaygancha ko'z uzmay o'tirardi.



Gulliver esa qirolicha bilan ikki malikaning ovqatlarini qanday tushirayotganlarini beixtiyor vahimasi kelganча kuzatardi.

Qirolicha ko'pinча ishtaha yo'qligidan shikoyat qilar, ammo shunga qaramay, ovqat vaqtida shunday bir bo'lak go'shtni og'ziga tiqardiki, bu o'roq o'rib bo'lgan bir to'da ingliz fermerining ovqatlanishi uchun bemalol yetib ortardi. Gulliver qirolichaning oddiy kurkadan to'qqiz barobar katta bulduruq qanotini g'ajiyotganini, qishloq noniga ikki barobar keladigan bir burda nonni tishlayotganini ko'rib turishga to ko'nikkunicha ko'zlarini chirt yumib olardi. Qirolicha oltin qadahdagi vinoni bir simirishda ichar, qadahga esa bir bochka vino ketar edi. U ovqatlanganida ishlatadigan pichog'i bilan sanchqisi chalg'idan ikki barobar katta edi. Bir gal Glyumdalklich Gulliverni yemakxonaga olib kirdi va birvarakayiga tozalab yaltiratib qo'yilgan bir to'da pichoq bilan sanchqini ko'rsatdi. Gulliver ularga xotirjam qarab turolmadi. Pichoqlarning yaltiroq tig'lari va sanchqilarning xuddi nayzadek uzun-uzun tishlarini ko'rarkan titraб ketdi.

Bundan qirolicha qah-qahlab kulib yubordi va Grildrigidan so'radi:

– Sening hamma yurtdoshlaring shu qadar qo'rzoqmiki, bunday oddiy pichoqni ko'rishi bilan titroqqa tushsa, pashshadan taraqaylab qochsa?

Bir neча pashsha g'o'ng'illagancha Gulliverning stoliga uchib kelgan kezlarda u vahima bilan o'rnidan sapchib tursa qirolichaning hamisha kulgisi qistardi. Uning uchun ko'k

targʻoqdek keladigan bu katta koʻzli bahaybat hasharotlar aslida chivindek koʻrinmasa-da, Gulliver ulardan jirkanmay, gʻijinmay turolmasdi. Bu xira, ochkoʻz maxluqlar uni xotirjam ovqatlanishiga qoʻymasdi. Ular uning likopchasiga iflos panjalarini tiqardi. Boshiga qoʻnib, chaqardi-da, etini qonatardi.

Avvaliga Gulliver ulardan qanday qutulishni bilmay yurdi, haqiqatan ham bu ilashqoq, surbet sullohlardan toʻgʻri kelgan tomonga qochishga tayyor edi. Ammo keyin oʻzini qoʻriqlash yoʻlini topdi.

Ovqatlangani otlanayotganda dengiz xanjarini ola chiqadigan, pashshalar yaqiniga uchib keldi deguncha oʻrnidan sapchib turib, havodayoq shartta-shartta nimtalab tashlaydigan boʻldi.

Qirolicha bilan malikalar bu jangni ilk marta koʻrganlarida zavqlari kelib, shu qadar qoyil qoldilarki, buni qirolga gapirib berdilar.

Ertasiga qirol Grildrigning pashshalar bilan qanday jang qilishini koʻrish uchun ataylab ular bilan birga ovqatlandi. Shu kuni Gulliver xanjari bilan bir necha katta pashshani chopib tashladi, qirol uni jasurligi va epchilligi uchun maqtadi.

Ammo pashshalar bilan olishish – bu hali uncha mashaqqatli ish emas edi.

Bir kuni Gulliverning dahshatliroq raqib bilan kurashda chidash berishiga toʻgʻri keldi. Bu ajoyib yoz ertalaridan birida sodir boʻldi.

Glyumdalklich Gulliver toza havodan nafas olsin, deb u turgan qutichagani deraza rafiga qoʻydi. U uyini baʼzan qush solingan qafasni ilib qoʻyishlariga oʻxshab derazadan tashqaridagi

qoziqqa ilib qo'yishlariga hech qachon izn bermasdi.

Uychasidagi barcha derazalar-u eshiklarni ochib qo'yib, Gulliver kresloga o'tirganicha ovqat yeya boshladi. Uning qo'lida murabbo solingan kattakon bir somsa bor edi.

Daf'atan xonaga shovqin qilib vazillaganicha yigirma chog'li ari uchib kirdiki, go'yo bir yo'la yigirmata jangovor shotland na'masi chalinib ketgandek bo'ldi. Arilar shirinlikka juda o'ch bo'ladilar, murabbo isini uzoqdan sezishgan shekilli. Ular bir-birlarini surib-itarib, Gulliverga tashlandilar-da, somsasini tortib olib, uni bir zumdayoq burda-burda qilib talay ketdilar.

Quruq qolganlari esa Gulliverning tepasida quloqlarini bitirgudek vazillagan ko'yi uchib, dahshatli nishlari bilan tahdid soldilar.

Ammo Gulliver qo'rqoqlar toifasidan emasdi.

U o'zini yo'qotib qo'ymay, qo'lga qilichini oldida, qarochilarga tashlandi. To'rttasini o'ldirdi, qolganlari qochib qoldi.

Shundan so'ng Gulliver deraza va eshiklarni yopib, sal nafasini rostlagach, dushmanlarining jasadlarini ko'zdan kechirishga kirishdi.

Arilar yirikroq qarqurdek kelardi. Ularning ninadan ham uchli nishlari Gulliverning qalamtaroshidan ham uzun ekan. Xayriyatki, bu zaharli tig'larning zarbiga chap bergani!

Gulliver to'rttala arini ehtiyot bilan sochiqqa o'radi-da, komodining pastki tortmasiga solib qo'ydi.

– Qachon bo'lmasin menga vatanimga qaytib borish nasib etsa, – dedi u o'ziga-o'zi, – bularni o'zim o'qigan maktabga sovg'a qilaman.

## VIII

Darozlar mamlakatidagi kunlar, haftalar va oylar jahondagi barcha boshqa o'lkalardagiga qaraganda uzun ham, qisqa ham emas edi. Ular xuddi boshqa joydagilarga o'xshab bir-birlarini quvlaganча o'tib borardilar.

Bora-bora Gulliver atrofida daraxtlardan baland odamlarni, tog'lardan baland daraxtlarni ko'raverib ko'nikib ketdi. Bir kuni qirolicha uni kaftiga oldi-da, u bilan birga oyna oldiga bordi. Unda ikkovlari boshlaridan oyoqlarigacha ko'rinib turardilar.

Gulliver beixtiyor kulib yubordi. Nazarida qirolichaning bo'yi xuddi dunyodagi hamma odamlarning bo'yiga o'xshagan oddiygina, uning o'zi esa aslidagidan kam deganda o'n ikki marta kichkina bo'lib qolgandek tuyulib ketdi.

Bora-bora odamlar uni ko'rish uchun ko'zlarini qisinqirab qarashlariga, gapini eshitish uchun qo'llarini quloqlariga olib borishlaridan taajjublanmay qo'ydi.

Og'zidan chiqadigan har qanday so'zi darozlarga kulgili va g'alati tuyulishi, nechog'li jiddiy mulohaza yuritsa ular shu qadar qah-qahlab kulishlari mumkinligini u oldindan bilib turardi. Buning uchun ulardan xafa bo'lmaydigan bo'lib qolgan, faqat o'kinch bilan shunday deb o'ylardi: «Ehtimolki, uyimdagi zarhal qafasda yashaydigan jinqarcha qush siyosat-u fan haqidagi nutq so'zlagudek bo'lsa mening ham kulгим qistashi mumkin edi-ku».

Darvoqe, Gulliver taqdiridan nolimasdi. Poytaxtga kelib qolganidan buyon turmushi chakki emasdi. Qirol bilan qirolicha Grildriglarini sevar, saroy a'yonlari esa unga g'oyatda iltifot bilan qarar edilar.

Saroy a'yonlari qirol-u qirolicha sevadigan kimsalarga doimo iltifot bilan qaraydilar.

Gulliverning birgina dushmani bor edi. G'am-xo'r va mehribon Glyumdalklich tarbiyasidagi jaji odamni nechog'li hushyorlik bilan qo'riqlamasin, ammo bari bir ko'pgina ko'ngilsizliklardan ehtiyot qilolmadi

Bu dushman qirolichaning pakanasi edi. Gulliver paydo bo'lgunicha u butun mamlakat bo'ylab eng kichkina odam hisoblanardi. Uni yasantirar, parvarishlar, qo'pol hazillari-yu yoqimsiz tantiqliklarini kechirar edilar. Ammo Gulliver qirolichaning go'shasidan joy olganidan beri qirolicha ham, barcha saroy a'yonlari ham pakanani hatto nazarga ilmay qo'ydilar.

U saroyda qovog'i soliq, g'ijingan holda yurar, hammadan ko'proq esa, tabiiyki, Gulliverdan achchiqlanar edi.

U o'yinchoq odamning stolda turib olgancha qirolichaning chiqishini kuta turib a'yonlar bilan bemalol suhbatlashayotganiga xotirjam qarab turolmasdi.

Surbetlaracha zaharxanda bilan basharasini burishtirgan ko'yi pakana qirolichaning yangi erkasini kalaka qila boshlar edi. Ammo Gulliver bunga parvo qilmas, uning har bir haziliga unikidan ikki barobar zo'rrog'i bilan javob berardi.

Shundan keyin pakana boshqacha yoʻl bilan Gulliverning gʻashiga tegishni oʻylay boshladi.

Shunday qilib, bir kuni tushlik vaqtida u Glyumdalklich nima ish bilandir xonaning narigi tomoniga ketgan daqiqadan foydalanib, qirolicha kreslosining suyanchigʻiga chiqdi-da, hech qanday xavfdan xabarsiz, stolida bamaylixotir oʻtirgan Gulliverni shartta ushladi-yu qaymoq toʻla kumush tovoqqa uloqtirib yubordi.

Gulliver otilgan toshdek choʻkib ketdi, yovuz pakana xonadan ura qochib chiqib, qandaydir qorongʻi kavakka biqindi.

Qirolichaning shu qadar kayfi uchib ketdi-ki, hatto Gulliverga jimjilogʻining uchinimi yo choy qoshiqnimi uzatish esiga kelmadi. Shoʻrluk Gulliver oppoq quyuq toʻlqinlarda tipirchilardi, ehtimolki, yaxdek sovuq qaymoqdan bir togʻorachasini ichib yuborgan boʻlsa ham ajab emasdi, ana shundan keyingina Glyumdalklich yugurib keldi. Uni shartta tovoqdan olib, sochiqqa oʻrab qoʻydi.

Gulliver tezda isib ketdi, kutilmagan vanna unga uncha shikast yetkazmadi.

U yengilgina tumov bilan qutuldi, ana oʻshandan keyin qaymoqqa hatto koʻzi tushsa ham koʻngli agʻdariladigan boʻldi.

Qirolichaning gʻoyatda gʻazabi oshdi, ilgarigi erkasini qattiq jazolashlarini buyurdi.

Pakanani jonidan oʻtkazib savaladilar va Gulliver choʻmilib chiqqan bir tovoq qaymoqni zoʻrlab ichirdilar.

Shundan keyin pakana ikki haftacha binoyidekkina yurdi – Gulliverga sira taqilmadi, yonidan oʻtganda muloyimgina iljayib qoʻyardi.

Hammalari, hatto ehtiyotkor Glyumdalklich ham, Gulliverning o'zi ham – undan xavotir olmaydigan bo'lib qoldilar.

Aslida esa pakana baxtli raqibidan qutulish uchun qulay payt poylab yurgan ekan.

Bu qulay payt avvalgi galdek yana tushlik paytiga to'g'ri keldi.

Qirolicha likopchasiga ilikli suyakni oldi-da, iligini qoqib yegach, likopchani chetga surib qo'ydi.

Shu vaqtda Glyumdalklich Gulliverga vino quyib berish uchun bufetga qarab ketgan edi. Pakana stolga pisib keldi-da, Gulliver hushini yig'ib ulgurguncha bo'lmay uni bo'shagan ilik suyagiga kiftigacha tiqdi-qo'ydi.

Yaxshiyamki, suyak sovib qolgan ekan. Gulliver kuymadi. Bexosdan yuz bergan bu ko'ngilsizlikdan ranjib, yig'lagudek bo'ldi.

Hammadan ham alam qiladigan joyi shunda ediki, qirolicha bilan malikalar uning g'oyib bo'lganini hatto payqamay, kanizaklari bilan bamaylixotir gap sotishda davom etdilar.

Gulliverga esa ularni yordamga chaqirgisi, suyakdan tortib olishlarini so'ragisi kelmasdi. Bu unga nechog'li ozor bo'lsa ham churq etmaslikka ahd qildi. «Suyakni itga tashlamasalar bo'lgani!» deb o'ylardi u. Biroq, baxtiga stolga kuvachada vino ko'targan Glyumdalklich qaytib keldi.

Yalt etib qarasaki, Gulliver joyida yo'q, jon holatda uni qidirishga kirishdi. Qirolning yemakxonasi shunaqangi to's-to'polon bo'lib ketdiki! Qirolicha, malikalar va kanizaklar sochiqlarni olib silkitishga, tovoqlar, stakanlar va





qayladonlarni qarashga kirishdilar. Hammasi behuda: Grildrig nom-nishonsiz g'oyib bo'lgan edi. Qirolicha iztirobda edi. Alamini kimdan olishini bilmas, bunga sari battar achchig'lanar edi. Kichik malika Gulliverning suyakdan xuddi daraxtning kavagidan chiqib turgandek boshini ko'rib qolmasa bu voqea nima bilan tugashi noma'lum edi.

– Ana ul Ana ul – deb qichqirdi malika. Bir daqiqadan keyin Gulliverni suyakdan tortib oldilar.

Qirolicha bu mudhish qilg'ilikning sababchisi kim ekanligini darhol fahmladi.

Pakanani yana savalashdi, Gulliverni esa enagachasi yuvintirib kiyintirgani olib ketdi.

Shundan so'ng pakanaga qirol oshxonasida qorasini ko'rsatmaslikni tayinladilar. Gulliver dushmanini ancha vaqtgacha ko'rmadi, uni faqat bir kuni bog'da uchratib qoldi.

Bu shunday yuz berdi. Issiq kunlardan birida Glyumdalklich Gulliverni boqqa olib chiqib, soya-salqinda dam olgani qo'yib yubordi.

Gulliver yoqasida o'zi yoqtirgan pastak olma daraxtlari tizilgan yo'lka bo'ylab keta boshladi.

Bu daraxtlar shu qadar kichik ediki, Gulliver boshini orqaga tashlaganicha ularning uchlarini bemalol ko'ra olardi. Ulardagi olmalar, odatdagiga ko'ra, katta daraxtlardagidan ham yirikroq edi. Muyulishga yetganda Gulliverning qarshisidan daf'atan pakana chiqib qoldi. Gulliver o'zini tutib turolmay, unga iljayib qaraganicha shunday dedi:

– Bu qanday mo'jiza bo'ldil Pakana – pakana daraxtlar orasida yuribdi-ya. Bunday g'aroyibotni har kuni ham ko'ravermaysan.

Pakana unga biron narsa deb javob bermadi, Gulliverga yanib qarab qo'ya qoldi. Gulliver esa o'tib ketdi. U bir qadam ham yurmagan edi, daraxtlardan biri silkinib, kattaligi pivo bochkasi-dek keladigan bir talay olma Gulliverning ustiga tasira-tusur yog'ila boshladi.

Olmalardan biri yag'riniga kelib tushib yiqitib yubordi, u yerga uzala tushgancha boshini qo'llari bilan yashirdi. Pakana esa qattiq qah-qahlab kulgancha bog'ning etagiga qarab qochdi.

Gulliverning dodlab qichqirganini va pakana-niing tahqirona qah-qahasini Glyumdalklich eshitdi. U o'takasi yorilgudek bo'lib Gulliverning oldiga yugurib chiqdi-da, uni uyga olib kirib ketdi.

Bu gal Gulliverning bir necha kun o'rnidan turmay yotishiga to'g'ri keldi, darozlar mamlakatida o'sadigan daraxtlardagi yetilib turgan olmalar unga shu qadar shikast yetkazgan edi.

Nihoyat u oyoqqa tursa, pakana saroydan allaqachon ketgan ekan.

Glyumdalklich bularning hammasi to'g'risida qirolichaga xabar bergan, qirolicha esa pakanadan shunday achchig'langan ediki, uni boshqa ko'rgisi kelmay qolgan, hatto bir asilzoda xonimga berib yuborgan edi.

## **IX**

Qirol va qirolicha o'qtin-o'qtin o'z mamlakatlari bo'ylab sayohat qilishar, odatda Gulliver ularga hamroh bo'lib borar edi.

Ana shu sayohatlar vaqtida nega hech kim hech qachon Brobdingneg davlati haqida eshitmaganini tushundi.

Darozlar mamlakati katta yerdan tog' tizmalari ajratib turgan bepoyon yarim orolda joylashgan bo'lib, bu tog'lar shu qadar balandki, ulardan oshib o'tishning mutlaqo imkoni yo'q edi. Ular tik, seruchurum, oraliqlarida ko'plab harakatdagi vulqonlari bor. O'lik lava oqimlari va kul-to'zon bulutlari bu mahobatli tog' tizmasining yo'lini to'sib turadi.

Yarim orolning qolgan uch tomonini okean o'rab olgan. Ammo yarim orolning qirg'oqlarini shu qadar ko'p serqirra qoyalari qoplab olganki, bu yerda dengiz ham shu qadar dolg'ali bo'lib, hatto eng tajribali dengizchining ham Brobdingneg sohillariga kelib tushishi mahol edi.

Faqat Gulliver kelayotgan kemagina qandaydir baxtli tasodif tufayli bu daxlsiz qoyalarga yaqinlashishga muyassar bo'lgan edi.

Odatda bu huvillab yotgan yoqimsiz qirg'oqlarga hatto majaqlangan kemalarning parchalari ham oqib kelmaydi.

Baliqchilar bu yerlarda kulbalar ham qurmaydilar, to'rlarini ham yoymaydilar. Dengiz baliqlarining hatto eng yiriklarini ham mayda, serqiltanoq deb hisoblaydilar.

Taajjublanadigan joyi yo'q! Bu yerga dengiz baliqlari yiroqlardan – hamma tirik maxluqlar Brobdingnegdagiga qaraganda anchagina mayda bo'ladigan joylardan kelib qoladi. Mahalliy daryolarda esa katta akuladek gulmohi bilan olabug'a uchrab qoladi.

Darvoqe, dengiz dovullari sohil bo'yidagi qoyalar tomon kitlarni surib kelgudek bo'lsa, baliqchilar ba'zan ularni to'r bilan tutadilar.

Gulliver kunlardan bir kuni bir yosh baliqchining yirikkina kitni kiftiga o'ngarib kelayotganini ko'rgan edi.

O'sha kitni keyin qirol dasturxonini uchun sotib olishgan, pishirilgach turli ziravorlar solingan qayla bilan katta laganda tortilgan edi.

Kit go'shti Brobdingnegda tansiqlik hisoblansa-da, qirolga ham, qirolichaga ham yoqmadidi. Ular daryo baliqlari mazaliroq, moyliroq ekanligini aytdilar.

Yoz bo'yi Gulliver darozlar mamlakatini boshdan-oyoq aylanib chiqdi.

U safarda qulay yurishi, Glyumdalklich katta qutining og'irligidan toliqib qolmasligi uchun qirolicha yo'l kabinetini yasattirdi.

Bu eni-bo'yi atigi o'n ikki qadam keladigan to'rt burchakli quti edi. Uch tomondagi devoriga derazalar o'rnatilib, ularga yengilgina sim panjaralar qoplangan edi.

To'rtinchi, yopiq devoriga ikki tomonidan tunuka tasma qoqilgan edi.

Agar Gulliver karetda emas, otda ketgisi kelib qolsa, suvori qutini tizzasidagi yostiqlikka qo'yardi-da, haligi tasmalardan serbar qayishni o'tkazib, kamariga taqib olardi.

Gulliver derazadan derazaga o'tib, tevarakatrofni uch tomondan tomosha qilib ketishi mumkin edi.

Qutichada yo'l yotog'i – shiftga osilgan gamak, ikkita stul va komod bor edi. Bu buyumlar hammasi yo'lda silkinganida qulab yoki ag'darilib

ketmasligi uchun tag taxtaga burama mix bilan oʻrnatib qoʻyilgan edi.

Gulliver bilan Glyumdalklich biror narsa xarid qilish yo shunchaki sayr qilib kelish uchun shaharga tushadigan boʻlsalar, Gulliver yoʻl kabinetiga kirib olar, Glyumdalklich esa ochiq taxtiravonga chiqib, Gulliver turgan qutini tizzasiga olib oʻtirardi.

Toʻrt xizmatkor ularni Lorbrulgrud koʻchalari-dan bamaylixotir olib oʻtar, taxtiravon orqasidan esa bir talay xaloyiq ergashib borar edi. Hamma qirol Grildrigini tekin tomosha qilgisi kelardi.

Vaqtivaqti bilan Glyumdalklich xizmatkorlarga toʻxtashni buyurar, Gulliverni qutichadan olib, qiziquvchilar bemalol koʻrib olishari uchun uni kaftida koʻtarib turardi.

Yongʻir yogʻib turgan boisa ishlari bilan borib kelish yoki sayr qilish uchun karetda yoʻlga chiqar edilar. Kareta gʻildiraklarga qoʻndirilgan olti qavatli uydek kelardi. Ammo hazrati oliyalarining karetalari karetdalar orasida eng kichigi edi. Qolganlari anchagina katta edi.

Hamisha juda qiziquvchan boʻlgan Gulliver Lorbrulgrudning turli-tuman diqqatga sazovor joylari-yu narsalarini maroq bilan koʻzdan kechirardi.

U qayerlarda boʻlmadi! Brobdingnegliklar gʻoyat faxrlanadigan bosh ibodatxonada ham, harbiy paradlar uyushtiriladigan katta maydonda ham, hatto qirol oshxonasi binosida ham boʻldi...

Uyga qaytishi bilan u shu ondayoq yon daftarini olib, taassurotlarini darrov qisqagina qilib yozib qoʻyardi.

Ibodatxonadan qaytib kelganidan keyin shularni yozgan edi:

*«Binosi haqiqatan ham hashamatli, zotan, bu yerda yashovchilarning aytishlaricha, qo'ng'iroqxonasi uncha baland emas. Balandligi bir chaqirimga ham yetmaydi.*

*Devorlari allaqanday mahalliy jinsga mansub, yo'nilgan toshdan ko'tarilgan. Ular juda qalin va mustahkam, yon darvozadan ichkarilab kirilganda qalinligi qirq sakkiz qadamga to'g'ri keladi. Chuqur tokchalarida ajoyib marmar haykallar turibdi. Ular tirik yurgan brobdingnegliklardan kam deganda bir yarim barobar baland. Men uyulib yotgan chiqindilar ichidan bir haykalning sinib tushgan jimjilog'ini topib oldim. Iltimosim bilan Glyumdalklich uni yonimga tikka qilib qo'ygan edi, bo'yi qulog'imdan keldi. Glyumdalklich mertik parchani ro'molchaga o'rab uyga olib keldi. Men uni kolleksiyamdagi boshqa buyumlarga qo'shib qo'ymoqchiman».*

Brobdingneg qo'shinlarining paradidan so'ng Gulliver shularni yozib qo'ydi:

*«Aytishlaricha, maydonga yigirma mingga yaqin piyoda va olti ming suvori yig'ilgan ekan, ammo men ularni sanab o'tirishimning hech iloji yo'q, bu armiya g'oyatda katta maydonni egallagan edi. Paradni uzoqroqdan tomosha qilishimga to'g'ri keldi, bo'lmasa men oyoqlardan boshqa narsalarni ko'rolmagan bo'lardim.*

*Bu juda ulug'vor manzara edi. Nazarimda, chavandozlar dubulg'alarining uchlari bulutga tegib turgandek tuyulardi. Yer esa otlarning tuyoqlari ostida guldirardi. Men hamma suvorilar komanda bilan qilichlarini yalang'ochlab havoda o'ynatganlarini ko'rdim. Agar kimki Brobdingnegda bo'lmagan bo'lsa, hatto bu manzarani tasavvur qilishga urinmay ham qo'ya qolsin. Osmon gumbazining hamma tomonlaridan bir yo'la olti ming chaqmoq chaqnadi. Taqdir meni qayerga tashlamasin, buni hech bir unutmayman».*

Qirol oshxonasi to'g'risida Gulliver jurnalda bir necha satrgina yozgan edi:

*«Men bu oshxonani qanday so'zlar bilan tasvirlashni bilolmadim. Agar men bu barcha qozonlar, xurmachalar-u tovalarni haqqoniy va odilona tarzda tasvirlaydigan bo'lsam, agar oshpazlar hind filidek keladigan cho'chqachalarni, mugizlari sershox daraxtdek kiyiklarni sixga tortib pishirayotganlarini so'zlab berishga intilsam vatandoshlarim menga ishonmasalar, bu hamma sayyohlarga odat bo'lib ketganidek mubolag'a qilayotibdi, desalar ham ajab emas.*

*Bordi-yu, men ehtiyot yuzasidan biron narsani kamitibroq yozsam unda brobdingneglarning hammasi qioldan tortib eng oxirgi oshpaz bolagacha mendan xafa bo'ladi.*

*Do'stlarning dilini og'ritgandan ko'ra indamay qo'ya qolgan yaxshi».*

## X

Ba'zan Gulliver yolg'iz o'zi qolgisi kelardi. Shunda Glyumdalklich uni boqqa olib chiqib, chuchmo'malar va lolalar orasida sayr qilgani qo'yib yuborardi. Gulliver shunday tanho sayr qilishni yoqtirar, ko'pincha bu katta ko'ngilsizliklar bilan tugar edi.

Bir gal Glyumdalklich Gulliverning iltimosi bilan uni yashil maysazorda yolg'iz qoldirib, o'zi muallimasi bilan bog' etagiga qarab ketdi.

Tuyqusdan bulut bosib kelib, yerga shiddat bilan qalin do'l yog'di. Shamolning birinchi epkiniyoq Gulliverni yiqitib yubordi. Tennis to'pidek do'llar a'zoyi badaniga kelib urila boshladi. To'rt oyoqlab emaklaganча badyon ekilgan jo'yakka arang yotib oldi. U yerda yerga biqinganча qandaydir yaproqni yopinib, havo susayishini kutib yotdi.

Bo'ron tingandan keyin Gulliver bir necha do'lni chamalab o'lchab ko'rди-da, bular boshqa mamlakatlarda ko'rgan do'llaridan bir ming sakkiz yuz marta kattaroq va og'irroq ekaniga qanoat hosil qildi.

Bu do'llar Gulliverga shunaqangi kelib urilgan ediki, a'zoyi badani mo'mataloq bo'lib ketgan, uychasida o'n kungacha qimirlamay yotishiga to'g'ri kelgan edi.

Yana bir gal boshidan undan ham xavfliroq voqea o'tdi. U o'tloqdagi dastargul tagida o'zining qandaydir o'y-xayollariga berilganча yotgan edi, bog'bonlardan birining yoshgina, sho'x setter iti oldiga yugurib kelganini payqamay qolibdi.



Gulliver qichqirguncha ham bo'lmay it uni og'zi bilan ilib olgancha bog'ning ikkinchi tomoniga yugurib bordi-da, uni egasini oyog'i ostiga tashlab, quvongan ko'yi dumini likillata boshladi.

Yaxshi hamki it yuk ko'tarib yurishga o'rganib qolgan ekan. Gulliverni shu qadar ehtiyot bilan olib kelgan ediki, hatto kiyimiga ham tishi botmabdi. Biroq Gulliverni itining tishlari orasida ko'rgan bog'bon qo'rqqanidan o'takasi yorilib ketay dedi.

Gulliverni ikki qo'li bilan ehtiyotlab olib, o'zini qanday sezayotganini so'ray boshladi.

Qo'rqib ketib gangib qolgan Gulliverning tili gapga kelmasdi. U faqat bir necha daqiqadan keyin o'ziga keldi, shundan so'nggina bog'bon uni o'tloqqa olib borib qo'ydi. Glyumdalklich



allaqachon o'sha yerda turardi. Uning rangi o'chib ketgan, ko'zida yoshlari tinmas, u yoqdan-bu yoqqa yugurgancha Gulliverni chaqirardi. Bog'bon ta'zim bilan janob Grildrigni unga topshirdi. Qizaloq shogirdini diqqat bilan ko'zdan kechirdi-da, uning beshikast, omon-esonligini ko'rgach yengil tortdi.

Ko'z yoshlarini arta turib, saroy bog'iga itini kiritgani uchun bog'bonga ta'na qila boshladi. Bog'bonning o'zi ham bundan ich-etini yerdi. U qasam ichib, yolvorardi:

- Bundan keyin hech qachon o'zimiznikimi, birovnikimi, bironta ham itni hatto bog'ning panjarasiga ham aslo yaqinlashtirmayman.

Glyumdalklich bekach bilan janob Grildrig bu hodisani hazrati oliyalariga aytmasalar bo'lgani.

Xullas, shunday qarorga keldilar.

Glyumdalklich og'iz ochmaslikka rozi bo'ldi, chunki qirolichaning undan qattiq achchig'lanishidan qo'rqardi, Gulliver esa saroy a'yonlari-yu mulozimlari kimningdir sho'x kuchugi uni xuddi bamisoli ojiz sichqondek tishida tishlab yurganini bir-birlariga aytib, ustidan kulishlarini istamasdi.

Ana shu voqeadan keyin Glyumdalklich Gulliverni bir daqiqqa ham yonidan nari jildirmaslikka qat'iy qaror qilib qo'ydi.

Gulliver uning bunday ahdidan allaqachonlardan beri xavotir olib yurardi, shuning uchun ham enagachasi yaqinida yo'qligida vaqti-vaqti bilan boshidan o'tib turadigan har xil maydachuyda voqealarni undan yashirardi.

Bir marta bog' tepasida uchib yurgan kalxat unga qarab tik sho'ng'idi. Ammo Gulliver dovdirab

qolmay, qilichini g'ilofidan sug'urdi-da, o'zini himoya qilgan cha butalar orasiga urib qoldi. Agar chaqqonlik bilan shu tariqa chap bermaganida kalxat uni changallagan cha ko'tarib ketishi turgan gap edi.

Yana bir marta sayr qilib yurganida Gulliver qandaydir do'nglikning tepasiga chiqib borishi bilan qo'qqisdan ko'rsichqon qazigan kavakka bor bo'yi bilan tushib ketdi.

U yerdan ne mashaqqatlar bilan chiqib olganini gapirib berishning o'zi mahol, ammo u chuqurdan, har qalay, birovning yordamisiz chiqib oldi, ana shu voqea to'g'risida birontaga churq etib og'iz ochmadi.

Uchinchi marta esa Glyumdalklichning oldiga oqsoqlanib kelgan cha, oyog'i sal qayrilib ketganini bahona qildi. Aslida yolg'iz sayr qilib yurganida xayoli qadr don Angliyasiga ketib, bexosdan shilliqqurtning chig'anog'iga qoqilib tushdi-da, to'pig'i sinishiga sal qoldi. Yolg'iz kezgan paytlarida Gulliver g'alati bir tuyg'uni kechirar: ham yayrar, ham vahima bosar, qayg'u chekar edi.

Hatto jinqarcha qushlar ham undan zarracha hayiqmasdi.

Ular bamaylixotir o'z ishlari bilan band bo'lar, yaqinlarida Gulliver mutlaqo yo'qdek, parvozsiz sakrar, tipirchilar, qurt-qumursqa topib yer edi.

Bir kuni qandaydir dadil ko'ktarg'oq bepisand chug'urlagan cha sho'rlik Gulliverning oldiga uchib keldi-da, qo'lidagi Glyumdalklich nonushta uchun bergan bir parcha somsani yulib qochdi.

Mabodo Gulliver bitta-yarimta qushni tutib olmoqchi bo'lsa, qush unga beparvogina

o'girilardi-da, boshinimi, cho'zib turgan qo'linimi cho'qishga tirishardi. Gulliver beixtiyor o'zini orqaga tashlardi.

Ammo bir marta u, har qalay chaqqonlik bilan bir yo'g'on kaltakni olib, qandaydir beso'naqay qushga mo'ljallab turib otgan edi, qush uzala tushganча o'lib qoldi.

Shundan keyin Gulliver uni dabdaba bilan ikki qo'llab bo'ynidan tutganча o'ljasini tezroq enagachasiga ko'rsatish uchun olib ketdi. Birdan qushga jon kirdi. Ma'lum bo'lishicha, u o'lmagan, kaltak zarbidan karaxt bo'lib qolgan ekan.

Mashak chirqillab yulqina boshladi. U Gulliverning boshi-yu, yelkalari-yu qo'llarini qanotlari bilan tarsillatib urardi. Tumshug'i bilan cho'qiyolmas, chunki Gulliver uni qo'llarini oldinga cho'zganча ushlab turar edi.

U qo'llari madorsizlanib, mashak yulqinib chiqib uchib ketishi mumkinligini sezib turardi. Ammo shu orada yugurib kelgan qirol xizmatkorlaridan biri joniga ora kirdi. U darg'azab mashakning unini o'chirib, ovchini o'ljasi bilan birga Glyumdalklich bekachning huzuriga yetkazdi.

Ertasiga qirolichaning amri bilan mashakni qovurib, Gulliverga tushlik vaqtida tortdilar.

Parranda oqqushdan yirikroq, go'shti esa qattiqroq ekan.

## XI

Gulliver o'zining avvalgi dengiz sayohatlari haqida qirolichaga o'qtin-o'qtin hikoya qilib berib turardi.

Qirolicha uning so'zlarini juda diqqat bilan tinglardi, bir kuni undan so'rab qoldi:

– Sen yelkan haydashni, eshkak eshishni bilasanmi?

– Men kema vrachiman, – deb javob berdi Gulliver, – butun umrim dengizda o'tgan. Yelkanlarni chinakam matroslardan chakki haydamayman.

– Qayiqda sayr qilging kelmayotibdimi, azizim Grildrig? O'ylaymanki, bu salomatliging uchun juda foydali bo'lardi, – dedi qirolicha.

Gulliver kulib qo'ya qoldi. Brobdnignegdagi eng kichkina qayiqlar ham tug'ilgan yurti Angliyadagi birinchi darajali harbiy kemalardan kattaroq, og'irroq edi. Bunday qayiqni eplay olishi to'g'risida so'z ham so'lishi mumkin emasdi.

– Bordi-yu, men senga o'yinchoq kema yasattirib bersam-chi? – deb so'radi qirolicha.

– Qo'rqamanki, hazrati oliyalari, uning ham taqdiri hamma o'yinchoq kemalarning taqdiridek bo'ladi: dengiz to'lqinlari uni ag'darib yuborib, pista po'choqdek oqizib ketadi!

– Men senga kemacha ham, dengiz ham yasattirib beraman.

O'n kun mobaynida o'yinchoqsoz usta Gulliver chizib bergan nusxaga qarab va uning ko'rsatmalari bilan barcha jihozlari shay, chiroyli, puxta qayiqcha yasab berdi.

Bu qayiqchaga rasmana odam zotidan bo'lgan sakkizta eshkakchi sig'ishi mumkin edi.

O'yinchoq qayiqchani sinab ko'rish uchun uni avval suv solingan jomashovga qo'yib yubordilar,

ammo jomashov azbaroyi tor bo'lganidan Gulliver eshkagini arang eshardi.

– G'am yema, Grildrig, – dedi qirolicha, – tez orada dengiz ham tayyor bo'ladi.

Darhaqiqat, bir necha kundan keyin dengiz tayyor bo'ldi.

Qirolichaning amri bilan duradgor uzunligi uch yuz qadam, eni ellik qadam, chuqurligi bir gazdan ortiqroq yog'och kosa yasadi.

Yog'och kosasining tirqishlarini puxtagina mumlab, saroydagi xonalardan biriga o'rnatdilar.

Har ikki-uch kunda suvini to'kib, xizmatkorlardan ikkitasi yog'och kosani yarim soatdayoq yangi suv bilan to'ldirib qo'yardi. Ana shu mo'jazgina dengiz bo'ylab Gulliver qayiqda sayr qilardi. Qirolicha bilan malikalar uning eshkaklarni qanday chaqqonlik bilan ishlatishini tomosha qilishni yaxshi ko'rardilar. Ba'zan Gulliver yelkan ko'tarar, kanizaklar esa yelpig'ichlari ko'magida goh yel berib turishar, goh bo'ron ko'tarishar edi. Ular charchaganlarida yelkanga mahramlar ufurishar, ko'pincha Gulliverning bunday shamolga bas kelishi juda qiyin bo'lib qolar edi. Sayr qilib bo'lganidan keyin qayiqni Glyumdalklich o'z xonasiga olib kirib ketar, selikib turishi uchun qoziqqa ilib qo'yar edi.

Bir kuni Gulliver yog'och kosada cho'kib ketishiga sal qoldi. Bu shunday yuz berdi. Glyumdalklichning muallimasi, keksa bir xonim Gulliverni ikki barmog'i bilan olib qayiqqa o'tkazmoqchi bo'ldi. Lekin shu vaqtda uni kimdir chaqirib qoldi. U o'girilayotib barmog'ini sal bo'shatgan edi, Gulliver qo'ldan sirg'alib chiqib

ketdi. Olti gaz balandlikdan yog'och kosaning labigami yoki taxta rafga qulab tushsa suvga g'arq bo'lishi yoki abjag'i chiqishi turgan gap edi-yu, baxtiga keksa xonimning uqali durrasidan chiqib turgan to'g'nog'ichga ko'ylagi bilan ilinib qoldi. U vahimadan g'ujanak bo'lgancha, to'g'nog'ichdan tushib ketmaslik uchun qimirlamaslikka tirishib muallaq osilib turardi.

Keksa xonim esa garangsib atrofiga alanglar, Gulliverning qayoqqa ketganini bilolmay hayron edi.

Shu payt epchil Glyumdalklich yugurib keldida, Gulliverni to'g'nog'ichdan ohista chiqarib oldi.

Shu kuni qayiqda sayr bo'lmadi. Gulliver o'zini noxush sezar, qayiqqa ham tushgisi kelmas edi.

Boshqa bir gal sayr vaqtida u chinakam dengiz jangida sabot ko'rsatishiga to'g'ri keldi.

Yog'och kosadagi suvni yangilab turishga tayinlangan xizmatkor negadir ko'rmay qolib chelakda kattakon yashil qurbaqa olib kelibdi. U chelakni yog'och kosaga to'ntkarayotganida suv bilan birga qurbaqani ham ag'dargancha chiqib ketibdi.

Yog'och kosaning tagiga biqingan qurbaqa Gulliverni qayiqqa o'tkazgunlaricha burchakda jimgina o'tirardi. Ammo Gulliver qirg'oqdan uzoqlashishi bilanoq u bir sakrashda qayiqqa chiqib oldi. Qayiq bir tomonga shunday og'ib ketdiki, u ag'darilib ketmasligi uchun Gulliver bor og'irligini solib ikkinchi tomonni bosib turishga tirishdi.

U manzilga tezroq yetib olish uchun eshkaklarga zo'r bergan edi, aksiga olgandek, qurbaqa

unga xalal berardi. Tevarakdagilar bezovta bo'lib qolganidan cho'chib ketgan qurbaqa qayiq bo'ylab orqa-oldinga irg'ishlay boshladi. U har gal sakraganida Gulliverni shilta-shalabbo qilardi.

Gulliver qurbaqaning shilimshiq, g'adir-budur terisiga tegib ketmaslik uchun tishini tishiga bosib ijirg'anardi. Qurbaqaning bo'yi zotdorgina sigirning bo'yicha kelardi.

Glyumdalklich odatdagidek shogirdining joniga ora kirish uchun yugurdi. Ammo Gulliver undan tashvishlanmasligini iltimos qildi. U qurbaqa tomonga dadil qadam tashlab, uni eshkak bilan urdi. Bir necha marta tushgan ajabtovur kaltakdan so'ng qurbaqa avval quyruq tomonga qochdi, keyin qayiqni mutlaqo tark etdi.

## XII

Yozning jazirama kunlaridan biri edi. Glyumdalklich qayoqqadir mehmondorchilikka ketgan, Gulliver esa yashigida yolg'iz o'zi qolgan edi.

Enagachasi Gulliverni hech kim bezovta qilmasligi uchun o'z xonasining eshigini qulflab ketgan edi. Yolg'iz qolgan Gulliver uychasining derazalari-yu eshiklarini lang ochib qo'ydi-da, kresloga o'tnashib o'tirib olgach, yo'l jurnalini ochib, pat qalamni qo'liga oldi.

Yopiq xonada u o'zini bus-butun xavf-xatarsiz sezdi.

Dafatan u nimaningdir deraza rafidan yerga sakrab tushib, Glyumdalklichning xonasi bo'ylab shovqin bilan yugurib, to'g'rirog'i hakkalab



o'tganini yaqqol eshitdi. Gulliveming yuragi urib ketdi.

«Xonaga eshik qolib derazadan tushadigan kimsa mehmon bo'lib kelmaydi», deb o'yladi u.

O'rnidan ehtiyot bilan ko'tarilib, yotog'ining derazasidan mo'raladi.

Yo'q, bu o'g'ri ham, qaroqchi ham emasdi. Bu saroydagi barcha oshpaz bolalarning erkasi xonaki maymun edi, xolos. Gulliver xotirjam bo'ldi-da, jilmaygancha uning kulgili irg'ishlashlarini tomosha qila boshladi.

Maymun Glyumdalklichning kreslosidan boshqa kresloga sakrab o'tdi, bir pasgina shkafning rafida o'tirdi, keyin esa Gulliverning uychasi turgan stolga sakrab tushdi.


Shundan keyin Gulliver yana qo'rqib ketdi, bu gal avvalgisidan qattiqroq qo'rqdi. U uyi ko'tarilib, yonboshlab qolganini sezdi. Kreslolar, stol va komod gursillagancha dumalab ketdi.

Bu gursillash maymunga juda yoqib qoldi, shekilli, u uyni ikki-uch marta dumalatib ko'rdi-da, keyin qiziqqancha derazadan mo'raladi.

Gulliver eng chetdagi burchakka biqinib, qimir etmay turdi.

«Eh, nega vaqtida karavot tagiga bekinib olmagan ekanman-a! – deb o'ylardi o'ziga-o'zi. – Karavot tagida bo'lsam ko'rolmasdi. Endi foydasi yo'q. Bordi-yu, bu joydan u joyga yuguribmi, hatto emaklab o'tmoqchi bo'lsam, meni ko'rib qoladi».

U imkoni boricha devorga qapishib oldi. Ammo maymun uni bari bir ko'rib qoldi. U ishshaygancha uychanning eshigidan panjasini tiqdi-da, Gulliverni ushlab olmoqchi bo'ldi.



Gulliver boshqa burchakka yugurib bordi-da, karavot bilan shkaf oralig'ida biqinib turdi. Ammo bu yerda ham dahshatli panjadan qutulolmadi.

U chap berib qochib qolmoqchi bo'ldi-yu ilojini topolmadi. Gullivening kamzuli etagidan

changallab ushlab olgan maymun uni tashqariga tortib chiqardi.

Qoʻrquib ketganidan Gulliver hatto baqirolmadi ham. Maymun esa uni xuddi enaga goʻdakni qoʻliga olganidek qoʻliga olib, tebrata va yuzlarini panjasi bilan silay boshladi. Aftidan uni maymunning bolasi deb oʻyladi, shekilli.

Xuddi shu daqiqada eshik taraqlab ochilib, xona ostonasida Glyumdalklich koʻrindi.

Maymun eshik taraqlaganini eshitdi. U bir sakrab deraza rafiga, rafdan sharafaga sakrab chiqdi, sharafadan esa tarnov orqali tomga oʻtib ketdi.

U uch oyoqlab emaklar, toʻrtinchi panjasida esa Gulliverni ushlab turardi.

Glyumdalklich jon holatdan qichqirib yubordi.

Gulliver uning tahlikali qichqirigʻini eshitdi-yu javob qaytarolmadi: maymun uni shunday siqib ushlagan ediki, arang nafas olardi.

Bir necha daqiqadan soʻng butun saroy oyoqqa turdi. Xizmatkorlar narvon va arqon olib kelgani yugurdilar. Saroyga tumonat odam yigʻilib ketgan edi. Odamlar boshlarini baland koʻtargan cha turar, barmoqlari bilan yuqorini koʻrsatar edilar.

Yuqorida tomning qoq belida maymun oʻtirardi. Bir qoli bilan Gulliverni bagʻriga bosib, ikkinchi qoʻli bilan ogʻzidan balo-battarlarni olib uning ogʻziga tiqardi.

Maymunlar hamisha lunjlarida chala chaynalgan ovqatni olib yuradilar.

Gulliver yuzini oʻgirib yoki tishini gʻijirlatib tursa, maymun uni shunaqangi shapatilar edi, beixtiyor, itoat etishga majbur boiardi.

Pastda turgan xizmatkorlar qotib-qotib kuli-shar, Gulliverning esa yuragi uvishar edi.

«Oxirgi daqiqam shu ekan-da!», deb o'ylardi u.

Kimdir pastdan turib maymunga tosh otdi. Tosh Gulliverning xuddi boshi ustidan g'izillab o'tib ketdi.

Undan keyin ikkinchi, uchinchi tosh o'tib ketdi... Yaxshi-ki, odamlar maymun bilan birgalikda qirol Grildrigini o'ldirib qo'yishlari mumkinligidan xavotir olgan saroy posbonlari-ning zobiti maymunga tosh otishni qat'iy qat'iy taqiqladi.

Nihoyat bino devoriga har tomondan bir necha narvon qo'yildi. Qirolning ikki mahrami bilan to'rtta xizmatkor yuqoriga chiqa boshladi.

Maymun darrov payqadiki, uni o'rab olishmoqchi, uch oyoqlab qochib qolishi mahol. Shu payt maymun Gulliverni tomga tashladi-da, bir necha irg'ishda qo'shni binoga yetib olib, uning tomidagi tuynukka kirib ketdi.

Sirg'anchiq qiya tomda uzala tushib qolgan Gulliver, shamol meni cho'p-xasdek uchirib ketadi, degan o'yda daqiqa sayin xavotir olib yotdi.

Ammo shu paytda mahramlardan biri narvonning yuqori pochasidan tomga chiqib olgan edi. U Gulliverni qidirib topib, cho'ntagiga soldida, eson-omon pastga olib tushdi.

Glyumdalklich quvonganidan terisiga sig'mas edi. U Gulliverni shartta oldi-yu uyiga qarab ketdi.

Gulliver esa uning kaftida xuddi mushuk ezg'ilagan sichqondek bo'lib yotardi. U nafas ololmas: maymun og'ziga zo'rlab tiqqan jirkanch sarqitdan nafasi chiqmay qolgan edi.

Glyumdalklich nima gapligini darrov payqadi. U kichkina, ingichka ninachasini oldi-da, maymun Gulliverning og'ziga tiqqan narsalarning hammasini nina uchi bilan avaylagan cha chiqarib tashlay boshladi.

Gulliver darhol yengil tortib qoldi. Ammo shu qadar qo'rqib ketgan, maymunni panjalari bilan shu qadar ezg'ilangan ediki, ikki haftagacha karavotida bosh ko'tarmay yotdi.

Qirol bilan saroy a'yonlari har kuni odam yuborib, sho'rlik Gulliverning sihat-salomatligidan xabar oldirib turishar, qirolicha esa uni shaxsan kelib ko'rib ketar edi.

U saroydagi a'yonlarning barchasiga istisnosiz ravishda saroyda hayvon ushlashni taqiqladi. Gulliverni o'ldirib qo'yayozgan maymunni yo'qotib yuborishni buyurdi.

Nihoyat, Gulliver sog'ayib o'rnidan turgach, qirol uni huzuriga chaqirtirib, kula-kula uchta savol berdi:

- Men shularni bilishga qiziqaman. Maymunning panjasida o'zingni qanday his qilding? Uning siylashlari ko'nglingga xush keldimi? Bunday hodisa o'z yurtingda yuz berib, seni cho'ntagida yerga olib tushadigai odam topilmasa unda nima qilarding?

Gulliver qirolning keyingi savoligagina javob berdi:

- Mening yurtimda maymunlar yashamaydi. Ularni ba'zan issiq mamlakatlardan olib keladilar, qafaslarda boqadilar. Mabodo birorta maymun qamalib yotgan joyidan chiqib olib menga tashlangudek bo'lsa uni bemalol bartaraf

qilardim. Bittagina maymunni emas, bo'yi rasman maymundan o'ntasini ham bartaraf qilardim. Aminmanki, agar shu maymun ham hujum qilgan vaqtida qo'limda patqalam emas, qilich bo'lganida buni ham yengardim. Mudhish maxluqning panjasiga bir martagina qilich sanchsam ola-olgunicha odamlarga hujum qilmaydi.

Shu gapning hammasini qo'lini qilichining qabzasiga qo'ygan ko'yi boshini baland tutib, ovozi boricha qat'iyat bilan aytdi.

Saroy a'yonlaridan birortasi uni qo'rqqoqlikda gumon qilishini sira ham istamasdi.

Ammo saroy a'yonlari uning nutqiga javoban baravariga shunday xushchaqchqlik bilan kulib yubordilarki, Gulliver beixtiyor, indamay qoldi.

U so'zlarini tinglab turganlarga razm solib chiqdi-da, odam o'zidan behad darajada baland kimsalarning hurmatini qozonishi mahol ekanini alam bilan o'yladi.

Gulliver keyinchalik boshqa zamonlarda yuksak zotlar – qirollar, gersoglar, akobirlar orasida bo'lgan kezlarida, zotan o'sha yuksak zotlar ko'pincha undan bir qarichcha pastroq bo'lsalar-da, bu fikr o'qtin-o'qtin xayoliga kelib turardi.

### XIII

Brobdingneg aholisi o'zini chiroyli xalq deb hisoblardi. Ehtimolki, shunday bo'lsa bordir-u, Gulliver esa ularni katta qilib ko'rsatuvchi oyna orqali ko'rayotgandek bo'lar, shuning uchun ham ular unga yoqmas edi.

Ularning terisi unga g'oyatda qalindek, g'adir-budur tuyular-u har bir tukni, har bir sepkilni yaqqol ko'rib turar edi. Lekin ko'rmaslikning ham iloji yo'q, ana o'sha sepkil likopchadek kelar, tuklar esa uchli tikandek tikrayib yoki taroqning tishidek terilib turar edi. Buni ko'rgan Gulliverning miyasiga kutilmagan alomat fikr keldi.

Bir kuni ertalab u qiroлга salom bergani kirdi. Bu paytda saroy sartaroshi qiroлning soqolini olmoqda edi. Hazrati oliylari bilan suhbatlasha turib u beixtiyor orasida temir sim parchalariga o'xshagan mo'ylar qorayib turgan sovun ko'pigiga qarab qo'yardi.

Sartarosh ishini tugatishi bilan Gulliver undan ko'pikli kosachani berishini iltimos qildi. Sartarosh bunday iltimosdan taajjublangan bo'lsa-da, uning iltimosini yerda qoldirmadi.

Gulliver ko'pik ichidan qirqta eng yo'g'on mo'yni tanlab oldi-da, derazaga quritgani qo'ydi. Keyin silliқ payraxa topib, taroqqa dasta yo'ndi.

Glyumdalklichning nina qutisidan olgan eng ingichka nina vositasida ehtiyot bilan yog'och dastada oralig'ini bir xil qilib qirqta torgina chuqurcha o'ydi-da, ana shu chuqurchalarga mo'ylarni o'rnatdi. Keyin hammasini bir tekis qilib kesdi-da, uchlarini qalamtarosh bilan ingichka qilib yo'nib qo'ydi.

Puxtagina ajoyib taroq bo'ldi, bundan Gulliver juda sevinib ketdi. Avvalgi tarog'ining deyarli hamma tishlari sinib ketgan, qayerdan yangi taroq topishini bilolmay garang edi. Brobdingnegda bunday ushoqday buyumni yasay oladigan bironta ham usta yo'q edi.

Hamma Gulliverning yangi tarog'ini qiziqish bilan tomosha qilardi, shunga ko'ra yana bironta buyum yasagisi kelib qoldi.

U qirolichaning joriyasidan hazrati oliyalarining to'kilgan sochlari yig'ib berishni iltimos qildi.

Anchagina soch yig'ilib qolganda Gulliver unga komod bilan kreslo yasab bergan o'sha duradgor-ga ikkita yengilgina yog'och stul yasab berishni topshirdi.

Duradgorni stullarning suyanchig'i bilan tagini o'zi yasashi haqida ogohlantirgach, Gulliver ustaga suyanchiq bilan tagining aylanasinu zich holda kichik-kichik qilib teshib berishni buyurdi.

Duradgor o'ziga buyurilgan hamma vazifani ado etgach, Gulliver ishga kirishdi. U g'amlab qo'ygan sochlardan eng pishiqlarini olib, ularni haligi teshiklardan o'tkazib, avval o'ylab qo'ygan nusxalarga muvofiq to'qidi.

Ingliz uslubidagi ajoyib to'qima stullar yuzaga keldi, Gulliver ularni qirolichaga tantana bilan topshirdi.

Qirolichaning sovg'adan zavqi-shavqi oshib ketdi. U stullarni mehmonxonasidagi stoliga qo'yib qo'ydi, ularni huzuriga kelganlar hammasiga ko'rsatardi. U Gulliverning qabullar vaqtida xuddi shunday stulda o'tirishini istardi, ammo Gulliver malikasining sochi ustida o'tirishdan mutlaqo voz kechdi.

Ana shu ishni tugatganidan keyin Gulliverning qo'lida qirolichaning anchagina sochi qolgan edi, hazrati oliyalarining ruxsati bilan u ulardan Glyumdalklichga nafis hamyon to'qib berdi. Hamyon bizda tegirmonda javdar olib boriladigan



qoplardan kichikroq, lekin Brobdingneg katta-katta vazmin pullarini olib yurishga yaramas edi. Ammo u chiroyli – bus-butun naqshindor, bir tomonida qirolicha nomining harfi zarhal mo'ʻy bilan, ikkinchi tomonida Glyumdalklich nomi bosh harfi kumushrang mo'ʻy bilan naqshlangan edi.

Qirol bilan qirolicha musiqani juda sevishar, ularning saroyida o'qtin konsertlar o'tkazilib turar edi.

Ba'zan musiqa oqshomlariga Gulliverni ham taklif etar edilar. Bu kezlarda Glyumdalklich uni uychasi bilan ko'tarib kelar, musiqachilar uzoqroqdagi bironta stolga qo'yib qo'yar edi.

Gulliver uychasidagi hamma eshik va derazalarni zichlab yopib parda-yu pardachalarni tushirib, quloqlarini barmoqlari bilan shartta bekitardi-da, kresloga o'tirib musiqa tinglardi. Ana shu ehtiyot choralarni ko'rmasa, darozlarning qattiq shovqinli musiqasidan quloqlari tom bitib qolgudek tuyulardi.

Unga klavikordga o'xshagan chog'roqqina asbobning tovushi ko'proq yoqardi. Bu asbob Glyumdalklichning xonasida turar, u shuni chalishni o'rganar edi.

Gulliverning o'zi ham klavikordni chakki chalmasdi, xullas, u qirol va qirolichaning ingliz qo'shiqlari bilan tanishtirgisi kelib qoldi. Bu ish oson ko'chmadi.

Klavikordning uzunligi oltmish qadamcha, har bir klavishning eni esa bir qadam kelardi. Bir joyda turgan ko'yi Gulliver to'rt klavishdan ortig'ini bosolmas, boshqalariga qo'li yetmas edi.

Shuning uchun o'ngdan chapga, chapdan o'ngga – yo'g'on tovushlardan ingichka tovushlarga, ingichka tovushlardan yo'g'on tovushlarga qarab yugurishi kerak edi. Klavikord uzungina emas, baland bo'lganligi uchun u yer bag'irlab emas, duradgorlar uning uchun maxsus, klavikordning uzunligiga moslab yasab bergan xarrak bo'ylab g'izillab borib kelardi. Klavikord bo'ylab orqa-oldinga yugura-yugura borib kelib turish juda toliqtirib qo'yar, darozlarning barmoqlariga mo'ljallangan klavishlarni bosish undan ham mashaqqatliroq edi.

Avvaliga Gulliver klavishlarni mushtlari bilan urib chalib ko'rmoqchi bo'ldi, bu qo'llarini shu qadar og'ritardiki, u ikkita kaltak yasab berishlarini iltimos qildi.

Sharning bir uchi yo'g'onroq klavishlarga tushgan vaqtda taraqlab ketmasligi uchun Gulliver kaltaklarning yo'g'on tomoniga sichqon terisi qopladi. Ana shu tayyorgarliklar tugallanganidan keyin qirol bilan qirolicha Gulliverni eshitgani keldilar.

Sho'rlik musiqachi qaro terga botganча kerakli klavishlarni kuchi boricha ura-ura klavikordning u uchidan bu uchiga yugurardi. Nihoyat, bolalik vaqtlaridan esida qolgan quvnoq inglizcha qo'shiq kuyini anchagina shaxt bilan chalib berishga muvaffaq bo'ldi.

Qirol bilan qirolicha juda mamnun holda chiqib ketdilar, Gulliver esa anchagacha o'ziga kelolmadi – bu tariqa cholg'u mashqidan keyin qo'llari-yu oyoqlari zirqirab og'rirdi.

## XIV

Gulliver qirol kutubxonasidan olingan kitobni o'qirdi.

U kitob o'qiydigan boshqa odamlarga o'xshab stolda o'tirib yoki qiya taxta oldida turib olib emas, kitobni yuqorigi satrdan pastki satrga olib tushadigan maxsus narvonda turib o'qirdi.

Uning uchun maxsus tayyorlab berilgan ana shu narvon bo'lmasa Brobdnignegning bahaybat kitoblarini o'qib chiqishi mahol edi.

Narvon uncha uzun emas – atigi yigirma besh pochali, har pochasing eni kitobning bir satriga to'g'ri kelar edi.

Satrdan satrga o'ta-o'ta Gulliver tobora pastga tushib kelar, sahifadagi oxirgi satrni yerda turib o'qir edi.

Sahifalarni varaqlashi uncha qiyin emas, chunki Brobdnigneg qog'ozi yupqaligi bilan ta'rifli edi. Darhaqiqat, qalinligi kartondan oshmasdi.

Gulliver bir mahalliy yozuvchining vatandoshlari so'nggi vaqtlarda maydalashib ketganligi haqidagi mulohazalarini o'qirdi.

Yozuvchi bir vaqtlar mamlakatida yashagan qudratli darozlar haqida hikoya qilib, zaif, pastak bo'lyi va mo'rt brobdnignegliklarga har qadamda xavf solayotgan kasalliklar va ofatlardan achchiq-achchiq shikoyatlanardi.

Bu mulohazalarni o'qiy turib, Gulliver yurtida ham shunga o'xshagan kitoblardan bir qanchasini o'qiganini esladi-da, jilmayganча o'ylay ketdi:

«Katta odamlar ham, kichik odamlar ham o'zlarining zaifliklari, mo'rtliklaridan nolishni

yoqtiradilar. Aslini olganda esa, ularini ham, bulari ham o'zlari o'ylaganchalik ojiz emaslar».

U oxirgi varaqni tugatib, narvondan pastga tushdi.

Shu payt xonaga Glyumdalklich kirib keldi.

- Biz o'tlanishimiz kerak, Grildrig, - dedi u. - Qirol bilan qirolicha dengiz sohiliga borisharkan, biz ikkalovimizni ham olib ketishmoqchi.

Dengiz sohiliga! Gulliverning quvonchdan yuragi urib ketdi. Dengizni ko'rmaganiga, to'fqinlarning bo'g'iq guldirashi-yu dengiz shamolining sho'x g'izillashini eshitmaganiga ikki yildan ziyod vaqt o'tgan edi. Lekin ana shu bir maromdagi sinashta sadolar kechalari bilan tushiga kirib chiqar, ertalablari g'amgin, tashvishli holda o'rnidan turar edi.

U darozlar mamlakatidan dengiz orqaligina chiqib ketishini bilardi.

Gulliver Brobdnigneg qirolining saroyida yaxshi umr kechirardi. Glyumdalklich uni xuddi mehribon enagadek parvarish qilardi. Saroy a'yonlari unga ochiq yuz bilan qarar, u bilan hangomalashish payida bo'lar edilar. Ammo dunyodagi barcha narsalar - pashshalardan o'zi qo'riqlayverishi, mushukdan tiraqaylab qochishi, bir tovoq suvda cho'kib ketish kabi tashvishlari Gulliverning me'dasiga tekkan edi!

Bitta-yu bitta orzusi yana bo'ylari o'zidek, eng oddiy odamlar orasi yashash edi.

Muttasil hamma senga yuqoridan turib qaraydigan jamiyatda yashash oson emas. Qandaydir noaniq ichki tuyg'usi Gulliverni bu gal buyumlarini ayniqsa puxtalab joylashga undadi.

U yo'lga ustki-ichki kiyimlari-yu yo'l xotiralari kundaligini emas, hatto Brobdingnegda to'plagan nodir buyumlar kolleksiyasini ham olib ketadigan bo'ldi.

Ertasiga ertalab qirol oilasi a'yonlari-yu xizmatkorlari bilan yo'lga tushdi.

Gulliver safar qutisida o'zini yaxshi his qilardi. Uning uchun ko'rpa-to'shak xizmatini bajarayotgan gamak shiftning to'rt burchagiga ipak arqon bilan osib qo'yilgan edi.

Gulliverning yashigini kamariga tang'ib olgan suvoriy lo'killab ketayotgan otini hatto ildamroq yo'rttirgan paytlarda ham osoyishta chayqalib borardi.

Gulliver iltimos qilib quti qopqog'ining xuddi gamak tepasidagi o'rta joyidan o'zining kafti kattaligida deraza ochdirdi, uni istagan vaqtda ochib-yopishi mumkin edi.

Kun isib ketgan soatlarda u yuqoridagi va yon tomonlardagi derazalarni ochib qo'yar, gamagiga cho'zilganча yengil shabadada osoyishta mizg'ir edi.

Ammo bu yelvizakda yotishlarning uncha xosiyati yo'q edi, shekilli.

Qirol va qirolicha o'z a'yonlari bilan sohildan o'n sakkiz milcha beriroqda, Flenflasnik shahri yaqinida joylashgan yozlik saroyiga yetib borgach, Gulliver o'zini juda yomon his qila boshladi. U qattiq shamollagan, juda toliqib qolgan edi.

Sho'rlik Glyumdalklichni esa yo'l urintirib, kasal qilib qo'yg'an edi. U ko'rpa-to'shak qilib yotishga, achchiq dorilar ichishga majbur bo'ldi.

Gulliverning bo'lsa mumkin qadar tezroq dengiz bo'yiga boraqolgisi kelardi. U dengiz bo'yidagi qumga yana qadam qo'yishi mumkin bo'lgan daqiqani mushtoqlik bilan kutardi.

Ana shu daqiqani yaqinlashtirish uchun Gulliver – jonajon enagachasidan uning qirg'oqqa yolg'iz borishiga ruxsat berishini iltimos qila boshladi.

– Dengizning sho'r havosi har qanday doriga qaraganda meni durustroq tuzatib yuboradi, – deb takrorlardi u.

Ammo enagachasi nima uchundir Gulliverni qo'yib yuborgisi kelmasdi. Uni har qanday yo'llar bilan shu sayrga bormaslikka undardi, nihoyat, uzoq iltimoslari-yu bahslardan keyingina ko'zi qiymay, yig'lay-yig'lay ruxsat berdi.

Qirolning mahramlaridan biriga Gulliverni qirg'oqqa olib borishni topshirib, undan ko'z uzmaslikni tayinladi.

Bola Gulliver turgan qutichani yarim soatcha ko'tarib bordi. Bu orada Gulliver deraza yonidan sira nariga ketmadi. U qirg'oq yaqin qolganini sezib turardi.

Nihoyat u kelib urilgan suvdan qorayib turgan toshlarni, dengizdan chiqqan ko'piklar yotgan, cho'zilib ketgan namxush qumloqni ko'rди.

U boladan qutichani bironta toshga qo'yishini iltimos qilib, deraza oldidagi stulga o'tirdi-da, yiroq-yiroqlarga cho'zilib, huvillab yotgan okeanga g'amgin tikila boshladi...

Ana o'sha yiroq-yiroqlardagi ufqda uch burchakli yelkanni shu qadar ko'rgisi kelardiki!.. Aqalli uzoqdan bo'lsa ham, aqalli bir zumgina

bo'lsa ham... Qandaydir qo'shiqni xirgoyi qilayotgan bola suvga baliqchilar kulbasidek keladigan toshlarni uloqtirar, suvning bunday qattiq shaloplashi Gulliverning o'ylashiga xalal berardi. U mahramga charchaganini, mizg'ib olmoqchi ekanligini aytdi. Mahram juda quvonib ketdi. U qutichaning qopqog'idagi derazasini yopgach, Gulliverga yaxshi tushlar ko'rib yotishini tiladi-da, qoyalarning tirqishlaridan qushlarning inlarini qidirish uchun chopqillagancha yugurib ketdi.

Gulliver chindan ham gamagiga yastandi-da, ko'zlarini yumdi.

Uzoq yo'l bosib charchagani, dengizning sarin havosi o'z asarini ko'rsatdi. U qattiq uxlab qoldi.

Daf'atan kuchli siltanishdan uyg'onib ketdi. U kimdir qutining qopqog'iga o'rnatilgan halqani tortqilaganini sezdi. Quti silkindi-da, g'izillagancha yuqorilab keta boshladi.

Gulliver gamagidan otilib ketishiga sal qoldi, ammo shu orada quti bir maromda ko'tarila boshladi-da, u osongina pastga sakrab tushib, deraza oldiga yugurib bordi.

Uning boshi aylanib ketdi. Tevarak-atrofida osmon-u bulutlarga ko'rinardi. Qirg'oq busbutun g'oyib bo'lgandek ko'rinmay ketgan edi.

Nima bo'ldi ekan? Gulliver tinglab turib, hamma gapni payqadi. Shamol shovqini orasidan keng yoyilgan qudratli qanotlarning silkinishini ilg'adi.

Aftidan qandaydir bahaybat qush Gulliverning uychasini ko'rib qolgan-u uni halqasidan ilib olgan qayoqqadir olib ketayotibdi.

Yog'och qutining unga nima hojati bor ekan?

Chamasi burgutlar toshbaqaning po'sti ostidagi muloyim go'shtini olib yeyish uchun po'stlarini chaqish maqsadida ularni toshga tashlab yuborganidek bu ham qutini qoyaga tashlab yubormoqchi, shekilli.

Gulliver yuzini qo'llari bilan bekitib oldi. O'lim unga hech qachon bu qadar yaqinlashib kelmagan bo'lsa kerak.

Shu daqiqada quti yana kuchli chayqalib ketdi. Yana chayqaldi. U burgut qiyqiriqlari va shunday shovqin eshitdiki, go'yo barcha dengiz shamollari boshi ustida to'qnashib qolgandek edi.

Bundan shu ayon ediki, Gulliverni ilib ketgan burgutga boshqa burgut hujum qilmoqda. Qaroqchi qaroqchining o'ljasini tortib olmoqchi.

Siltanish ketidan siltanish, zarba ketidan zarba yuz berardi. Quti qattiq shamolda qolgan lavhadek goh o'ngga, goh chapga borib kelardi. Gulliver esa u tomondan bu tomonga dumalab borib-kelar, ko'zlarini chirt yumgancha o'limni kutardi.

Quti birdan nechukdir g'alati siltandi-da, pastga qarab g'izillaganicha tushib keta boshladi... «Tamom!» deb o'yladi Gulliver.

## XV

Suvning shiddatli shaloplashidan Gulliverning qulog'i bitib qolay dedi, uycha esa bir daqiqacha zimziyo qorong'ilikka cho'mdi.

Keyin, u yengil chayqalgancha yuqoriga qalqib chiqdi, xonani asta-sekin kunduzgi yorug'lik yorita boshladi.



Devorlar boʻylab ilang-bilanglagancha yorugʻ sharpalar oʻynardi. Kayutalarning devorlarida bunday bezovta koʻlagalar illyuminatorga suv kelib urilganda yuz beradi.

Gulliver oʻrnidan turib, atrofiga alangladi. Ha, dengizda ekan. Tagida temir taxtachalar qoplangan uycha havoda muvozanatini yoʻqotmay suvga kelib tushganda toʻnkarilib ketmabdi. Ammo anchagina vazni boʻlgani uchun suvga choʻkib turardi.

Toʻlqinlar kam deganda derazalarni yarmigacha koʻtarilardi. Ularning qudratli zarbasi derazalarning oynalari sinib ketsa nima boʻladi? Ularni atigi yengilgina temir panjaralargina toʻsib turibdi-ya.

Xayriyatki, derazalar hozircha suvning tazyiqiga bardosh berayotibdi. Gulliver oʻzining suzuvchi istiqomatgohini diqqat bilan koʻzdan kechirdi. Baxtiga uychaning eshiklari tavaqali emas, oshiq-moshiqqa oʻrnatilmagan, yon tomonlariga surib ochilar edi. Ular suv oʻtkazmasdi. Ammo suv qutiga uning devorlaridagi koʻz ilgʻamaydigan qanday tirqishlardan oz-ozdan boʻlsa ham bari bir sizib kirmoqda edi.

Gulliver komodini titkilab, choyshabni uzun-uzun qilib yirtdi-da eplaganicha tirqishlarni bekitdi. Keyin stulga sakrab chiqdi-da, shiftdagi derazani ochdi. Bu ishni ayni vaqtida qilgandi: uycha shu qadar dim boʻlib ketgan ediki, Gulliverning nafasi tiqilib qolayozdi. Uychaga sarin havo kirdi-yu Gulliver yengil tortib nafas oldi.

Uning fikrlari ham yorishdi. Oʻtirgancha oʻyga toldi. Mana, nihoyat erkinlikka ham chiqib oldil


Endi hech qachon Brobdnignegga qaytib bormaydi. Eh, shoʻlik, ardoqli Glyumdalklichil! Uning holi nima kechar ekan endi?

Qirolicha undan gʻazablanib, qishlogʻiga qaytarib yuborsa kerak... Rosa mashaqqat tortadigan boʻldi. Besoʻnaqay yogʻoch qutida okean boʻylab behavoza, beeshkak tanho suzib yurgan oʻzidek kichkinagina ojiz odamning holi nima boʻlar ekan? Anigʻi shuki, birinchi kelgan katta toʻlqinning oʻziyoq oʻyinchoq uyini agʻdarib yuborib suvga toʻldiradi-da, qoyaga urib majaqlab tashlaydi.

Yoyinki, shamol uychasini to Gulliver ochidan tirishib oʻlgunicha okean boʻylab oqizib yurar. Eh, shunday boʻlmasin-da! Bashartiki, oʻladigan boʻlsa tezroq oʻlib qoʻya qolgani durust! Daqiqalar esa juda imillab oʻtardi. Gulliver dengizga tushib ketganidan buyon toʻrt soat oʻtgan edi. Ammo ana shu soatlar unga kecha-yu kunduzdan ham uzunroqdek tuyuldi. Gulliver uychaning devorlariga kelib urilayotgan bir maromdagi toʻlqinlarning shaloplashidan boshqa hech narsani eshitmasdi.

Birdan u gʻalati bir tovush eshitgandek boʻldi: qutining temir tasmalar qoqilgan yopiq tomonini nimadir tirnagandek tuyuldi. Shundan keyin quti bir tomonga qarab ildamroq suzib ketayotgandek sezildi.

Baʼzan uycha keskin siltanib ketar yoki burilar, oʻshanda u chuqurroqqa choʻmar, toʻlqinlar undan osha tushib yanada koʻmib yuborar edi. Suv jala boʻlib tomiga quyilar, vazmin tomchilar derazadan Gullivemning xonasiga otilib kirar edi.



«Nahotki kimdir meni shatakka olgan bo'lsa?», deb o'yladi Gulliver.

U xuddi shiftdagi deraza ostida, xona o'rtasiga o'rnatilgan stolga chiqdi-da, madad so'rab qichqira boshladi.

U o'zi bilgan barcha tillarda: inglizchada ham, ispanchada ham, gollandchada ham, turkchada

ham, liliputchada ham, brobdingnegchada ham qichqirib koʻrdi – ammo hech kim javob bermadi.

Shundan keyin u kaltak olib, uchiga kattakon roʻmol bogʻladi-da, kaltakni tuynukdan chiqargan koʻyi joni boricha silkiy boshladi. Biroq bu harakatlari ham natijasiz qoldi.

Ammo Gulliver uychasi gʻizillagancha oldinga qarab ketayotganini sezib turardi.

Toʻsatdan tasmali devor qandaydir qattiq narsaga borib urildi. Uycha bir-ikki marta qattiq chayqalib, soʻng toʻxtadi.

Tomdagi halqa sharaqladi. Keyin arqon gʻijirladi, uni halqadan oʻtkazishayotgandek edi.

Gulliveming nazarida uycha asta-sekin koʻtari layotgandek boʻldi. Haqiqatan ham shunday ekan! Xona anchagina yorishib qoldi.

Gulliver kaltakni yana chiqarib, roʻmolni silkitdi.

Boshi ustida nimadir taraqladi-da, kimdir inglizchalab qichqirdi:

– Hoy, qutidagi odam! Javob bering! Eshitamiz!

Gulliver hayajondan nafasi tiqila-tiqila javob berdi:

– Men bir baxtsiz sayohatchiman! Safarlarim vaqtida omonsiz uqubatlarni kechirdim, xatarlarga duch keldim. Nihoyat, siz vatandoshlarimni uchratganimdan baxtiyorman. Meni qutqarishlaringizni iltimos qilaman.

– Mutlaqo xotirjam boʻling! – deb javob berdilar yuqoridan. Sizning qutingiz ingliz kemasiga tutashtirilgan, hozir bizni duradgorimiz uning tomidan tuynuk ochadi. Sizga zina tushiramiz, suzuv qamoqxonangizdan chiqib kelaverasiz.

– Behuda vaqt ketkazib o‘tirishning hojati yo‘q,  
– deya javob berdi Gulliver. – Eng osoni – halqani  
barmoqqa ilintirib, qutini kemaga olib qo‘ya  
qolinglar.

Yuqoridagi odamlar kulib yuborishdi, g‘ovur-  
g‘uvur gapira ketishdi, ammo hech kim Gulliverga  
javob qaytarmadi. Keyin u arrani g‘iyqillashini  
eshitdi, bir necha daqiqadan keyin esa xonasining  
shiftida to‘rt burchakli kattakon tuynuk yorishib  
ko‘rindi.

Gulliverga zina tushirdilar. U avval uychasining  
tomiga chiqdi, keyin esa kemaga chiqib ordi.

Matroslar Gulliverni o‘rab olib, bir-birlariga gal  
bermay, uni kimligi, qayoqdanligi, suzuvchi uyida  
dengiz bo‘ylab qachondan buyon suzib yurgani,  
uni bu yerga nima uchun qamaganliklarini  
surishtira boshladilar. Gulliver esa ularga  
garangsigancha qarab turardi.

«Bu odamlar muncha ushoq! – deb o‘ylardi u.  
– Nahotki liliputlar orasiga tushib qolgan  
bo‘lsam?»

Kema kapitani mister Tomas Vilokoks Gulliver  
azbaroyi charchagan larzaga tushgani va  
garangsiganidan oyoq ustida arang turganini  
payqab, uni o‘z kayutasiga olib kirdi-da, o‘rniga  
yotqizib, miriqib dam olisni maslahat berdi.

Bu narsa zarurligini Gulliverning o‘zi ham sezib  
turardi. Ammo yaxshi uxlashdan oldin uychasida  
ipak gamak, stol, stullar, gilamlar, parda va  
anchagina alomat buyumlar qolganini aytdi.

– Agar mening uyimni shu kayutaga oldirib  
kelsangiz, men sizga nodir buyumlar  
kolleksiyamni bajonidil ko‘rsatardim.

Kapitan unga taajjub va ayanch bilan qaradida, kayutadan indamay chiqib ketdi. U mehmonini, kechirgan kulfatlari oqibatida aqldan ozgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Gulliver esa atrofidagi bu odamlar xuddi o'ziga o'xshagan kishilar ekanligi, endi hech kim uning uyini barmog'i bilan ko'tarolmasligi haqidagi fikrga hali ko'nikib ulgurmagan edi.

Biroq uyg'onganida uning barcha buyumlari kemada turardi.

Kapitan qutidan o'sha buyumlarni olib chiqish uchun matroslarni tushirib yuborgan, matroslar ham uning farmoyishini sidqidildan ado etgan edilar.

Afsuski, xonasidagi stol, stullar va komod uyning tag taxtasiga burama mix bilan o'rnatib qo'yilganini kapitanga aytish Gulliverning yodiga kelmasdi. Bundan mutlaqo bexabar matroslar jihozlarni ehtiyotsizlik bilan sug'urib olib ularga shikast yetkazibdilar.

Qolaversa, ish vaqtida ular uyning o'ziga ham shikast yetkazibdilar. Uning devorlari bilan tagida anchagina tirqishlar paydo bo'libdi-da, xonaga varillagancha suv kira boshlabdi.

Matroslar, kemada yarab qolar, deb qutidan bir necha taxta ko'chirib olar-olmas, uycha cho'kib ketibdi.

Gulliver buni ko'rmaganidan mamnun edi. Har qalay, g'ussali bo'lsa ham qancha-yu qancha kecha-kunduzlarni o'tkazgan uying g'arq bo'layotganini ko'rsang yuraging achishadi-da.

Shu kechasi u notinch uxlati: tushiga goh darozlar mamlakatidagi bahaybat arilar, goh

yig'layotgan Glyumdalklich, goh boshi ustida ishayotgan burgutlar kirib chiqqan bo'lsa-da, har qalay, uyqudan tiniqib turdi, kapitan bilan birga ovqatlanishga bajonidil rozilik berdi.

Kapitan mehmondo'st mezbon ekan. U Gulliverni xushnudlik bilan silar, Gulliver ham ishtaha bilan ovqatlanar, lekin stolda turgan ushoq likopchalar, laganlar, grafmlar va stakanlarni ko'rib kulgisi qistardi. Ularni o'qtin-o'qtin qollalariga olib, jilmayganча bosh chayqardi.

Kapitan buni payqadi. Gulliverga g'amgin qaraganча, undan so'radi:

- Sihat-salomatligingiz joyidami? Uqubat, kulfatlardan es-hushingizga qusur yetmadimi?

- Yo'q, - dedi Gulliver, - soppa-sog'man. Ammo bunday kichkina odamlar bilan kichkina buyumlarni ko'rmaganimga anча bo'ldi.

Shundan keyin u kapitanga darozlar mamlakatida qanday yashaganini batafsil gapirib berdi.

Avvaliga kapitan uning hikoyasini ishonqiramay eshitdi, biroq Gulliver hikoyasida davom etgan sari uning diqqat-e'tibori osha bordi. Gulliverning uydirma va mubolag'aga mutlaqo moyil bo'lmagan, jiddiy, haqqoniy va kamtar odam ekanligiga daqiqa sayin tobora ko'proq ishonch hosil qila bordi.

Gapining oxirida Gulliver cho'ntagidan kalit olib, komodini ochdi. U kapitanga yog'och dastali va mugiz dastali ikkita taroq ko'rsatdi. Gulliver mugiz dastani Brobdingneg hazrati oliylarining tirnoq uchidan yasagan edi.

– Tishlari nimadan yasalgan? – deb soʻradi kapitan.

– Qirolning soqolidan.

Kapitan taajjubdan qoʻllarini yozdi.

Keyin Gulliver yarim gazli, bir gazli va undan ham uzun bir necha nina bilan toʻgʻnogʻich olib koʻrsatdi. U hayratlangan kapitanning koʻzi oʻngida qirolichaning toʻrtta sochini chuvatib yubordi, qirolicha sovgʻa qilgan tilla uzukni kapitanga ikki qoʻllab tutdi. Bu uzukni qirolicha jimjilogʻida taqib yurar, Gulliver esa marjon shodasidek boʻyniga osib olar edi.

Ammo hammasidan ham kapitanni tang qoldirgan narsa tish boʻldi. Bu qirol mahramlaridan birining tishi boʻlib, yanglish sugʻurib olingan edi. Tish mutlaqo but-butun ekan, Gulliver uni tozalab, komodiga yashirib qoʻygan edi.

Kapitan darozning tishidan koʻzini ololmay qolganini koʻrgan Gulliver undan bu narsani sovgʻa sifatida qabul etishini iltimos qildi.

Mamnun boʻlib ketgan kapitan shkafidagi bir rafni boʻshatib, unga koʻrinishdan tishga oʻxshagan, kattaligi jihatidan zil-zambil gʻoʻla toshdek gʻalati buyumni joylab qoʻydi.

U Gulliverdan vataniga qaytib borganidan keyin oʻz sayohatlari haqida albatta kitob yozajagi toʻgʻrisida soʻz berishini soʻradi.

Gulliver halol odam edi, soʻzining ustidan chiqdi.

Shu tariqa liliputlar mamlakati bilan darozlar mamlakati haqidagi kitob yuzaga keldi.



## XVI

1706-yil 6-iyun kuni Gulliver tushgan kema Angliya qirg'oqlariga yetib keldi. U bir necha oy yo'l bosib, oziq-ovqat va uch-to'rt marta toza suv olgani portlarga kirdi, ammo sarguzashtlardan tinkasi qurigan Gulliver biron marta ham kayutasidan chiqmadi.

Mana nihoyat uning sayohati tugadi. U kapitan bilan do'stona vidolashdi. Kapitan unga yo'l xarji uchun pul berdi, Gulliver ot yollab, uyiga ravona bo'ldi. Yo'llarda bolalik paytlaridan tanish nimaniki ko'rsa, taajjublanardi. Unga daraxtlar pastak butalardek, uylar va minoralar o'yinchoqdek, odamlar esa liliputlardek tuyulardi.

O'tkinchilarni bosib olishdan qo'rqar, ularning chetga chiqib turishlari uchun qichqirar edi.

Bunga javoban uni so'kar, kalaka qilar edilar. Qandaydir bir serzarda fermer tayoq bilan kaltaklashiga sal qoldi.

Nihoyat, yo'llar-u ko'chalar orqada qoldi.

Gulliver o'z uyining darvozasiga yetib keldi. Keksa xizmatkor unga eshik ochdi, Gulliver ostonadan engashganча o'tdi: boshini eshik tepasiga urib olishdan cho'chigan, bu gal eshik tepadori juda pastak ko'ringan edi.

Xotini bilan qizi uning istiqboliga yugurib chiqdilar, ularni darrov ko'ra qolmadi, odatlanib qolganiga ko'ra yuqoriga qaramoqda edi.

Barcha qarindosh-urug'lari, yoru do'stlari, qo'ni-qo'shnilari kapalakdek kichkinagina, ojj, mo'rt ko'rinardi.

- Men yo'g'imda og'ir turmush kechirganga o'xshaysizlar, - dedi u achinib. - Shu qadar oriqlab, kichkina bo'lib ketibsizlarki, sizlarni ko'z bilan ilg'ab olish ham qiyin bo'lib qolibdi!

Yor-do'stlari-yu qarindosh-urug'lari bilan qo'ni-qo'shnilari ham Gulliverni, aqldan ozgan, deb o'ylab, unga rosa achinardilar.

Shu yo'sinda bir hafta, ikki hafta, uch hafta o'tdi...

Gulliver asta-sekin o'z uyiga, tug'ilib o'sgan shahriga, sinashta narsalariga ko'nika boshladi. Kun sayin atrofida rosmana bo'yli rosmana oddiy odamlarni ko'rarkan, tobora kamroq taajjublanadigan bo'ldi.

Bora-bora ularga pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga qarab emas, yana o'zi bilan teng odamlardek qarab muomala qiladigan bo'lib qoldi.

Odamlarga shu yo'sinda qarash ancha qulay va ma'qulroq, negaki bunda boshni orqaga tashlab cho'zilishning ham, ikki bukilib bukchayishning ham hojati bo'lmay qoladi.



## MUNDARIJA

|               |    |
|---------------|----|
| LILIPUTTYAGA  |    |
| SAYOHAT ..... | 3  |
| <br>          |    |
| BROBDINGNEGGA |    |
| SAYOHAT ..... | 65 |

*Adabiy-badiiy nashr*

JONATAN SVIFT

**GULLIVERNING SAYOHATLARI**

Muharrir  
Feruza QUVONOVA

Badiiy muharrir  
Husan MEHMONOV

Rassom  
Uyg'un SOLIHOV

Texnik muharrir  
Surayo AHMEDOVA

Kompyuterda sahifalovchi  
Feruza BOTIROVA

Bosishga 24.02.2014 y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.  
Garnitura «Bookman Cyr+Uzb». Ofset qog'oz.  
Bosma tobog'i 4.875 b.t. Shartli bosma tobog'i 8.19.  
Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 4.  
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.  
Litsenziya raqami: AI № 198. 2011 yil 28.08 da berilgan.  
«SPECIAL PRINTING SERVICE» bosmaxonasida bosildi.  
100113. Toshkent, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasil-a.  
«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida muqovalandi.  
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

***Murojaat uchun telefonlar:***

Nashr bo'limi – 273-62-71; Marketing bo'limi – 128-78-43  
faks — 273-00-14; e-mail: [yangiasravlodi@mail.ru](mailto:yangiasravlodi@mail.ru)

**«YANGI ASR AVLODI» NMM 2014 YILDA  
«KAMOLOT KUTUBXONASI» RUKNIDA QUYIDAGI  
KITOBLARNI TAQDIM ETADI:**

**A.Dyuma**

**«GRAF MONTE-KRISTO - 1, 2»**

**84x108 1/32, 752, 756 bet, qattiq muqova**

Ikki kitobdan iborat asarning bosh qahramoni Edmon Dantes – Monte Kristo “If” qal’asidan xalos bo’lgach, razolat botqog’iga botgan insonlarni zo’r matonat, aql-idrok bilan fosh etadi. Jazo ham, mukofot ham Allohning irodasi bilan inson tirikligidayoq uni benasib qoldirmasligi asar nihoyasida aks etadi, faqat, Graf ta’kidlaganidek, “kutmoq va umid qilmoq kerak”.

**Artur Konan Doyl**

**«SHERLOK XOLMS VA DOKTOR UOTSONNING  
SARGUZASHTLARI»**

**84x108 1/32 528 bet, qattiq muqova**

Artur Konan Doylning «Yo’qotilgan dunyo», «Zaharlangan mintaqa», «Dahshat vodiysi» kabi asarlari nafaqat Yevropada, balki butun dunyoga mashhur. Va ayni paytda yurtimiz kitobsevarlariga ham yaxshi tanish.

Bu to’plamda yozuvchining detektiv, ilmiy fantastika, sarguzasht asarlaridan saralab olingan hayotiy dalillarga boy hikoya va qissalari joy olgan.

1990 yilda «Baskervillar iti» nomi bilan nashr etilgan mazkur asar kitobxonlar iltimosiga ko’ra qayta chop etilmoqda.

**Andersen**

**“QOR ODAM”**

**84x108 1/32 382 bet, yumshoq muqova**

Andersenning ertaklari bugun ham eng ko’p o’qilayotgan asarlar sirasiga kiradi. Ularda bolalarga xos bo’lgan beg’ubor kechinmalar, ezgulikning g’alabasi, orzu-umidlarning ushalihi, yorug’ olamda har birimiz har qadamda duch kelib, kundalik hayotimizdayuz berayotgan oddiy voqea-hodisalarning o’zgacha talqini tilga olinadi.

Ertaklar katta-kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, ular tasavvuringizni boyitadi, aqlingizni charxlaydi. O'lis manzillardagi ertaklarning mo'jizaviy ohangi Siz aziz kitobxonlarni maftun etadi.

**Daniyel Defo**

**"ROBINZON KRUZO"**

**Ingliz va o'zbek tilida.**

**84x108 1/32, 48 bet, yumshoq muqova**

Yigirma sakkiz yil kimsasiz va bepoyon orolda yolg'iz o'zi yashagan Robinzon Kruzoning boshidan kechirgan sarguzashtlarga boy hayoti va uning baxtli yakuni haqidagi qiziqarli hikoya sizni befarq qoldirmaydi.

**Jyul Vern**

**"O'N BESH YOSHLI KAPITAN"**

**Lotin alifbosida**

**84x108 1/32, 356 bet, yumshoq muqova**

Asrlar osha qo'ldan qo'ymay o'qib kelinayotgan mazkur asarda o'n besh yoshli kapitan – Dik Sendning bir-biridan qiziqarli sarguzashtlari qalamga olinadi.

Jumladan, Janubiy Afrikada kechgan xunrezliklar, qullar savdosi bilan bog'liq ayanchli voqealar, turli xavf-xatarlarga qolgan kapitan Dik va sayohatchi do'stlari – xizmatchisi Gerkules, missis Ueldon va uning kichik o'g'li Jek, xayolparast olim Benedikt tog'aning boshidan kechirganlari sizni befarq qoldirmaydi, degan umiddamiz.

**Jeyms Joys**

**"ULISS SARGUZASHTLARI"**

**84x108 1/32 380 bet, qattiq muqova**

Tasavvur. Tafakkur. Insonning faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan bu «manba» bittagina kitob mutolaasi va undan keyin paydo bo'ladigan mulohazalardan keyin o'zgarishi mumkin. E'tiboringizga havola etilayotgan dunyoning mashhur romani mutolaasidan so'ng ham shunday xulosaga kelishingizga aminmiz.

**Hind eposi**

**“KALILA VA DIMNA”**

**84x108 1/32, 246 bet, qattiq muqova**

Bu asar, necha asrlarki, hikmat va masallar bobida munosib o‘rin egallab kelmoqda. Xalq hayoti, dardi, ahli donishlar ulug‘vorligi, hozirjavoblik, donolik aks etgani uchun ham “Kalila va Dimna” ta’rif va tavsifga ega. Undagi masallar, hikmatlar mag‘zi insoniylik, olijanoblikni ulug‘laydi. Tarbiyaviy ahamiyati jihatidan ham ushbu bebaho asar bugun-da o‘z qiymatini yo‘qotmagan. O‘qing, uqing, donolar olamida bo‘ling.

**Migel de Servantes Saavedra**

**“DON KIXOT”**

**84x108 1/32, 432 bet, qattiq muqova**

Ispan yozuvchisi Servantesning mazkur asari jahon adabiyotining eng nodir asarlari sirasiga kiradi. Asarda ispan xalqining o‘tmishdagi hayot lavhalari, urf-odatları yetuk mahorat bilan tasvirlangan, shuningdek, turmushdagi laqmalik, nodonlik, firibgarlik kabi illatlar o‘tkir hajv tili bilan bayon etilgan.

**Mark Tven**

**“TOM SOYERNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI”**

**84x108 1/32, 288 bet, yumshoq muqova**

**Kirill va lotin yozuvlarida**

Adib mazkur asarida yosh, o‘ta qiziqqon va sho‘x, chigal to‘siqlardan ham qiynalmay o‘ta oladigan, og‘ir va murakkab sharoitlarda ham o‘zini tuta biladigan, uddaburon bola Tom Soyer haqida hikoya qiladi.

**Paulo Koele**

**“ALKIMYOGAR”**

**84x108 1/32, 184 bet, yumshoq muqova**

O‘z taqdirimiz o‘z qo‘limizdami? Misni oltinga aylantiradigan Alkimyogar, umumbashar tili, taqdir toshlari aslida mavjudmi? Orzular, muhabbat bu yo‘lda bizga yordam beradimi yoki aksincha... Asar mana shular haqida ramziy bir shaklda hikoya qiladi.

**Rashod Nuri Guntekin**  
**“CHOLIQUSHI”**

**84x108 1/32, 458 bet, qattiq muqova.**

Muhabbat mavzusiga bagʻishlangan asarlarni millati va dinidan, yoshidan qatʻi nazar, barcha birdek sevib, koʻziga yosh olib, qahramoni taqdiriga oʻzini hamdard qilib oʻqiydi. Rashod Nuri Guntekinning mashhur “Choliqushi” asarini ham xuddi shunday hissiyot bilan qoʻlga olasiz. Unda bu tuygʻu oʻzining butun qudratini birgina ojiza – Choliqushi timsolida yaqqol gavdalantirib beradi.

**Rabindranat Tagor**  
**“NUR VA SOYALAR”**

**84x108 1/32, 256 bet, yumshoq muqova.**

Dunyoda har bir xalqning adabiyot choʻqqisini zabt etgan, el ardoqlagan ulugʻ siymolari bor. Hind millatining shunday farzandlaridan biri Rabindranat Tagordir. U oʻzining oʻtkir qalami bilan millatini uygʻotish, yurtini hur va ozod koʻrish uchun kurashdi.

**Stendal**  
**«QIZIL VA QORA»**

**84x108 1/32, 708 bet, qattiq muqova.**

Mashhur frantsuz yozuvchisi Stendalning «Qizil va qora» romani haqli ravishda dunyo adabiyoti durdonalari qatoridan oʻrin olgan.

Roman qahramoni boʻlmish Jyulen bilan de Renal xonim oʻrtasidagi muhabbat shu qadar tabiiy hamda tiniq tasvirlanadiki, kitobxon beixtiyor ularning musaffo tuygʻulariga maftun boʻlib qoladi.

Romanda yaxshilik va yomonlik, ezgulik va razillik oʻrtasidagi kurash zoʻr kuch bilan tasvirlab berilgan. Asarning «Qizil va qora» deb nomlanishining boisi ham shunda.